Arxeologik materiallar va yozma manbalarning guvohlik berishicha, mintaqada turli hunarmandchilik sohalari bo'lib, ularning ichida eng asosiylari kulolchilik, temirsozlik, to'qimachilik, tosh-taroshlik va boshqalar hisoblangan. Taqdim etilayotgan maqolamizda asosan kulolchilik va qisman boshqa hunarmandchilik sohasidagi yangiliklarga to'xtalib o'tamiz. Vodiyning Antik davri hunarmandchilik sohalari bo'yicha deyarli barcha oldingi tadqiqotchilar tomonidan qisman yoki biron bir hudud hunarmandchiligi haqida ma'lumot berilgan. Shu bilan birga, mintaqa hunarmandchiligining alohida yo'nalishlari bo'yicha yirik farg'onashunoslar tomonidan bir qator maxsus ilmiy ishlarda keltirilgan (Заднепровский 1962: 130–144, 150–153; Литвинский 1973a; Литвинский 1973b; Баруздин 1961: 51–54, 56–66; Гаврюшенко 1970: 15–19; Горбунова 1960: 93–94; Горбунова 1981a: 40–41; Горбунова 1981b: 178–183; Горбунова 1990: 45–50; Горбунова 1996: 72–92; Горбунова 1999: 39–43; Салтовская 1980: 195–207; Малтаев Матбабаев 2005: 66–69). Holbuki, hunarmandchilik sohasida vodiyning ziroatkor va ko'chmanchi madaniyatlarining o'z o'rni va roli bo'lgan. Shu tufayli, bu madaniyatlarga oid ishlab chiqarishning o'ziga xosligi va ular orasidagi umumiyliklar haqida alohida to'xtalib o'tamiz.

Farg'ona vodiysidan o'tgan "Buyuk ipak yo'li" magistral yo'nalishlari tobora kengayib, xalqaro munosabatlarining chuqurlashib borishi barobarida, Qadim Farg'ona (Davan) davlati Sharqiy Turkiston (Shinjon), Xitoy va Hindiston mamlakatlari bilan yaqindan savdo-sotiq ishlarini faollashtirib borgan (Литвинский 1978: 99–100, 102–103, 105; Баруздин Подольский 1961: 127–129). Davlatchilik muzofotlarida tashqi savdoning ravnagi, o'z navbatida, shakllangan turli sohadagi hunarmandchilikni yanada rivoj topishiga katta omil bo'lib xizmat qilgan.

Ma'lumki, dala tadqiqotlari davomida qo'lga kiritilgan arxeologik manbalarning aksariyati kulolchilik, temirchilik, to'qimachilik va tosh-taroshlik namunalaridan tarkib topgan. Shu bilan birga, zargarlik, hayvon suyaklaridan turli buyum (taqinchoqlar, turli qurollarning qismlari, haykalchalar, ayollarning pardoz buyumlari va boshqa)lar, turli yog'och buyum (urchuq, olov ishlab chiqaruvchi jihoz, kamon yoylari, nayza va o'q dastasi)lari hamda tol novdalari va qamishdan tayyorlangan buyumlar ishlab chiqaruvchi hunarmandlar mavjud bo'lgan. Bu borada hunarmandchilik sohasiga ixtisoslashgan manzilgohlar – sopol idishlari va temir buyumlari ishlab chiqarish markazlarining xalqaro savdo yo'llarida joylashib, o'ziga xos savdo markazlari tashkil bo'lganligini arxeologik dalillar asosida keltirish mumkin. Bunday qadimiy va arxeologik jihatidan yaxshi o'rganilgan ilk antik davriga oid markazlardan biri Andijon viloyatida dastlab shakllangan Sultonobod kulollar manzilgohi bo'lsa, keyinchalik so'ngi antik davrda rivoj topgan kulollar manzilgohi – Kamoltepa yodgorligida bo'lgan. Zero, ushbu kulollar manzilgohida ko'plab xumdonlar qoldig'i va ular atrofida qayd qilingan saqlanib qolgan idishlar hamda kuydirish chog'ida savdo sifati buzilgan

(brak) idish bo'laklarining g'aramlari qayd qilingan (Абдулгазиева 1995: 41–46; Абдулгазиева 2000: 12–16).

Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, So'ngi bronza davridan boshlab ko'chmanchi chorvadorlar vodiyning o'troq aholisi bilan yaqindan munosabatlar o'rnatgan va o'zlarida ular madaniyatining ta'sirini xis qilish bilan birga, o'z madaniy ta'sirini ziroatkor madaniyati soxiblariga o'tkazib kelishgan. Shak-shubhasiz, sopol idishlarning yaratilishida va ularning naqshlanishida o'troq madaniyatlarining ko'chmanchilarga ta'siri kuchliroq bo'lgan, biroq o'zlaridan asosan mozar (nekropol)qo'rg'onlarini qoldirgan ko'chmanchilarda ham o'z turmush tarzini ifodalovchi sopol idish yaratish uslublari bo'lganligi isbotlangan fakt (Абдуллаев 2018: 30, 35).

Ziroatkor madaniyati hunarmandchiligi. Bu borada o'troq aholi va ko'chmanchilar orasida yirik savdo markazlari hamda savdo magistrallarida joylashgan hududda qad ko'targan Sultonobod manzilgohi yorqin misol bo'la oladi. Taqdim etilayotgan maqolada bizdan oldingi tadqiqotchilarning xulosalarini yangi qazishmalar natijalari bilan solishtirib chiqiladi. Bunda Andijon viloyati Qo'rg'ontepa tumanidagi Qo'shtena-2 (2014–209), Sultonobod-3 (2023) hamda Sultonsupa (2024) yodgorligida qo'lga kiritilgan osori atiqalarining tahlili keltiriladi. Aytib o'tish lozimki, qadimdan vodiyning sharqiy (O'zbekistonning Andijon viloyati va Qirg'izistonning Osh, O'zgan va Jalolobod viloyatlari) hududlarining serunum yerlari dastlab o'zlashtirilgan bo'lib, So'ngi bronza davrining ilk ziroatkor Chust va Ilk temir hamda Ilk antik davrlariga oid Sho'raboshot madaniyatlari shakllanib rivojlanishi barobarida qo'lda va keyinchalik charxda yasalgan sopol idishlarni ishlab chiqarish mintaqaning g'arbiy muzofotlariga tarqalgan. Keltirilgan ikkinchi madaniyat kulollari tomonidan Chust madaniyati kulolchilik an'analari asosida bevosita Ilk temir va Antik davrlarining ilk bosqichlarida shakllangan sopol idish yaratish uslublari rivojlanib, Antik davrning ikkinchi bosqichi hamda qisman Ilk o'rta asrlarda davom etgan.

Garchi, Sho'raboshot tipidagi kulolchilik buyumlari 1954 yilda qayd qilingan bo'lsada, ular uzoq vaqt arxeologlarning nazaridan chetda qolgan. Faqat o'tgan asrning 80–90 yillari bu madaniyat yodgorliklari nafaqat dastlab aniqlangan O'zgan viloyati va Qoradaryo havzalarida, balki boshqa qo'shni hududlarda ham qayd qilina boshladi. Ehtimol, shu sababli Sho'raboshot madaniyatining Farg'ona qadim madaniyatlari shakllanishidagi o'rni va roli ancha kech anglangan bo'lsa kerak. Zero, XX asrning 90-yillariga qadar u lokal madaniyatlar qatoridan chiqmay qolgani yetmaganday, ayrim tadqiqotchilar tomonidan umuman Qo'g'ay-Qorabuloq madaniyatining bir qismiga aylantirilgan (Горбунова 1979б: 137; Горбунова 1983: 26).

Shu vaqtlarda Qirg'izistonning janubiy viloyatlaridagi Sho'raboshot madaniyatiga oid yodgorliklar tizimli o'rganila boshlandi (Заднепровский 1984: 33). Biroq, bu madaniyat sopol komplekslari O'zbekiston hududida 1970–1990 yillari kichik hajmdagi arxeologik ishlar amalga oshirilib, ularning natijalari turli turkumdagi ilmiy ishlar vositasida keng ilmiy jamoatchilikka taqdim etib kelingan (Абдулгазиева 1978: 145–158; Абдулгазиева 1979: 105–106; Абдулгазиева 1993: 20–29; Абдулгазиева 2000: 12–16).

Ohirida keltirilgan tadqiqotchining xulosasiga ko'ra, Sultonobod manzilgohida olib borilgan qazishmalar natijasida olingan boy sopol komplekslarini alohida ajratib turuvchi jixat shundaki, ularda idish shakllarining tobora standartlashishi hamda ularni bozor uchun ishlab chiqarishga qaratilganligini ko'rsatadi. Bu madaniyatga taalluqli boshqa aholi punktlaridan farqli ravishda, ushbu manzilgohda aholi sopol buyumlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan edi. Gap shundaki, Sultonobod manzilgohining barcha qurilish gorizontlarida qo'lda va charxda yasalgan brak (nuqsonli) idish bo'laklari qayd qilingan. Shu bilan birga, ularning keng turdagi mahsulotlari nafaqat o'troq ziroatkorlarida, balki ko'chmanchi aholi orasida ham tarqalgan (Абдулгазиева 2000: 14). Bizning fikrimizga ko'ra, mil.avv. IV–III asrlarda ayrim hollarda ziroatkor kulollar ko'chmanchi qabilalarning bazi diniy marosimlarida ishlatiladigan idishlarni ham buyurtma asosida tayyorlab

berishgan bo'lsa kerak. Misol uchun, Sultonobod manzilgohidan 7–8 km sharqda joylashgan Xonobod-1 mozorqo'rg'onidan topilgan qo'lda yasalgan va bo'yoq bilan naqshlangan idishlarning aksariyatida ko'chmanchilarga xos idish naqshlaridan tashqari, ko'p hollarda Sho'raboshot o'troq madaniyatiga xos ornamentlar ham aniqlangan (Абдуллаев 2023: 25–26).

Antik davrda, Sultonobodda kulolchilik xumdonlari qayd qilinmagan bo'lsada, biroq undan 2 km g'arbda joylashgan Tepa-4 yodgorligida olib borilgan qazuv jarayonlarida topilgan brak (sifati buzilgan) idish bo'laklarining ko'plab g'aramlari qayd qilinganligi, mil.avv. I ming yillik o'rtalarida Sultonobodda ixtisoslashgan kulolchilik keng rivojlanganligidan dalolat beradi. Vaholanki, bu yodgorlikdan 1 km sharqda qayd qilingan Chust madaniyatiga oid Jannatmakon manzilgohi 2023–2024 yillari o'rganila boshlangan bo'lsada, dastlabki qazishmadan oq bu kulollar manzilgohi bo'lganligi aniqlandi. Demakki, zamonaviy Sultonobod massivi hududida So'ngi bronza-Antik davrlari mobaynida qadim ziroatkor madaniyatlarining kulolchilik an'analari uzluksiz ravishda taraqqiy etgan. Bu hol esa, ushbu an'analarni vodiyning g'arbiy qismlariga bir tomondan Shaxrixonsoy va Andijonsoy kanallari vositasida yangi o'zlashtirilgan yerlarga urbanizatsiyaning ajralmas unsuri sifatida bosqichma bosqich tarqalib borgan bo'lsa, ikkinchi tomondan mintaqa ko'chmanchilarining migratsiyalari vositasida yetib borgan deb xulosa qilishga imkon beradi.

Yuqorida keltirilgan barcha ma'lumotlarga ko'ra, Sultonobod manzilgohi Buyuk ipak yo'lining sharqiy va janubi-sharqiy trassalarida joylashgan manzilgohlar bilan ichki savdo ko'lamini kuchaytirish barobarida, G'arb va Sharq mamlakatlari orasidagi xalqaro savdoning rivojlanishiga ham o'z xissalarini qo'shgan. Zero, bu yerda ishlab chiqarilgan charxda va qo'lda yasalgan idishlar nafaqat o'troq aholi orasida, balki ko'chmanchilarda ham katta maqomga ega bo'lgan. Bir qator tadqiqot natijalariga ko'ra takidlash lozimki, sopol materiallari asosida vodiyning savdo aloqalari Choch, So'g'd, Xitoy, Eron va yunon mamlakatlari bilan o'rnatilganligini takidlash mumkin. Vaholanki, Sho'raboshot madaniyatiga oid qizil angobli va yupqa devorli charxda ishlangan idishlar qo'shni tarixiy-madaniy mintaqalarda ham topilgan (Филанович 1983: 51).

Xitoy solnomalarining ma'lumot berishicha, Qadim Farg'ona (Davan) davlatida torevtika (qimmatbaho metallardan ishlangan) buyumlari sohasidagi xunarmachilik ham katta rivoj topgan (Бичурин 1950: 162). Garchi, bunday buyumlarning arxeologik qazishmalar davrida topilishi juda kamda kam uchraydigan hodisa bo'lsada, bu kabi qimmatbaho idishlar mavjud bo'lganligini bilvosita ma'lumotlar tasdiqlaydi. Vaholanki, muallif tomonidan Mingtepa yodgorligida olib borgan tadqiqotlari davomida oltin va kumushdan yasalgan idishlarga taqlid qilgan holda qadimiy kulollar sopolidan yuqorida keltirilgan nodir metallar ko'rinishini bera oladigan ranglarda noyob idishlarni tayyorlay olganligi qayd qilingan.

Shu bilan birga, mintaqada joylashgan va Sho'raboshot madaniyatiga oid ko'plab arxeologik yodgorliklaridan asosan sopol, qisman tosh va kam hollarda metallardan tayyorlangan turli xil o'lchamdagi urchuqtoshlar qayd qilingan. Ushbu sopol urchuqtoshlar aksariyat hollarda bikonus shaklida qizil angob bilan qoplanardi, holbuki urchuqtoshlar sifatsiz loydan va usti bo'yalmagani hamda toshlardan yasalganlari ham mavjud bo'lgan. Turli tuman urchuqtoshlarning paydo bo'lishi to'qimachilikning rivojlanishidan dalolat beradi. Idishlarda saqlangan mato izlarining tahlili hunarmandchilikning bu yo'nalishida oddiy va murakkab to'quv uslublari vositasida turli xil matolar ishlab chiqilganligini hamda to'qimachilik Antik davr aholisining muhim kasblaridan biri bo'lgan deb takidlash mumkin.

Bir qator tadqiqot natijalariga ko'ra, to'qimachilik jarayonlarida har xil turdagi xom ashyo (paxta, ipak, jun, kanop)dan ip-tola yigirish uchun turli og'irlikdagi urchuqtoshlardan foydalanilgan. Bu esa, ishlab chiqarishda ip yigirishning ixtisoslashuvi yuksak sifat darajasiga ko'tarilganligini bildiradigan ko'rsatgichdir (Литвинский 1978: 41, 42). Shuningdek, So'ngi antik davriga kelib

hunarmandchilikning to'qimachilik sohasida ip-toladan gazlamalar tayyorlashning bir necha usullari rivoj topgan edi.

O'troq madaniyatiga taalluqli manzilgohlarda toshdan yasalgan buyum (yorg'uchoq, qayroqtosh, oshiq-mashuq, o'roq va hokazo)lar ichida eng ko'p uchraydigani bu – turli xajmlarda soy toshlaridan ishlab chiqilgan yorg'uchoqlar bo'lgan (Абдуллаев 2016: 44–45, рис. 32, 34). Garchi, yorg'uchoqlarning asosiy vazifasi boshqoli don maxsulotlarni yanchib maydalashga qaratilgan bo'lishiga qaramasdan, ko'p hollarda ulardan kulollar tabiiy rang olish uchun turli minerallarni yanchib tuyishda foydalanishgan (Абдуллаев Алмазова 2005: 22; Абдулгазиева 2012: 151). Shuningdek, ko'p bo'lmasada turli metallardan tayyorlangan harbiy va mehnat qurollari, taqinchoqlar, soch to'g'nag'ichlari, kamar to'qalari, hamda toshdan ishlangan surmatoshlar bo'lgan.

Ko'rinib turibdiki, Antik davrga oid o'troq madaniyatlarga taalluqli hunarmandchilik sohasida keskin rivojlanish kuzatilgan.

Ko'chmanchilar madaniyati hunarmandchiligi. Bu yo'nalish bo'yicha yangi tadqiqot natijalarini umumlashtirish vositasida xulosalarni keltirilishi maqsadga muvofiqdir. Muallif rahbarligida 2020–2023 yillari Andijon viloyatining Eylaton madaniyatiga oid qabr qo'rg'onlariga taalluqli va mil.avv. IV–III asrlarga tegishli Xonobod-1 yodgorligida olib borilgan dala tadqiqotlari jarayonida bir qator topilmalar qo'lga kiritilgan. Shu sababli, ushbu asori-atiqalarini mintaqaning boshqa arxeologik obyektlarida qayd qilingan qadim hunarmandchilik mahsulotlari bilan qiyosiy-solishtirma tahlil natijalarini keltirishni o'rinlidir deb bildik.

Xonobod-1 yodgorligida olib borilgan arxeologik izlanishlarimiz natijasida qo'lda yasalgan va bo'yoq bilan naqshlangan sopol idishlar kompleksi davriy jixatidan ancha oldingi (Oqtom, Sufon) hamda davrdosh (Qo'ng'ay) bo'lgan mozorqo'rg'onlaridan topilgan sopol idishlaridan farqli naqshlarga boyligi bilan ajralib turardi. Jumladan, an'anaviy ko'chmanchilarga xos uchburchaklar shodasidan tashqari, ziroatkor madaniyatlarga taalluqli ichi o'ziga xos geometrik shakllar bilan to'ldirilib bezatilgan romblar shodasi hamda ora-orada o'simliksimon naqshlar bilan to'ldirilgan sopol kosalar qayd etilgan. Bu yodgorlik va undagi eng qadimgi qo'lda yasalib, bo'yoq bilan naqshlangan idishlar yarim sferasimon shakldagi kosa va shokosalardan iborat bo'lib, asosan "mato shablonida" tayyorlangan. Bu idishlarning 1-turidagilar balandligi 6–8 sm, gardishining diametri 16–21 sm ega bo'lsa, 2-turidagilar balandligi 9–11 sm va gardishining diametri 22–26 smdan iborat edi (Abdullayev 2023: 25).

Shuningdek, Xonobod-1 yodgorligidan 2021-yil dala qazishmalari jarayonida o'ziga xos ikki topilma aniqlangan. Bular bir juft (biri dastali, ikkinchisi dastasiz) finjonlar bo'lib, ulardagi naqshlarda yuqorida keltirilgan ornamentasiya motivlari saqlangan. Birinchi finjonning labiga kichik vertikal dastacha biriktirilgan va unda ip (ot yoli yoki dumi) o'tkazishga moslangan gorizontal teshikchasi bo'lgan. Ular ham kosalar singari yarim sfera shaklga ega bo'lib, balandligi 4,5–5 sm va tanasini eng enli qismining diametri 5–6 smni tashkil qilgan. Takidlash lozimki, Xonoboddan topilgan dastali finjonlar kabi idishlar vodiya shu vaqtgacha o'rganilgan Eylaton madaniyati sohiblariga tegishli yodgorliklardan topilmagan va uning mintaqa sharqida aniqlanishi o'ziga xos yangilikdir.

Xonobod-1 sopol kompleksidagi bezaklar och jigarrang yoki och qizil fon ustiga to'q qoramtir-qizil yoki to'q jigarrangda tushirilgan bo'lib, asosan bo'yoqli naqshlar kosaning faqat pastki qismiga tegmagan. Shu bilan birga, Xonobod sopol idishlarining ornamentasiyasida ko'chmanchilarga xos naqshlar bilan birga ziroatkor Chust va Sho'raboshot madaniyatlariga tegishli elementlar ko'plab ishlatilgan. Xonobodda topilgan idishlardagi ornamental bezaklarning asosiy syujeti – ichi ko'chmanchi va ziroatkor diniy tasavvurlariga yo'g'irilgan turli geometrik

shakllar bilan to'ldirilgan hamda gorizontaal terilgan va ko'pincha o'zaro bog'liq romblar yoki kam hollarda uchburchaklar shodasi ko'rinishida bo'lgan (Abdullayev 2023: 25–26).

Takidlash lozimki, Antik davrida ko'chmanchilar ham foydalangan sopol idishlarning bir qismini qo'lda yasalgan idishlar va, aksariyat holda charxin idishlar tashkil qilgan. Biroq mozorqo'rg'onlarda marxum oldiga qo'yiladigan idishlarning ko'pchiligini qo'lda yasalgan idishlardan iborat bo'lgan. Shunday bo'lsada, Eylaton madaniyatiga tegishli mozorlarning deyarli barchasida mil.avv. I ming yillikning ikkinchi yarmidan boshlab charxin sopol qo'lda yasalgan idishlar bilan birga yoki alohida qabrlar boshiga qo'yilishi qayd qilingan.

Arxeologiya fanida ko'chmanchilarning manzilgohlaridan ko'ra mozorqo'rg'onlari ko'proq topib o'rganilgan bo'lishiga qaramay, qo'lga kiritilgan mato shablonidagi sopol idish parchalari va qabrlarda urchuqtoshlarning topilish ko'lamidan kelib chiqib, ularda ham to'qimachilik rivoj topganligi xaqida gapirish mumkin. Biroq, savdo rivojlangan bu davrda jun kalavaridan boshqa (paxta, ipak va h.) iplardan to'qilgan gazlamalar o'troq aholidan tovar ayriboshlash vositasida olingan deb tahmin qilishimiz mumkin.

Bu borada shuni misol qilishimiz mumkinki, milodiy III–IV asrlarga oid Qorabuloq (vodiyning janubi-g'arbiy qismi – Qirg'iziston hududi) mozorqo'rg'onida ochilgan qabr ichidan marxum oldiga qo'yilgan idishlardan tashqari mato qoldiqlarini tahlillariga ko'ra, ipak tolasidan ikki xil usulda tayyorlangan kashta va besh xil jun gazlamadan ishlangan matolarning olti xil qalinlikdagi toifalari topilgan. Holbuki, bu davrda ipak matolarini tayyorlashning to'rt usuli qayd qilingan edi (Баруздин 1957: 102; Баруздин 1961: 44, 45; Лубо-Лесниченко 1982: 48–49). Albatta ko'chmanchilarda aksariyat hollarda jundan to'qilgan gazlamalar keng miqyosda ishlab chiqarilgan, biroq texnik o'simliklar vositasida ishlangan matolar asosan o'troq aholi hunarmandlaridan mol ayriboshlash orqali olingan.

Dala tadqiqotlari jarayonida ko'chmanchilarga oid yodgorliklar (asosan mozorqo'rg'onlar)da tosh yorg'uchoq bo'laklari uchrab tursada, eng ko'p uchraydigan moddiy madaniyat namunalari – turli metallardan tayyorlangan taqinchoqlar, soch to'g'nag'ichlari va kamar to'qalari, ot-ulov jixozlari, harbiy va mehnat qurollari hamda har xil minerallar va xayvon suyaklaridan ishlangan munchoqlar bo'lgan. Takidlash lozimki, toshdan yasalgan buyum (qayroqtosh, o'roq va surmatosh) lar ichida ayrimlari badiiy san'at darajasiga ko'tarilgan. Bu borada, yangi topilmalar orasida o'ziga xos nozik did bilan ishlangan surmatoshni misol qilib keltirsa bo'ladi. Zero, agarda Eylaton madaniyatining ilk bosqich (mil.avv. VII–V asr)larida surmatoshlar ancha sodda bir necha turdan iborat bo'lsa (Горбунова 1981: 179, рис. 37, 1–2), bu madaniyatning so'ngi bosqich (mil.avv. IV–III asr)larida Xonobod-1 yodgorligida topilgan surmatosh juda noziklashishi barobarida uning bosh qismi ko'z va og'zini ochib turgan ilon ko'rinishida namoyon bo'ladi.

### **Xulosa**

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, mintaqaning Antik davriga oid hunarmandchilik sohasining kuchli taraqqiyoti ilk temir davrida ko'chmanchi va o'troq madaniyat soxiblarining o'zaro madaniy ta'sirining kuchayishi natijasida Qadim Farg'ona (Davan) markazlashgan davlatining shakllanishi va rivojlashi bilan bog'liq. Holbuki, bu davlatni boshqargan sulola qariyb ming yil davomida xukm surgan – mil.avv. I ming yillik o'rtasida tarix sahnasiga kelib, milodiy 485 yili butkul tugatiladi. Albatta, mintaqaning har tomonidan tog'lar bilan qurshab olingan holda tabiiy muxofazaga ega bo'lganligi, ehtimol, uni buyuk ahamoniylar va yunonlar saltanatlari bosqinidan yetarli ximoya qilgandir. Biroq, bu yerda davlatchilik tomonidan dehqonchilik maydonlarini kengaytirish yo'lida yirik suv inshootlarini bunyod etish uchun olib borilgan oqilona ichki va tashqi siyosatning o'rni kam bo'lmagan. Shu bilan birga, Qadim Farg'ona (Davan) markazlashgan davlatining g'arbida joylashgan tarixiy davlat va saltanatlar milodiy I ming yillik o'rtasiga qadar uning yaqin ittifoqchilari sifatida bo'lib, asosiy harbiy bosqin

xavfi, ayniqsa mil.avv. II-I asrlar chegarasida olib borilgan Xitoy-Farg'ona davlatlari orasidagi urushlardan so'ng, sharq tarafda saqlanib qolgan hamda mamlakat asosiy mudofaa tizimlari shu yo'nalishda kuchaytirilgandi.

Darxaqiqat, Qadim Farg'ona (Davan) markazlashgan davlatining shakllanishi bilanoq, uning dastlabki ichki siyosati davlat xazinasini ko'paytirishga qaratilgan bo'lib, mintaqaning markazi va janubi-g'arbida suvsiz yotgan bo'z yerlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgandi. Buning uchun esa, dastlab Chust madaniyatida shakllanib so'ngra Sho'raboshot madaniyati soxiblari tomonidan rivojlanib kelinayotgan sug'orish tizimining asosi xisoblanmish sun'iy kanallarining moxiyatini kuchaytirish lozim bo'lgan. Yuqorida keltirilgan ziroatkor madaniyatlar So'ngi bronza davridan boshlab, bizning fikrimizcha, vodiyning sharqidagi ko'plab buloqlarning o'zanlarini birlashtirish vositasida katta bo'lmagan ilk sug'orma kanallarini kashf qilishgan, biroq bu kabi kichik suv inshootlari vodiylarida bir necha o'nlab mikrovohalarda tashkil qilingan bo'lsada, ularning imkoniyatlari chegaralangan miqdordagi dala maydonlarini sug'orish uchun yetardi xolos.

Markaziy davlatchilikning ichki siyosatidagi eng asosiy islohat aynan zamonaviy Xonobod shahri hududidan oqib o'tgan Qoradaryodan dastlab Shahrixonsoy (120 km) va, bir muddatdan so'ng, uning etagidan Andijonsoy (60 km) kanallarini ochib chiqishga qaratilgandi. Biroq, bunyod etilgan ikki yirik sun'iy suv inshootlari, aksariyat hollarda to'g'ri yo'nalishga ega hozirgi zamon kanallaridan farqli, tabiiy daryolarga o'hshash "ilon izi" ko'rinishida bo'lgan. Zero, yangi kanallar qurilishi Chust va Sho'raboshot ziroatkor madaniyat soxiblari sayi-xarakatlari tufayli an'anaviy tarzda hamda muntazam ravishda rivojlantirib borilishi natijasida qadimiy buloqlar o'zanlarini o'zaro birlashtirish vositasida amalga oshirib kelinganligi ehtimoldan holi emas.

Shahrixonsoy va Andijonsoy kanallarini qanchalik iqtisodiy va ijtimoiy qurbonlar xisobiga bunyod etilganligi fanga aniq bo'lmasada, keng ko'lamda amalga oshirilgan ushbu bunyodkorlik ishlari uchun juda katta mehnat va iqtisodiy resurslarning sarflanganligi tabiiy. Bunday katta xajmdagi ishchilarni zarur mehnat anjomlari va oziq-ovqat bilan ta'minlash hamda ish jarayonlarini yaqindan nazorat qilish va boshqarish uchun mas'ul amaldorlarga soylar bo'yida, bir biridan ma'lum masofa uzoqligida dastlab mudofalangan manzilgohlar barpo qilingan.

Garchi bu ikki magistral suv inshootlari uzoq vaqt (Andijonsoy mil.avv. IV–I asrlarda, Shahrixonsoy esa mil.avv. IV – mil. IV asrlar) davomida bosqichma bosqich ishga tushirilgan bo'lsada, vodiyning sharqiy muzofotlari (hozirgi Qirg'izstonning Osh, Jalalobod va O'zgan viloyatlari)da bir necha 100 metrdan bir necha o'n km gacha uzunlikka ega kanallar mavjud bo'lgan. Ohirgi tadqiqotlarimizga ko'ra, suv inshootlari markaziy davlat uchun nafaqat bevosita moliyaviy foyda keltirgan, balki bosqichma bosqich har 2–3 km masofada maxsus nazorat inshootlariga ega suv havzalari oldida Buyuk ipak yo'lining bir qator shahobchalari shakllanib, ichki va tashqi bozorlarni keskin rivojlanishiga olib kelgan. Bu esa, o'z navbatida, davlat uchun bilvosita moliyaviy foyda keltirgan deb takidlash imkonini beradi. Vaholanki, bu kabi taraqqiyot Shahrixonsoy va Andijonsoy bo'ylarida dastab vaqtinchalik qurilgan mudofalangan manzilgohlar o'rnida ko'shklar va, ayrim hollarda, tez-tez mahalliy va xalqaro yarmarka bozorlari tashkil qilinib turgan manzillar yaqinida shaharlar ham shakllana boshlaganligi ehtimoldan holi emas. Ya'ni ikki yirik suv inshootining barpo qilinishi nafaqat dehqonchilikni keskin rivojlanishiga, balki hunarmandchilik va savdo sotiqlarining yangi marralarga ko'tarish bilan birga shaharsozlik va urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirib yuborgan.

Antik davrining ilk bosqichi (mil.avv. IV–I asrlar) da butun mintaqaga bo'yicha tarqalgan o'troq va ko'chmanchi madaniyatlari kulolchiligi taraqqiyotida yangilik – kulolchilik charxi ishlatila boshlanadi. N.G. Gorbunova va G.P. Ivanov kabi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, dastlab mintaqaga kulolchilik charxi ko'chmanchi Eylaton madaniyati migrasiyalari tufayli kirib kelgan, so'ng bu yangilik Sho'raboshot o'troq madaniyati vakillari tomonidan qo'llanilgan va keskin ravshda

rivojlantirilgan. Biroq, ayrim tadqiqotlar natijasiga ko'ra, kulollik charxi Chust madaniyatining so'ngi bosqichlarida ixtiro qilangan bo'lishi mumkin<sup>1</sup>. Kulollik charxini vodiy hududida qanday paydo bo'lishiga qaramay, charxin kulolchiligi aynan o'troq madaniyatiga taalluqli hunarmandlar tomonidan keng ko'lamda o'zlashtirilgan. Shu bilan birga, Qadim Farg'ona markazlashgan (Davan) davlati siyosati vositasida mintaqadagi ichki va tashqi savdoning rivojlanishi tufayli bozor uchun ishlab chiqariladigan sopol idishlarni standartlashtirilishiga olib kelishi bilan birga, maxsulot sonining ko'payishiga va kulollar sohasining mukammallashishiga zamin bo'lib qolgan. Natijada, qo'lda yasalgan va bo'yoq bilan naqshlangan sopol idishlar diniy hamda tantanovor tadbirlar uchun, naqshlanmaganlari odatta oshxona uchun ixtisoslanishi barobarida, charxda yasalgan sopol idishlar ham toifalanib, tantanovor tadbirlar va kundalik ehtiyojlar uchun ishlatilgan.

Takidlash lozimki, hozirgi vaqtda kulolchilik charxida ishlangan sopol idish, arxeologik nuqtai-nazaridan, dastlab ko'chmanchi Eylaton madaniyatida qayd qilingan bo'lsada, charxning keng ko'lamda ishlatilishi ziroatkor Sho'raboshot madaniyati kulollariga tegishli deb takidlash mumkin. Shu bilan birga, qadim Farg'ona moddiy madaniyatining maqomiga aylangan qizil angobli charxin sopol idishlarining shakllanishi va keng tarqalishi aynan ziroatkor Sho'raboshot madaniyati kulollariga taalluqli bo'lgan. Ehtimol shu tufayli, keyinchalik ko'chmanchi Eylaton madaniyati kulollari asosan diniy tadbirlari uchun qo'lda yasalgan va bo'yoq bilan naqshlangan idishlarni tayyorlash bilan kifoyalanib qolmagandirlar. Zero, kundalik ehtiyojlar uchun ishlatilgan charxin qizil angobli idishlar ziroatkor madaniyati kulollariga ko'chmanchilar tomonidan (Eylaton madaniyatiga xos idish shakllari saqlangan holda) buyurtma qilinganligi haqiqatga yaqinroq. Bu an'analar Antik davrning so'ngi bosqichi (I–IV asrlar)da ham davom etishi bilan birga, charxin qizil angobli idishlar butun vodiy hamda qo'shni tarixiy-madaniy o'lkalar hududiga keng tarqalgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- Абдулгазиева Б.* Раскопки Сар-тепе // История и археология Средней Азии. Ашхабад: Илм, 1978. С. 148–155.
- Абдулгазиева Б.* К изучению памятников Восточной Ферганы // ТД Античная культура Средней Азии и Казахстана. Ташкент: Фан, 1979. С. 105–106.
- Абдулгазиева Б.* Раскопки на городище Кургантепе // ИМКУ. № 20 Ташкент: Фан, 1986. С. 60–68.
- Абдулгазиева Б.* Восточная Фергана в древности и раннем средневековье: Автореф. дисс .... канд. истор. наук. Самарканд: ИА АН РУз, 1988. 28 с.
- Абдулгазиева Б.* Керамика поселения гончаров Камолтепа // ОНУ. Вып. 5–8. Ташкент: Фан, 1995. 41–46.
- Абдулгазиева Б.* Исследования поселения Султанабад // Средняя Азия. Археология. История. Культура. Материалы Международной конференции, посвященной 50-летию научной деятельности Г.В. Шишкиной. Москва, 2000. С. 12–16.
- Абдулгазиева Б.* К изучению структуры древних городов Ферганы // ИМКУ. № 34. Ташкент: Фан, 2004. С. 36–42.
- Абдулгазиева Б.* Внутренняя структура сельских поселений Ферганы эпохи раннего средневековья // ИМКУ. Вып. 38. Самарканд: Фан, 2012. С. 142–162.
- Абдуллаев Б. М.* Цитадели в оборонительной системе древней Ферганы / Вестник МИЦАИ, 2006. № 3. С. 7–14.
- Абдуллаев Б. М.* Возникновение и этапы развития фортификации Ферганы в древности и средневековье: Автореф. дисс... канд. ист. наук. Самарканд, 2007. 31 с.
- Абдуллаев Б. М.* Некоторые итоги раскопок 2014–2015 гг. на памятнике Коштепа-2 // Археология Узбекистана. № 1. Самарканд, 2016. С. 13–22.
- Абдуллаев Б. М.* О преемственности погребального обряда эйлатанской культуры // Бюллетень МИЦАИ. Самарканд, 2018. № 27. С. 5–18.
- Абдуллаев Б. М.* Некоторые замечания по проблеме древнеферганского государства и его столицы // Бюллетень МИЦАИ. Самарканд, 2020. № 30. С. 91–100.

<sup>1</sup> Milliy arxeologiya markazi yetakchi ilmiy xodimi S.R. Baratov bilan suhbatga ko'ra, oxirgi vaqtlarda ilk ziroatkorlarga oid Chust manzilgohidan charhda ishlab chiqarilgan sopol idish namunalari qayd qilinmoqda. Bu yangilik tahlillar nitijasida o'z tasdig'ini topsa, olamshumul kashfiyot bo'ladi!

- Абдуллаев Б. М.* К проблеме эйлатанской культуры древней Ферганы // Вестник МИЦАИ. Вып. 35. Самарканд, 2023. С. 19–35.
- Абдуллаев К., Алмазова Н.* Каменные орудия античной эпохи на примере Паёнкургона // Материалы по античной культуре Узбекистана. Самарканд, 2005. С. 16–24.
- Альбаум Л. И.* Балалык-тепе. Ташкент: АН УзССР, 1960. 228 с.
- Анарбаев А. А.* Қадимги Фарғона давлати ва унинг пойтахти тарихидан лавҳалар // Водийнома. Тошкент: [б. и.], 2016. Б. 36–41.
- Баруздин Ю. Д.* Карабулакский могильник // КСИЭ. Вып. XXVI. / Отв. ред. А. Д. Удальцов. Москва: Изд-во Академия наук СССР, 1957. С. 98–103.
- Баруздин Ю. Д., Подольский А. Г.* Бронзовая женская статуэтка из Кара-Булакского могильника // КСИА. Вып. 85. / Отв. ред. Т. С. Пассек. Москва: Изд-во Академия наук СССР, 1961. С. 127–129.
- Баруздин Ю. Д.* Кара-булакский могильник // Известия Академии наук Киргизской ССР. Сер.: Общественные науки. Т. 3. Вып. 3. Бишкек: [б. и.], 1961. С. 43–81.
- Бернштам А. Н.* Араванские наскальные изображения и Даванская (Ферганская) столица Эрши // СЭ. 1948. № 4. Москва: Наука. С. 155–161.
- Бернштам А. Н.* Историко-археологические очерки Центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая // МИА, № 26. М.-Л.: Академия наук СССР, 1952. 343 с.
- Бичурин Н. Я.* Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена / Отв. ред. С. П. Толстов. Т. II. Москва-Ленинград: Изд-во Акад. наук СССР, 1950. 335 с.
- Воронина В. Л.* Изучение архитектуры древнего Пенджикента // МИА. Вып. 15. Москва-Ленинград: Изд-во Академия наук СССР, 1950. С. 189–198.
- Воронина В. Л.* Раннесредневековый город Средней Азии // СА. Москва: Изд-во Академия наук СССР, 1959. № 1. С. 84–104.
- Воронина В. Л.* Доисламские культовые сооружения Средней Азии // СА. Москва: Изд-во Академия наук СССР, 1960. № 2. С. 42–55.
- Гаврюшенко П. П.* Кулунчакское укрепленное поселение // Автореф. ... канд. ист. наук. Ташкент, 1970. 27 с.
- Горбунова Н. Г.* Роговая пластинка из Ак-Тамского могильника // КСИИМК. Вып. 80. / Отв. ред. Т. С. Пассек. Москва: Изд-во Академия наук СССР, 1960. С. 93–94.
- Горбунова Н. Г.* Поселения Ферганы первых веков нашей эры: Некоторые итоги исследований // СА. Москва: Наука, 1977. № 3. С. 107–120.
- Горбунова Н. Г.* Итоги исследования археологических памятников Ферганской области (К истории культуры Ферганы) // СА. Москва: Наука, 1979а. № 3. С. 16–34.
- Горбунова Н. Г.* Керамика поселений Ферганы первых веков н. э. // ТГЭ. 1979б. Т. 20. С. 114–146.
- Горбунова Н. Г.* Бронзовые зеркала кугайско-карабулакской культуры: к вопросу о культурных связях Ферганы II в. до н. э. – VI в. н. э. // Культурные взаимосвязи народов Средней Азии и Кавказа с окружающим миром в древности и средневековье: Тез. докл. конф. Москва, 1981а. С. 40–41.
- Горбунова Н. Г.* Древний ферганский косметический прибор // Культура и искусство Хорезма. / Отв. ред. Н. А. Кукушкин. Москва: Наука, 1981б. С. 178–183.
- Горбунова Н. Г.* Кугайско-карабулакская культура Ферганы // СА. Москва: Наука, 1983. № 3. С. 23–46.
- Горбунова Н. Г.* Бронзовые зеркала кугайско-карабулакской культуры Ферганы // Культурные связи народов Средней Азии и Кавказа: Древность и средневековье. / Отв. ред. А. М. Лесков и Б. Я. Ставиский. Москва, 1990. С. 45–50.
- Горбунова Н. Г.* Женские украшения кугайско-карабулакской культуры Ферганы // Древний и средневековый Кыргызстан. Бишкек: Мурас, 1996. С. 77–92.
- Горбунова Н. Г.* Еще раз о Кара-Булакском могильнике // Новое о древнем и средневековом Кыргызстане / Ош: 3000 и культурное наследие народов Кыргызстана. Вып. 2. Бишкек: Мурас, 1999. С. 38–44
- Горбунова Н. Г., Оболдуева Т. Г.* Городище Каламыш-тепе в Фергане // Судьба ученого. К 100-летию со дня рождения Бориса Александровича Латынина. Санкт-Петербург: ГосЭрмитаж, 2002. С. 166–172.
- Давидович Е. А.* Раскопки замка Калаи-боло // МИА. № 66. Москва: Изд-во Академия наук СССР, 1958. С. 72–103.
- Заднепровский Ю. А.* Типология и динамика развития городских поселений древней Ферганы // Древний город Средней Азии. Ленинград, 1973. С. 17–20.
- Заднепровский Ю. А.* Раннежелезный век Ферганы и проблема возникновения Даваньского государства // Раннежелезный век Средней Азии и Индии. ТД Международного симпозиума. Ашхабад, 1984. С. 31–33.
- Заднепровский Ю. А., Матбабаев Б. Х.* Городище Мархамат (некоторые итоги изучения) // ИМКУ. Вып. 25. Ташкент: Фан, 1991. С. 62–72.
- Иванов Г. П.* Кашкарчинский могильник – новый памятник эпохи поздней бронзы в Фергане // ОНУ. Вып. 10. Ташкент: Фан, 1988. С. 44–47.
- Кадыров Э. Б.* Древние погребальные памятники Ферганы как исторический источник: Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент: АН УзССР, 1975. 22 с.

- Козенкова В. И.* Археологические работы Андижанского областного краеведческого музея в 1956 г. // КСИИМК. Вып. 76 / Отв. ред. Т. С. Пассек. М.: Академия наук СССР, 1959. С. 56–62.
- Кюннер Н. В.* Китайские известия о народах Южной Сибири, Центральной Азии и Дальнего Востока Москва: Изд-во вост.лит., 1961. 392 с.
- Латынин Б. А.* Вопросы истории ирригации древней Ферганы // КСИИМК. Вып. 64. М.: Наука, 1956. С. 15–26.
- Латынин Б. А.* Некоторые итоги работы Ферганской экспедиции 1934 р. // АСГЭ. Ленинград: ГосЭрмитаж, 1961. Вып. 3. С. 49–55.
- Левина В. А.* Стена и башня «Старой Нисы» (Археологические вскрытия 1946 г.) // ТЮТАКЭ. Т. I. Ашхабад: Изд-во Туркмен ФАН СССР, 1949. С. 133–146.
- Литвинский Б. А.* Керамика из могильников западной Ферганы (Первое тысячелетие н. э.). Вып. II. Москва: Наука, 1973а. 202 с., 27 л. ил.
- Литвинский Б. А.* Украшения из могильников западной Ферганы. Вып. III. Москва: Наука, 1973б. 212 с., 19 л. ил.
- Литвинский Б. А.* Орудия труда и утварь из могильников Западной Ферганы. Вып. IV. Москва: Наука, 1978. 217 с., 37 л. ил.
- Лубо-Лесниченко Е. И.* Тканые узоры // По следам памятников истории и культуры народов Киргизстана / Отв. ред. В. М. Массон. Фрунзе: Илим, 1982. С. 48–53.
- Малтаев К. Ж., Матбабаев Б. Х.* Новые данные о памятниках античного времени в Восточной Фергане // Материалы по античной культуре Узбекистана. Самарканд: [б. и.], 2005. С. 66–69.
- Мандельштам А.М.* К истории Бактрии-Тохаристана // КСИА. Вып. 98. Москва: Изд-во АН СССР, 1964. С. 23–29.
- Массон М. Е.* Из воспоминаний среднеазиатского археолога. Ташкент: Изд-во Г. Гуляма, 1976. 176 с.
- Матбабаев Б. Х.* Ферганское государство Давань // История государственности Узбекистана (вторая пол. II тыс. до н. э. – III в. н. э.). Ташкент: Узбекистан, 2009. С. 185–193.
- Матбабаев Б. Х.* Древнеферганское государство Давань // Очерки по истории государственности Узбекистана. Ташкент: Шарк, 2001. С. 25–38.
- Матбобоев Б. Х.* Яна Давань подшолиги шаҳарлари хақида // Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда. Фарғона: Фарғона, 2012. Б. 11–16.
- Матбабаев Б. Х., Абдуллаев Б. М.* Оборонительные сооружения древней Ферганы (кон. II тыс. до н.э. – пер. пол. I тыс. н.э.). Ташкент: “Экстремум пресс”, 2011. 176 с.
- Матбабаев Б. Х., Янгиши Ж., Исамиддинов М. Х., Тао Л., Абдуллаев Б. М., Хошимов Х., Алохунов А., Рахмонов З.* Археологические исследования Узбекско-Китайской Ферганской экспедиции на городище Мингтепа // Археологические исследования в Узбекистане. Вып. 10. Самарканд, 2015. С. 193–196.
- Матбобоев Б. Х., Янши Ж.* Қадимги Фарғона (Давань) давлати ва Мингтепа // Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари. Респ. конф. материаллари. Андижон: [б. и.], 2016. Б. 11–17.
- Нильсен В. И.* Становление феодальной архитектуры Средней Азии (V–VIII вв.). Ташкент: Наука, 1966. 335 с.
- Оболдуева Т. Г.* Отчет о работе первого отряда археологической экспедиции Большого Ферганского канала им. И.В. Сталина // ТИИА АН УзССР. Ташкент: АН УзССР, 1951. Т. IV. С. 29–32.
- Пугаченкова Г. А.* Парфянские крепости Южного Туркменистана // ВДИ. № 2. Москва: Изд-во АН СССР, 1952. С. 215–225.
- Пугаченкова Г. А.* Пути развития архитектуры Южного Туркменистана поры рабовладения и феодализма // ТЮТАКЭ. Т. 6. Москва: Изд-во АН СССР, 1958. 492 с.
- Рахманов З., Абдуллаев Б., Хомиджонова М.* Куялтепада 2017 йилда олиб борилган тадқиқотлар хисоботи // Археологические исследования в Узбекистане – 2017 год. Вып. 11. Самарканд, 2018. С. 225–230.
- Салтовская Е. Д.* Древние украшения из Ашта // Памяти Александра Александровича Семенова: Сб. статей по истории, археологии, этнографии и искусству Сред. Азии / АН ТаджССР, Ин-т истории им. А. Дониша; [Редкол.: Б. И. Искандаров (пред.) и др.]. Душанбе: Дониш, 1980. 359 с. С. 195–207.
- Толстов С. П.* По древним дельтам Окса и Яксарта. Москва: Восточная литература, 1962. 224 с.
- Турбеков М.* Оборонительные сооружения древних поселений и городов Согда (VII–VI вв. до н.э. – VII в.н.э.): Автореф. дисс... канд. ист. наук. Москва: МГУ, 1981. 23 с.
- Филанович М. И.* Ташкент. Зарождение и развитие города и городской культуры. Ташкент: Фан, 1983. 232 с.
- Ходжаев А.* Можно ли считать Эрши столицей древнего государства Фергана? // O'zbekiston tarixi. Ташкент: [б. и.], 2010. № 2. С. 63–73.
- Шигин А. Е.* Сары-курган – крепость в Фергане // СА. Москва: Наука, 1984. № 1. С. 192–198.
- Шишкин В. А.* Варахша. Москва: Изд-во АН СССР, 1963. 250 с.
- Шишкина Г. В.* Замок Бад-Асия в окрестностях Пайкенда // ИМКУ. Вып. 4. Ташкент: АН УзССР, 1963. С. 89–110.

#### REFERENCES:

- Abdulgazieva B. 1978. *Raskopki Sar-tepe (Excavations of Sar-tepe). In Istoriya i arkeologiya Srednej Azii (History and archeology of Central Asia)*. Ashkhabad, 148–155. (In Russian).

- Abdulgazieva B. 1979. *K izucheniyu pamyatnikov Vostochnoj Fergany (On the study of monuments of Eastern Fergana)* In *Antichnaya kul'tura Srednej Azii i Kazakhstana (Antique culture of Central Asia and Kazakhstan)*. Tashkent, 105–106. (In Russian).
- Abdulgazieva B. 1986. *Raskopki na gorodishhe Kurgantepe (Excavations in the city of Kurgantepe)*. In *IMKU (History of material culture of Uzbekistan)*. № 20. Tashkent, 60–68. (In Russian).
- Abdulgazieva B. 1988. *Vostochnaya Fergana v drevnosti i rannem srednevekov'e (Eastern Fergana in ancient times and early Middle Ages): Abstract of the dissertation of the candidate of historical sciences*. Samarkand, 28. (In Russian).
- Abdulgazieva B. 1995. *Keramika poseleniya goncharov Kamoltepa (Ceramics of the potters' settlement of Kamoltepa)*. In *Obshhetvennyye nauki v Uzbekistane (Social Sciences in Uzbekistan)*. Issue. 5–8. Tashkent: Fan Publ., 41–46. (In Russian).
- Abdulgazieva B. 2000. *Issledovaniya poseleniya Sultanabad (Research of the Sultanabad settlement)*. In *Srednyaya Aziya. Arkheologiya. Istoriya. Kul'tura. Materialy (Central Asia. Archaeology. History. Culture. Materials) Mezhdunarodnoj konferentsii, posvyashhennoj 50-letiyu nauchnoj deyatel'nosti G. V. Shishkinoy*. Moscow, 12–16. (In Russian).
- Abdulgazieva B. 2004. *K izucheniyu struktury drevnix gorodov Fergany (Towards the study of the structure of ancient cities of Fergana)*. In *IMKU (The History of Material Culture of Uzbekistan)*. Issue 34. Tashkent, 36–42. (In Russian).
- Abdulgazieva B. 2012. *Vnutrennyaya struktura sel'skikh poselenij Fergany ehpokhi rannego srednevekov'ya (The internal structure of rural settlements in Fergana in the early Middle Ages)*. In *IMKU (The History of Material Culture of Uzbekistan)*. Issue 38. Samarkand, 142–162. (In Russian).
- Abdullaev B. M. 2006. *Tsitadeli v oboronitel'noj sisteme drevnej Fergany (Citadels in the defensive system of the ancient Ferghana)*. In *Byulleten' Mezhdunarodnyj institut central'noazatskih issledovanij (Bulletin International Institute for Central Asian Studies)*. Issue 3. Samarkand: IICAS Publ., 7–14. (In Russian).
- Abdullaev B.M. 2007. *Vozniknovenie i ehtapy razvitiya fortifikatsii Fergany v drevnosti i srednevekov'e (Beginning and stage development of fortification of Ferghana in ancient and middle age)*: Abstract of the dissertation of the candidate of historical sciences. Samarkand, 31. (In Russian).
- Abdullaev B.M. 2016. *Nekotorye itogi raskopok 2014-2015 gg. na pamyatnike Koshtepa-2 (Some results of the 2014–2015 excavations at the Koshtepa-2 site)*. In *Arkheologiya Uzbekistana (Archeology of Uzbekistan)*. № 1. Samarkand, 13–22. (In Russian).
- Abdullaev B. M. 2018. *K probleme posledovatel'nogo ili parallel'nogo sushhestvovaniya kul'tur Fergany ehpokhi rannego zheleza i antichnosti (Examining consecutive or parallel existences of the cultures of Fergana in the early iron age and antiquity)*. In *Byulleten' Mezhdunarodnyj institut central'noazatskih issledovanij (Bulletin International Institute for Central Asian Studies)*. Issue 27. Samarkand: IICAS Publ., 5–18. (In Russian).
- Abdullaev B. M. 2020. *Nekotorye zamechaniya po probleme drevneferganskogo gosudarstva i ego stolitsy (Some remarks on the problem of the ancient Fergana state and its capital)*. In *Byulleten' Mezhdunarodnyj institut central'noazatskih issledovanij (Bulletin International Institute for Central Asian Studies)*. Issue 30. Samarkand: IICAS Publ., 91–100. (In Russian).
- Abdullaev B. M. 2023. *K probleme ehilatanskoj kul'tury drevnej Fergany (On the problem of the Eilatan culture of ancient Fergana)*. In *Byulleten' Mezhdunarodnyj institut central'noazatskih issledovanij (Bulletin International Institute for Central Asian Studies)*. Issue 35. Samarkand: IICAS Publ., 19–35. (In Russian).
- Abdullaev K., Almazova N. 2005. *Kamennye orudiya antichnoj ehpokhi na primere Payonkurgana (Stone tools of the ancient era on the example of Payonkurgan)*. In *Materialy po antichnoj kul'ture Uzbekistana (Materials on the ancient culture of Uzbekistan)*. Samarkand, 16–24. (In Russian).
- Al'baum L. I. 1960. *Balalyk-tepe (Balalyk-tepe)*. Tashkent: AN UzSSR Publ., 228. (In Russian).
- Anarbaev A. A. 2016. *Qadimgi Farg'ona davlati va uning pojtakhti tarixidan lavkhalari (Tablets from the history of the ancient Fergana state and its capital)*. In *Vodijnoma (Valley reports)*. Toshkent, 36–41. (In Uzbek)
- Baruzdin Yu. D. 1957. *Karabulakskij mogil'nik (Karabulak burial ground)*. In *Kratkie soobshheniya Instituta arkheologii AN SSSR (Brief reports on reports and field research of the Institute of the History of Material Culture)*. Issue XXVI. Moscow: Akademiya nauk SSSR Publ., Moscow, 98–103. (In Russian).
- Baruzdin Yu. D. 1961. *Kara-bulakskij mogil'nik (Karabulak burial ground)*. In *Izvestiya Akademii nauk Kirgizskoj SSR (News of the Academy of Sciences of the Kirghiz SSR)*. Frunze, 43–81. (In Russian).
- Baruzdin Yu. D., Podol'skij A. G. 1961. *Bronzovaya zhenskaya statueetka iz Kara-Bulakskogo mogil'nika (Bronze female figurine from the Kara-Bulak burial ground)*. In *Kratkie soobshheniya Instituta arkheologii AN SSSR (Brief reports on reports and field research of the Institute of the History of Material Culture)*. Issue 85. Moscow: Nauka Publ., 127–129. (In Russian).
- Bernshtam A. N. 1948. *Aravanskije naskal'nye izobrazheniya i Davanskaya (Ferganskaya) stolitsa Ehrshi (Aravan rock carvings and the Davan (Fergana) capital Ershi)*. In *SE (Soviet Ethnography)*. Issue 4. 155–161. (In Russian).
- Bernshtam A. N. 1952. *Istoriko-arkheologicheskie ocherki Tsentral'nogo Tyan'-Shanya i Pamiro-Alaya (Historical and archaeological essays on the Central Tien Shan and Pamir-Alai)*. In *MIA (Materials and research on the archeology of the USSR)*. No 26. Leningrad: Akademii nauk SSSR Publ., 343. (In Russian).

- Bichurin N. Ya. 1950. *Sobranie svedenij o narodakh, obitavshikh v Srednej Azii v drevnie vremena (A collection of information about the peoples who lived in Central Asia in ancient times)*. T. II. Moscow-Leningrad: Akademii nauk SSSR Publ., 335. (In Russian).
- Voronina V. L. 1950. *Izuchenie arkhitektury drevnego Pendzhikenta (Studying the architecture of ancient Penjikent)*. In *MIA (Materials and research on the archeology of the USSR)*. No 15. Moscow-Leningrad: Akademii nauk SSSR Publ., 189–198. (In Russian).
- Voronina V. L. 1959. *Rannesrednevekovyj gorod Srednej Azii (Early medieval city of Central Asia)*. In *SA (Soviet archeology)*. No 1. 84–104. (In Russian).
- Voronina V. L. 1960. *Doislamskie kul'tovye sooruzheniya Srednej Azii (Pre-Islamic religious buildings of Central Asia)*. In *SA (Soviet archeology)*. No 2. 42–55. (In Russian).
- Gavryushenko P. P. 1970. *Kulunchakskoe ukreplennoe poselenie (Kulunchak fortified settlement)*: Abstract of the dissertation of the candidate of historical sciences. Tashkent, 27. (In Russian).
- Gorburnova N. G. 1960. *Rogovaya plastinka iz Ak-Tamskogo mogil'nika (Horn plate from the Ak-Tam burial ground)*. In *Kratkie soobshheniya Instituta arkheologii AN SSSR (Brief reports on reports and field research of the Institute of the History of Material Culture)*. Issue 80. Moscow: Akademiya nauk SSSR Publ., 93–94. (In Russian).
- Gorburnova N. G. 1977. *Poseleniya Fergany pervykh vekov nashey ehry: Nekotorye itogi issledovaniy (Fergana Settlements of the First Centuries of Our Era: Some Research Results)*. In *SA (Soviet archeology)*. No 3. Moscow, 107–120. (In Russian).
- Gorburnova N. G. 1979a. *Itogi issledovaniya arkheologicheskikh pamyatnikov Ferganskoj oblasti (K istorii kul'tury Fergany) (Results of the study of archaeological monuments of the Fergana region (To the history of the culture of Fergana))*. In *SA (Soviet archeology)*. No 3. Moscow, 16–34. (In Russian).
- Gorburnova N. G. 1979b. *Keramika poselenij Fergany pervykh vekov n. eh. (Ceramics of Fergana settlements of the first centuries A.D.)*. In *Trudi Gosudarstvennogo Ermitazha (Works of the State Archives)*. Vol. 20. 114–146. (In Russian).
- Gorburnova N. G. 1981a. *Bronzovye zerkala kugajsko-karabulakskoj kul'tury: K voprosu o kul'turnykh svyazyakh Fergany II v. do n. eh. – VI v. n. eh. (Bronze mirrors of the Kuga-Karabulak culture: To the question of cultural heritage of the Fergana II century BC – VI century AC)*. In *Kul'turnye vzaimosvyazi narodov Srednej Azii i Kavkaza s okruzhayushhim mirom v drevnosti i srednevekov'e (Cultural relations of the peoples of Central Asia and the Caucasus with the surrounding world in ancient times and the Middle Ages): Tez. dokl. konf. Moscow, 40–41. (In Russian)*.
- Gorburnova N. G. 1981b. *Drevnij ferganskij kosmeticheskij pribor (Ancient Fergana cosmetic device)*. In *Kul'tura i iskusstvo Khorezma (Culture and art of Khorezm)*. Moscow, 178–183. (In Russian).
- Gorburnova N. G. 1983. *Kugajsko-karabulakskaya kul'tura Fergany (Kugay-Karabulak culture of Fergana)*. In *SA (Soviet archeology)*. No 3. 23–46. (In Russian).
- Gorburnova N. G. 1990. *Bronzovye zerkala kugajsko-karabulakskoj kul'tury Fergany (Bronze mirrors of the Kugai-Karabulak culture of Fergana)*. In *Kul'turnye svyazi narodov Srednej Azii i Kavkaza: Drevnost' i srednevekov'e (Cultural ties of the peoples of Central Asia and the Caucasus: Antiquity and the Middle Ages)*. Moscow: Nauka Publ., 45–50. (In Russian).
- Gorburnova N. G. 1996. *Zhenskie ukrasheniya kugajsko-karabulakskoj kul'tury Fergany (Women's jewelry of the Kugai-Karabulak culture of Fergana)*. In *Drevnij i srednevekovyj Kyrgyzstan (Ancient and Middle Ages Kyrgyzstan)*. Bishkek: Muras Publ., 77–92. (In Russian).
- Gorburnova N. G. 1999. *Eshhe raz o Kara-Bulakskom mogil'nike (Once again about the Kara-Bulak burial ground)*. In *Novoe o drevnem i srednevekovom Kyrgyzstane (New about ancient and medieval Kyrgyzstan / Osh: 3000 and the cultural heritage of the peoples of Kyrgyzstan)*. Issue 2. Bishkek: Muras Publ., 38–44. (In Russian).
- Gorburnova N. G., Oboldueva T. G. 2002. *Gorodishhe Kalamysh-tene v Fergane (The ancient settlement of Kalatysh-tene in Fergana)*. In *Sud'ba uchenogo. K 100-letiyu so dnya rozhdeniya Borisa Aleksandrovicha Latynina*. Sankt-Peterburg: GosErmitaj Publ., 166–172. (In Russian).
- Davidovich E. A. 1958. *Raskopki zamka Kalai-bolo (Excavations of Kalai-bolo Castle)*. In *MIA (Materials and research on the archeology of the USSR)*. No 66. Moscow: Nauka Publ., 72–103. (In Russian).
- Zadneprovskij Yu. A. 1973. *Tipologiya i dinamika razvitiya poselenij drevnej Fergany (Typology and dynamics of development of settlements of ancient Fergana)*. In *Drevnij gorod Srednej Azii (Ancient city of Central Asia)*. Leningrad, 17–20. (In Russian).
- Zadneprovskij Yu. A. 1984. *Rannezheleznyj vek Fergany i problema vozniknoveniya Davan'skogo gosudarstva (Early Iron Age of Fergana and the Problem of the Origin of the Davan State)*. In *Rannezheleznyj vek Srednej Azii i Indii (Early Iron Age of Central Asia and India)*. TD Mezhdunarodnogo simpoziuma. Ashkhabad, 31–33. (In Russian).
- Zadneprovskij Yu. A., Matbabaev B. Kh. 1991. *Gorodishhe Markhamat (nekotorye itogi izucheniya) (The settlement of Marhamat (some results of the study))*. In *IMKU (The History of Material Culture of Uzbekistan)*. Issue 25. Tashkent: Fan Publ., 62–72. (In Russian).
- Ivanov G. P. 1988. *Kashkarchinskii mogil'nik – novyj pamyatnik ehpokhi pozdnej bronzy v Fergane (Kashkarchinsky burial ground – a new monument of the Late Bronze Age in Fergana)*. In *Obshestvennye nauki v Uzbekistane (Social Sciences of Uzbekistan)*. Issue 10. Tashkent: Fan Publ., 44–47. (In Russian).

- Kadyrov Eh. B. 1975. *Drevnie pogrebal'nye pamyatniki Fergany kak istoricheskij istochnik (Ancient burial monuments of Fergana as a historical source)*: Abstract of the dissertation of the candidate of historical sciences. Tashkent: AN UzSSR Publ., 22. (In Russian).
- Khodzhaev A. 2010. *Mozhno li schitat' Ehrshi stolitsej drevnego gosudarstva Fergana? (Can Ershi be considered the capital of the ancient state of Fergana?)*. In *O'zbekiston tarixi (History of Uzbekistan)*. № 2. 63–73. (In Russian).
- Kozenkova V. I. 1959. *Arkheologicheskie raboty Andizhanskogo oblastnogo kraevedcheskogo muzeya v 1956 g. (Archaeological works of the Andijan Regional Museum of Local History in 1956)*. In *Kratkie soobshheniya Instituta arkheologii AN SSSR (Brief reports on reports and field research of the Institute of the History of Material Culture)*. Issue 76. Moscow: Akademiya nauk SSSR Publ., 56–62. (In Russian).
- Kyuner N. V. 1961. *Kitajskie izvestiya o narodakh Yzhnoj Sibiri, Tsentral'noj Azii i Dal'nego Vostoka (Chinese news about the peoples of Southern Siberia, Central Asia and the Far East)*. Moscow: Vostochnaya literatura Publ., 392. (In Russian).
- Latynin B. A. 1956. *Voprosy istorii irrigatsii drevnej Fergany (Questions of the history of irrigation of ancient Fergana)*. In *Kratkie soobshheniya Instituta arkheologii AN SSSR (Brief reports on reports and field research of the Institute of the History of Material Culture)*. Issue 64. Moscow: Nauka Publ., 15–26. (In Russian).
- Latynin B.A. 1961. *Nekotorye itogi raboty Ferganskoj ehkspeditsii 1934 r. (Some results of the work of the Fergana expedition of 1934)*. In *Arheologicheskij sbornik Gosudarstvennogo Ermitazha (Archaeological collection of the State Hermitage Museum)*. Issue 3. Leningrad: GosErmitaj Publ., 49–55. (In Russian).
- Levina V. A. 1949. *Stena i bashnya «Staroj Nisy» (Arkheologicheskie vskrytiya 1946 g.) (Wall and tower of «Old Nisa» (Archaeological excavations of 1946)*. In *TYUTAKEH (Works of the South Turkmenistan Archaeological Complex Expedition)*. T. I. Ashkhabat: Turkmen FAN SSSR Publ., 133–146. (In Russian).
- Litvinskij B. A. 1973a. *Keramika iz mogil'nikov zapadnoj Fergany (I tysyacheletie n. eh.) (Ceramics from the burial grounds of western Fergana (I millennium A.D.))*. Issue II. Moscow: Nauka Publ., 202. (In Russian).
- Litvinskij B. A. 1973b. *Ukrasheniya iz mogil'nikov zapadnoj Fergany (Ornaments from the burial grounds of Western Fergana)*. Issue III. Moscow: Nauka Publ., 212. (In Russian).
- Litvinskij B. A. 1978. *Orudiya truda i utvar' iz mogil'nikov Zapadnoj Fergany (Tools and utensils from the burial grounds of Western Fergana)*. Issue IV. Moscow: Nauka Publ., 217. (In Russian).
- Lubo-Lesnichenko E.I. 1982. *Tkanye uzory (Woven patterns)*. In *Po sledam pamyatnikov istorii i kul'tury narodov Kirgizstana (In the footsteps of historical and cultural monuments of the peoples of Kyrgyzstan)*. Frunze: Ilim Publ., 48–53. (In Russian).
- Mandel'shtam A. M. 1964. *K istorii Baktrii-Tokharistana (To the history of Bactria-Tokharistan)*. In *Kratkie soobshheniya Instituta arkheologii AN SSSR (Brief reports on reports and field research of the Institute of the History of Material Culture)*. Issue 98. Moscow: Akademiya nauk SSSR Publ., 23–29. (In Russian).
- Masson M. E. 1976. *Iz vospominanij sredneaziatskogo arkheologa (From the memoirs of a Central Asian archaeologist)*. Tashkent: G. Gulyama Publ., 176. (In Russian).
- Maltaev K. Zh., Matbabaev B. Kh. 2005. *Novye dannye o pamyatnikakh antichnogo vremeni v Vostochnoj Fergane (New data on monuments of ancient times in Eastern Fergana)*. In *Materialy po antichnoj kul'ture Uzbekistana (Materials on the ancient culture of Uzbekistan)*. Samarkand, 66–69. (In Russian).
- Matbabaev B. Kh. 2001. *Drevneferganskoe gosudarstvo Davan' (Ancient Fergana state of Davan)*. In *Ocherki po istorii gosudarstvennosti Uzbekistana (Essays on the history of statehood of Uzbekistan)*. Tashkent: Shark Publ., 25–38. (In Russian).
- Matbabaev B. Kh. 2009. *Ferganskoe gosudarstvo Davan' (Fergana state Davan)*. In *Istoriya gosudarstvennosti Uzbekistana (vtoraya pol. II tys. do n. eh. – III v. n. eh.) (History of the statehood of Uzbekistan (second half of the IInd millennium BC – III century AD))*. Tashkent: Uzbekistan Publ., 185–193. (In Russian).
- Matboboev B. Kh. 2012. *Yana Davan' podsholigi shakharlari khaqida (More about the cities of the Davan kingdom)*. In *Farg'ona vodijsi tarixi yangi tadqiqotlarda (The history of the Fergana Valley in new research)*. Farg'ona: Farg'ona Publ., 11–16. (In Uzbek).
- Matbabaev B. Kh., Abdullaev B. M. 2011. *Oboronitel'nye sooruzheniya drevnej Fergany (kon. II tys. do n. eh. – per. pol. I tys. n. eh.) (Defensive structures of ancient Fergana (Ist millennium BC – 1st millennium AD))*. Tashkent: “Ekhtremum press” Publ., 176. (In Russian).
- Matbabaev B. Kh., Yangshi Zh., Isamididinov M. Kh., Tao L., Abdullaev B. M., Khoshimov Kh., Alokhunov A., Rakhmonov Z. 2015. *Arkheologicheskie issledovaniya Uzbeksko-Kitajskoj Ferganskoj ehkspeditsii na gorodishhe Mingtepa (Archaeological research of the Uzbek-Chinese Fergana expedition at the Tingtepa settlement)*. In *Arkheologicheskie issledovaniya v Uzbekistane. Issue 10*. Samarkand, 193–196. (In Russian).
- Matboboev B. Kh., Yanshi Zh. 2016. *Qadimgi Farg'ona (Davan') davlati va Mingtepa (The ancient Fergana (Davan) state and Mingtepa)*. In *O'zbekiston tarikhining dolzarb muammolari. Resp. konf. materiallari*. Andizhon, 11–17. (In Uzbek).

- Nil'sen V. I. 1966. *Stanovlenie feodalnoy arxitekturi Sredney Azii (V–VIII vv.) (Formation of feudal architecture in Central Asia (V–VII centuries)*. Tashkent: Nauka Publ., 335. (In Russian).
- Oboldueva T. G. 1951. *Otchet o rabote pervogo otryada arkheologicheskoy ehkspeditsii Bol'shogo Ferganskogo kanala im. I.V. Stalina (Report on the work of the first detachment of the archaeological expedition of the Great Fergana Canal named after I.V. Stalin)*. TIIA AN UzSSR (*Proceedings of the Institute of History and Archaeology*). T. IV. Tashkent AN UzSSR Publ., 29–32. (In Russian).
- Pugachenkova G. A. 1952. *Parfyanskije kreposti Yuzhnogo Turkmenistana (Parthian Fortresses of Southern Turkmenistan)*. In *VDI (Herald of Ancient History)*. Issue 2. Moscow: Izd-vo AN SSSR Publ., 215–225. (In Russian).
- Pugachenkova G. A. 1958. *Puti razvitiya arkhitektury Yuzhnogo Turkmenistana pory rabovladieniya i feodalizma (The development paths of architecture in Southern Turkmenistan during the period of slavery and feudalism)*. In *TYUTAKEH (Works of the South Turkmenistan Archaeological Complex Expedition)*. T. 6. Moscow: AN SSSR Publ., 492. (In Russian).
- Rakhmanov Z., Abdullaev B., Khomidzhonova M. 2018. *Quyultepada 2017 jilda olib borilgan tadqiqotlar khisoboti (Report on research conducted in Quyultepa in 2017)*. In *Arkheologicheskie issledovaniya v Uzbekistane*. Issue 11. 225–230. (In Russian).
- Saltovskaya E. D. 1980. *Drevnie ukrasheniya iz Ashta (Ancient jewelry from Asht)*. In *Pamyati Aleksandra Aleksandrovicha Semenova*. Dushanbe: Donish Publ., 195–207. (In Russian).
- Tolstov S. P. 1962. *Po drevnim del'tam Oksa i Yaksarta (Along the ancient deltas of Oxus and Jaxartes)*. Moscow: Vostochnaya lit-ra Publ., 224. (In Russian).
- Turebekov M. 1981. *Oboronitel'nye sooruzheniya drevnikh poselenij i gorodov Sogda (Defensive structures of ancient settlements and cities of Sogd)*: Abstract of the dissertation of the candidate of historical sciences. Moscow: MGU Publ., 23. (In Russian).
- Filanovich M. I. 1983. *Tashkent. Zarozhdenie i razvitie goroda i gorodskoj kul'turi (Tashkent. The birth and development of the city and urban culture)*. Tashkent: Fan Publ., 232. (In Russian).
- Shigin A. E. 1984. *Sary-kurgan – krepost' v Fergane (Sary Kurgan – a fortress in Fergana)* In *SA (Soviet archeology)*. No 1. Moscow: Nauka Publ., 192–198. (In Russian).
- Shishkin V. A. 1963. *Varakhsha (Varakhsha)*. Moscow: Izd-vo AN SSSR Publ., 250. (In Russian).
- Shishkina G. V. 1983. *Zamok Bad-Asiya v okrestnostyakh Paykenda (Bad Asiya Castle near Paykend)*. In *IMKU (The History of Material Culture of Uzbekistan)*. Issue 4. Tashkent: AN UzSSR Publ., 89–110. (In Russian).
- 

## FACTORS AND THE ESSENCE OF THE DEVELOPMENT OF ANCIENT FERGANA

© 2025. Bakhtiyar Abdullaev

*Samarkand Institute of Archaeology named after Ya. Gulomov*

---

**Keywords:** Fergana Valley, antiquity, nomadic and sedentary cultures, urbanization and crafts.

The ancient period of the region covered the stages of formation, development, decline and cessation of the existence of the Ancient Fergana State (Davan). The article shows the processes of urbanization of the region and the development of various branches of crafts that occurred under the influence of the consistent internal policy of this centralized state. The latter represented the main factors and essence of the development of ancient Fergana. These data were scientifically substantiated by comparing the accumulated material, according to the results of new field studies. A critical analysis of the findings of previous archaeological studies was also carried out to identify the characteristic stages of development of the ancient period. The presented new archaeological studies cover 2014-2024 and include the results of excavations over the past ten seasons. During this time, field studies were carried out in the settlements of Koshtepa-2, Sultanabad-3 and Sultansupa, as well as the burial ground of Khanabad-1 and the settlement of Khanabad-3 in the Andijan region. The obtained samples of material culture made it possible to generalize the main factors of urbanization of the region and the high development of crafts. This scientific presentation presents the results of a comparative analysis of new artifacts with samples of material culture from other monuments of the valley and neighboring historical and cultural regions.

## BUYUK IPAK YO'LIDA DIPLOMATIK MUNOSABATLAR (Samarqand Sug'di misolida)

© 2025. Shoira Indiaminova

*Samarqand davlat chet tillar instituti*

---

**Kalit soʻzlar:** Buyuk Ipak yo'li, diplomatiya, Ban Chao, savdo, madaniy almashinuv, savdo shartnomalari, karvon yo'llari, nizolar va ularni hal qilish, madaniy aloqalar, diniy almashinuvlar.

Ushbu maqolada Xitoy, Markaziy Osiyo, Hindiston, Yaqin Sharq va Yevropa o'rtasida ilk o'rta asrlarda savdo aloqalarini shakllantirish va qo'llab-quvvatlashda diplomatiyaning roli haqida o'ziga xos nuqtai nazar keltirilgan. Shuningdek, maqolada qadimgi imperiyalar qo'llagan diplomatik vositalar, davlatlar o'rtasida qanday ittifoq va bitimlar tuzilgani, mintaqadagi ziddiyatlarni bartaraf etish va keskinlikni yumshatish uchun diplomatiyaning qanday usullaridan foydalanilgani ham ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari, madaniy almashinuv va diplomatik aloqalarning ilm-fan, san'at va diniy e'tiqodlar rivojiga ta'siriga e'tibor qaratilgan. Ularning tahlili natijasida diplomatiya Ipak yo'lida barqarorlik va farovonlikning muhim omili bo'lib xizmat qilganini tushunish imkonini beradi. Maqolada mashhur savdo yo'li bo'ylab savdo va madaniy almashinuv kontekstida diplomatiyaning roli yoritilgan bo'lib, karvon yo'llari xavfsizligini ta'minlash, savdo nizolarini hal etish, turli xalqlar va sivilizasiyalar o'rtasidagi madaniy almashinuvni rag'batlantirish uchun qadimgi imperiya va davlatlar diplomatik mexanizmlardan qanday foydalanganliklari tahlil qilingan bo'lib shuningdek, Xitoydan Yevropagacha cho'zilgan bu uzoq yo'lda tinchlik va barqarorlikni saqlash uchun qadim zamonlarda qo'llanilgan turli diplomatik strategiyalar va vositalar tasvirlangan. Maqolada mintaqadagi mojarolarni hal qilish va harbiy to'qnashuvlarning oldini olish uchun diplomatiyadan muvaffaqiyatli foydalanishning tarixiy misollari ham keltirilgan. Bu Buyuk Ipak yo'lida barqarorlik va farovonlikni ta'minlashda diplomatik mahorat muhimligini tushunishga yordam beradi. Bundan tashqari, maqolada madaniy va ilm-fan yutuqlarini tarqatishda, shuningdek, Ipak yo'li bo'ylab boshqa madaniyatlar va xalqlar haqida jamoatchilik fikri va tasavvurlarini shakllantirishda diplomatik almashinuvlarning o'rni ko'rsatilgan.

---

## ДИПЛОМАТИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ НА ВЕЛИКОМ ШЕЛКОВОМ ПУТИ (на примере Самаркандского Согда)

© 2025. Шоира Индиаминова

*Самаркандский государственный институт иностранных языков*

---

**Ключевые слова:** Великий шелковый путь, дипломатия, Бан Чао, торговля, культурный обмен, торговые соглашения, караванные пути, конфликты и их разрешение, культурные связи, религиозные обмены.

В этой статье представлена уникальная точка зрения о роли дипломатии в формировании и поддержке торговых связей между Китаем, Центральной Азией, Индией, Ближним Востоком и Европой в раннем Средневековье. Также рассматриваются дипломатические средства, использованные древними империями, какие союзы и соглашения были заключены между государствами, а также методы дипломатии, применявшиеся для устранения конфликтов и смягчения напряженности в регионе. Кроме того, акцентируется внимание на влиянии культурного обмена и дипломатических отношений на развитие науки, искусства и религиозных верований. В результате их анализа можно понять, что дипломатия служила важным фактором стабильности и процветания на Шелковом пути. В статье рассматривается роль дипломатии в контексте торговли и культурного обмена на знаменитом торговом пути древней империи для обеспечения безопасности караванных путей, разрешения торговых споров и поощрения культурного обмена между разными народами и цивилизациями, а также то, как ее использовали государства. анализируются дипломатические механизмы, а также описываются различные дипломатические стратегии и инструменты, использовавшиеся в древности для поддержания мира и стабильности

на этом длинном пути из Китая в Европу. Также в статье приводятся исторические примеры успешного использования дипломатии для разрешения региональных конфликтов и предотвращения военных конфликтов. Это помогает понять важность дипломатического мастерства в обеспечении стабильности и процветания на Великом шелковом пути. Кроме того, в статье показана роль дипломатических обменов в распространении культурных и научных достижений, а также в формировании общественного мнения и представлений о других культурах и народах вдоль Шелкового пути.

Insoniyat yer yuzida paydo bo'lganidan buyon o'tgan davr mobaynida o'z hayoti va turmushini qulay, farovon qilish uchun tinimsiz izlangan. Olovni kashf qilinishi ibtidoiy odamlarning hayotiga katta qulaylik olib keldi. Uning ovqatiga maza-matra kirdi, qahraton sovuq ham bir oz chekindi. Olovni kashf qilinishi o'z navbatida metallni kashf qilinishga yo'l ochdi. Metallni kashf qilinishi esa insonga katta imkoniyat yaratdi. Metalldan yasalgan mehnat va ov-qurollari tosh qurollardan ko'ra afzal va qulay edi. Bu dehqonchilik hamda ovchilikda katta ijobiy burilishlarga olib keldi.

G'ildirakni kashf qilinishi esa insoniyatning hayotida ulkan o'zgarishlar yasadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Endi odamlar uzoq masofalarga qatnash, yiroqlardan har xil tovarlarni keltirish imkoniga ega bo'ldilar. Insoniyat tomonidan qilingan yana bir kashfiyot borki, uning ahamiyati yuqorida tilga olingan kashfiyotlardan kam emasdir. Bu, nomi ham anchayin mayin, qit'alararo o'tuvchi savdo karvon yo'li – Buyuk Ipak yo'lidir. Olimlarning fikricha, bu savdo-karvon yo'lini ilk bor Venesiyadan Xitoyga, mo'g'ul xoni Xubilayning saroyiga borgan sayyoh Marko Polo, "Ipak yo'li", – deb atagan. Oradan olti asr o'tgach nemis olimi Ferdinand fon Rixtgofer 1877 yili nashr etilgan "Xitoy" nomli kitobida bu yo'lni "Buyuk Ipak yo'li", – deb atadi. Shundan so'ng bu nom ommalashib ketadi.

Albatta, Buyuk Ipak yo'li insoniyat tomonidan kashf qilingan yagona yo'l emasdir. Bundan ilgari ham juda ko'plab karvon yo'llari kashf qilingan. Bu yo'llar o'z ibtidosi va intihosi, uzun – qisqaligi, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati bilan bir-biridan farq qiladi.

Buyuk Ipak yo'lidan nafaqat, savdogarlar, tijoratchilar balki, elchilar ham qatnaganlar. Ular ikki davlat o'rtasida yuzaga kelgan tushunmovchiliklar, nizolarni bartaraf etish yoki davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalarni yo'lga qo'yish uchun Buyuk Ipak yo'li orqali Sharqdan G'arbg'a, G'arbdan Sharqqa borganlar. Qadimgi vaqtlarda hali maxsus elchilar yetishib chiqmagan davrlarda, bu vazifani obro'li vazirlar, amaldorlar, savdogarlar va olimu-ulamolar, diniy rahnamolar amalga oshirgan.

Markaziy Osiyoda diplomatik munosabatlarning tug'ilishi moziyning eng chuqur qa'riga borib tutashishini olimlar allaqachon isbotlagan. Qadim zamonlarda bir qabila boshqa bir qabila bilan ayovsiz urush olib borganida bu urushlar ancha vaqtga cho'zilgan. Shunda har ikki tomon maxsus vakillar orqali muzokaralar olib borgan va urush maydonidan yarador va halok bo'lganlarni olib chiqqanlar.

Muzokara olib borayotganlarga ziyon-zahmat yetkazish yoki ularni o'ldirish qat'iyan man qilingan. Shu davrlardan buyon "elchiga o'lim yo'q", – degan ibora paydo bo'lgan. Bu an'ana hozirda ham davom etmoqda. Bugungi elchilarning shaxsiy dahlsizligi ham shu bilan bog'liqdir.

Sharqona diplomatiyaga oid eng qadimgi yozma ma'lumotlar zardushtiyarning muqaddas kitobi Avestoda o'z aksini topgan. Ushbu muqaddas kitobda yozilishicha, quyosh ma'budasi Mitraning vazifalariga o'zaro tuzilgan shartnomalarning bajarilishini nazorat qilish, harbiy nizolar va bahslarni, hamda qabilalar o'rtasida yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni hal qilish kabi muhim masalalar kirgan. Yozma ma'lumotlardan anglashilishicha, hukmdorga yaqin bo'lgan amaldorlar orasidan maxsus odamlar tanlanib ularni diplomatik vazifalarni bajarishga tayyorlaganlar. Elchilar o'z xabar yoki takliflarini og'zaki ravishda yoki har xil ramziy belgilar orqali yetkazgan (Лунин 1984: 68–70).

Osiyodagi diplomatik munosabatlar haqida so'z ketganida Qadimgi Xitoy bilan Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi elchilik aloqalariga alohida to'xtalish lozim bo'ladi. Markaziy Osiyo bilan Xitoy o'rtasidagi ilk diplomatik aloqalar miloddan avvalgi II asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi.

Xitoylik monax Chjan Syan boshchiligidagi elchilar karvoni ilk bor Markaziy Osiyoga yetib kelgan davrdan boshlab qit'alararo o'tuvchi savdo-karvon yo'li – Buyuk Ipak yo'luga asos solingandir. Bu davrgacha xitoyliklar Markaziy Osiyo va Sharqiy Turkiston haqida hech qanday tasavvurga ega bo'lmagan, degan fikr mavjud. Ammo ko'pchilik olimlar bu fikrga unchalik qo'shilishmaydi. Ularning fikricha, Chjan Syandan yuz yillar ilgari, Aleksandr Makedonskiyning qonli urushlaridan jabr chekkan ko'pchilik sug'dlar Sharqiy Turkistonga qochishga majbur bo'lishgan va bu yerda o'z savdo koloniyalarini barpo qilishib Buyuk Ipak yo'lining boshlanishiga asos solishgan (Бердимуродов, Индиаминова. 2017:195). Nima bo'lganida ham, Buyuk Ipak yo'lining boshlanishiga har ikki omil asos bo'lgani aniq.

Xitoy bilan G'arbiy o'lka (Markaziy Osiyo) o'rtasidagi diplomatik munosabatlarning boshlanishiga o'sha davrning eng qudratli ikki qabilasi: xunlar va yuechjilar o'rtasida yuzaga kelgan nizolar ham sabab bo'lgan, desak xato bo'lmaydi.

Xunlarning tobora kuchayib borishi xitoyliklarning osoyishtaligiga putur yetkaza boshlaydi va Xitoy imperatorlari xunlarga qarshi kurashda ittifoqchi izlay boshlaydi. Imperator U-di (miloddan avvalgi 140–87 yillar) ham xunlarga qarshi kurashda ittifoqchi qidirib turli tomonlarga o'z elchilarini jo'natadi. Imperator U-di o'z elchisi Chjan Syanni G'arbiy o'lka tomon yo'llaydi. Uning maqsadi yuechjilar bilan ittifoq tuzib xunlarga qarshi kurashish edi.

Xitoyliklarning G'arbiy o'lkaga qilgan yana bir yurishi elchi Ban Chaoning faoliyati bilan bog'liqdir. Bu davrda G'arbiy o'lkaning bir qismi shimoliy xunlar tasarrufida edi. Ban Chao 73 yili Dou Gu qo'shinlari tarkibida G'arbiy o'lkaga keladi va 29 yil mobaynida bu yerda faoliyat ko'rsatadi. Milodiy 78 yildan boshlab Ban Chao Sharqiy Turkiston shaharlarini birin-ketin istilo qilish harakatiga tushadi. U imperatorga maktub yozib, usunlar bilan ittifoqni mustahkamlashni taklif qiladi, ammo elchilar karvoni usunlar yurtigacha yetib bora olmaydi. Dastlab, xitoyliklar tomonida bo'lgan Kangyuy o'z fikrini o'zgartirib, xitoyliklarga qarshi chiqadi. Milodiy 85-yili Kushon podshosining aralashuvi bilan Kangyuy hukmdori Sharqiy Turkistondan o'z qo'shinlarini olib chiqadi (Кляшторный, Султанов 2007: 81). 83-yili Ban Chaoga 800 ta jangchi yordamga keladi va u bu qo'shinlar bilan birga Yorkentga hujum boshlaydi. Ammo Qoshg'arda xitoyliklarga qarshi qo'zg'olon ko'tariladi va Ban Chao o'z qo'shinlarini bu yerga tashlashga majbur bo'ladi. Ban Chao Qoshg'arliklarning qo'zg'olonini bostirishga qariyb olti oy vaqt sarflaydi va qo'zg'olonni bostirib bo'lgach yana Yorkent ustiga yurishni boshlaydi. Yorkentliklarga Kuchi va Qqsu hukmdorlari ham yordamga keladi. Ammo, Ban Chao hiyla ishlatib shaharni istilo qilishga erishadi. Milodiy 90-yillarda Xitoy diplomatiyasi va qo'shinlari Sharqiy Turkistonda Kushon podsholari bilan yuzmayuz keladilar. Ban Chao noma'lum sabablarga ko'ra, kushonlar bilan jangga kirishadi va bu urushda g'olib bo'ladi. Xitoy qo'shinlari xunlarni Xami vohasidan quvib chiqarganlaridan so'ng, ularning G'arbiy o'lka bilan bo'lgan aloqalari qayta tiklanadi. Ban Chao qo'shinlari G'arbiy Turkiston shaharlari istilosini yakunlaydi.

Xitoy qo'shinlarining g'olibona yurishlariga qaramay, ular kushonlar kuchini batamom sindirishga erisha olmaydilar va Markaziy Osiyo zaminiga kira olmadilar. Ban Chao tarixda mohir elchi, siyosatchi va lashkarboshi sifatida qolgan, u o'z maqsadiga erishish yo'lida hech qanday usuldan voz kechmagan. Ayyorlik, aldov, maqto'v, sotib olish, qonxo'rlik uning uchun begona bo'lmagan. Eramizning 102-yili Ban Chao barcha xizmatlardan voz kechib Loyanga qaytib kelib u yerda vafot etadi.

O'limidan sal ilgari Ban Chao elchi Gan Inni Rimga elchi qilib jo'natgan edi. Elchi Gan Inga O'rta yer dengizi va uning g'arbiy tomonida yashaydigan xalqlar haqida ma'lumot yig'ish, yo'llarni o'rganish topshirig'i berilgan edi (Бичурин 1950: 217–225). Shundan so'ng, milodiy 100 yili g'arbdan Xitoyga bir guruh ellin savdogarlari yetib keladilar. Aynan shu savdogarlar tufayli Xitoy va Markaziy Osiyo haqidagi ma'lumotlar Yevropagacha yetib boradi.

Milodiy I asrlar Xitoy va Markaziy Osiyo diplomatiyasi, savdogarlari uchun unchalik yengillik olib kelmadi. Osiyoning siyosiy xaritasida yuz bergan o'zgarishlar ko'p narsalarni o'zgartirib yubordi. Eronda Parfiya podsholari o'rniga kelgan yangi sulola sosoniylar (milodiy 224-yili), nafaqat parfiyonlar merosiga egalik qilish, balki Markaziy Osiyoning sharqiy, janubiy hududlarini va anchayin zaiflashib qolgan Kushon podsholigining g'arbiy qismlarini ham qo'lga kiritishga intilmoqda edi.

Bu davrda Markaziy Osiyoning shimoliy qismidagi Kangyuy davlati tarqalib unga qaram bo'lgan beshta ittifoqdosh o'lkalar mustaqil siyosat yurgizish va qo'shni davlatlarga o'z elchilarini jo'natishga ham jur'at qilishayotgan edi. Ammo bunday notinchliklarga qaramay Buyuk Ipak yo'li o'z maromida faoliyatini davom ettirib, unga aloqador davlatlarga mo'may daromad keltirmoqda edi. Xitoy zodagonlari, ipak savdosi G'arbiy o'lka savdogarlarini Usmon imperiyasiga juda qattiq bog'lab qo'yganligini yaxshi anglar edilar. Bu davrda Markaziy Osiyo zaminidagi katta-kichik davlatlar Xitoy imperatorlari bilan diplomatik munosabatlar o'rnatib qizg'in savdo-sotiqni yo'lga qo'yishga intilishardi. Shu sababli, 627–647 yillarda Samarqanddan Xitoyga 9 marta yirik elchilik va savdo karvonlari borganligiga yozma manbalar orqali guvoh bo'lish mumkin. Savdo-karvonlari Buxoro, Maymurg', Ishtixon, Kesh va boshqa shaharlardan ham borgan. Bu karvonlar o'zlari bilan Xitoyga oltin, nefrit, kigiz, har xil gazlamalar, yo'lbars, tuya, ot va chiroyli parrandalarni ham olib borganlar.

Qaysidir sabablarga ko'ra, milodiy III–V asrlarda Xitoy bilan Markaziy Osiyodagi davlatlar o'rtasidagi diplomatik munosabatlar to'xtab qoladi. Har qalay bu haqdagi tarixiy manbalar bizga ma'lum emas. Xitoy bilan Markaziy Osiyo davlatlaridagi munosabatlarning qayta tiklanishi Vey dinastiyasi davriga to'g'ri keladi. Bu dinastiyaga mansub imperator Tay U (424–452 yy.) Markaziy Osiyo tomonga katta elchilar karvonini yo'llaydi. Bu karvonga saroy amaldorlari Dun Van va Gao Minlar boshchilik qiladilar. Elchilar o'zlari bilan sovg'a-salomlar uchun katta miqdorda ipak matolar olib kelishadi (Саидов, Ртвеладзе 2009: 445). Elchilar karvoni shimoliy yo'l, ya'ni usunlar yurti orqali o'tib keladilar. Usunlar hukmdori elchilarga Dovon (Farg'ona) va Chjeshe (Choch – Toshkent vohasi) hukmdorlari ham Xitoy bilan diplomatik munosabatlar o'rnatmoqchi ekanliklarini aytadi. Shu sababli, usunlar qarorgohidan elchi Dun Van Farg'onaga, elchi Gao Min esa Chochga yo'l oladi. Xitoyning "Beyshi" yilnomasida yozilishicha, ortiga qaytayotgan elchi Dun Vanning karvoni bilan Markaziy Osiyodagi 16 davlatning elchilari Xitoyga yo'l oladilar (Малаявкин 1989: 64).

Endi ittifoqchilar o'rtasidagi munosabatlar haqida gapiradigan bo'lsak, Eron bilan Turk hoqonligi o'rtasidagi diplomatik munosabatlar juda tezlashib ketadi. Abulqosim Firdavsiyning yozishicha, Turk hoqonining Eron tomonga jo'natgan elchilarini eftalitlar shohi G'otifarning ko'rsatmasi bilan yo'lda xoinona o'ldiradilar. Bu voqeya urushni yanada tezlashtirib yuboradi Turk hoqoni qo'shinlari Choch va Parak (Chirchiq)ni istilo qilib Zarafshon vodiysiga yetib keladilar va Maymurg' atrofida to'planadilar. Eftaliylarning asosiy qo'shini Buxoro yaqinida to'planadi. Hal qiluvchi jang 564-yili bo'lib o'tadi. Eftaliylar Varaz boshchiligida jangga kirishadi va bu jang 8 kun davom etib eftalitlarning qaqshatqich mag'lubiyati bilan yakunlanadi. Ittifoqchilar eftaliylar merosini o'zaro bo'lib oladilar va har ikki o'rtadagi chegara sifatida Amudaryo belgilanadi. Eftaliylarning mag'lubiyatidan so'ng Buyuk Ipak yo'lining katta qismi turklar tasarrufiga o'tadi. Milodiy VI asrlarda G'arb mamlakatlarida ipak matolarga talab ancha katta bo'lib, bu yerga ipakni asosan sug'diy va eroniy savdogarlar olib kelishar edi.

Albatta, ipak savdosi savdogarlar uchun katta daromad keltirardi. Buning ustiga Eron bilan Vizantiya o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni unchalik do'stona ham, deb bo'lmasdi. Vizantiyaliklar Sug'd savdogarlaridan katta miqdorda ipakni sotib olishar va so'ngra bu ipakni qo'shni G'arb mamlakatlariga sotishib, tushgan daromadga qurol-yarog'lar sotib olishgan. Bu qurol-yarog'lardan esa Eron bilan bo'ladigan harbiy nizolarda foydalanishardi. Sug'd savdogarlarining Vizantiyaga bo'lgan yo'llari esa Eron orqali o'tar edi.

Ma'lumki, VI asrning ikkinchi yarmidan boshlab Sug'd va Farg'ona Turk hoqonligi tasarrufiga o'tgan edi. Aynan mana shu tarixiy mintaqalarda Xitoy ipagidan har jihatdan qolishmaydigan ipak yetishtirilardi. Shu sababli, Turk hoqoni xuddi Sug'd va Farg'ona savdogarlari kabi Vizantiya bozoriga to'g'ridan-to'g'ri ipak olib borib sotishdan manfaatdor edi. Yuqorida aytib o'tganimizdek karvon yo'li Eron orqali o'tardi.

Yabg'u-hoqon Istamixon 567-yili sug'd savdogarlarining iltimosi bilan Eronga katta elchilar karvoni jo'natishga rozilik beradi. Elchilar karvoniga esa boy sug'd savdogar va elchisi Moniyoh rahbarlik qiladi. Elchilar Eron hukmdori Xusrav Anushirvon bilan sug'd ipagini Vizantiya bozoriga yetkazish shartlarini kelishishlari lozim edi. Eronliklar sug'd elchilarini yaxshi kutib oladilar va ularga javob berish muddatini ancha orqaga suradilar. So'ngra, eftaliy Katulfning maslahati bilan eronliklar sug'dlar olib borgan ipakni sotib oladilar va katta maydonda to'plab elchilarning ko'z oldida ipakni yoqib yuboradilar. Sug'dlar bunday haqoratli munosabatdan qattiq xafa bo'lib ortlariga qaytadi.

Istami hoqon eronliklarning qilgan ishlariga hayron bo'lib, ikkinchi marta elchilar karvonini yo'llaydi. Endi esa karvonda faqatgina turklar bor edi. Eron shohining buyrug'i bilan karvondagi barcha elchilar va savdogarlar zaharlanib o'ldiriladi. Faqat bir-ikki kishigina omon qaytib bu fojea haqida hoqonga xabar beradi. Bu voqeya ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning butunlay yomonlashuvini anglatardi.

Eron bilan bo'lgan muzokaralardan hech qanday natija chiqmagach, sug'd savdogarlari Istami hoqonga boshqa yo'lni taklif qiladilar. Ular Eronni chetlab o'tadigan yo'l orqali Vizantiyaga, imperator Yustin II (566–578 yy.) huzuriga elchilar karvonini jo'natish tashabbusi bilan chiqadilar. Elchilar karvoniga yana o'sha Moniyoh boshliq qilib tayinlanadi. Elchilar Vizantiya imperatori bilan Eronga qarshi harbiy ittifoq tuzishlari va sug'd ipagini bu yerga keltirib sotish shartlarini o'zaro kelishishlari lozim edi.

Elchilar Eron hududini chetlab Sirdaryo orqali Orolbo'yiga chiqadilar, so'ngra Shimoliy Kavkaz orqali o'tishib Konstantinopol shahriga yetib keladilar. Imperator 568-yili eson-omon yetib kelgan hoqon elchilarini qabul qiladi. Moniyoh imperator Yustin II ga hoqonning maktubi va sovg'a-salomlarini beradi. Va natijada har ikki o'rtada Eronga qarshi harbiy ittifoq tuziladi.

Eronliklar Vizantiya bilan turklar o'rtasida harbiy ittifoq tuzilishiga va bitim imzolashiga har tomonlama qarshi edilar. Ammo bu voqeya bo'lib o'tgan, uni ortga qaytarishning iloji yo'q edi.

Ikki o'rtada tuzilgan harbiy ittifoq shartlariga ko'ra, Vizantiya g'arb tomondan Eronga zarba berishi lozim edi. Ammo vizantiyaliklar o'z so'zlarini ustidan chiqmadilar va 571 yili Xusrav bilan tinchlik shartnomasini imzoladilar. Hoqonning harbiy harakatlaridan cho'chib qolgan eronliklar turklarga har yili qirq ming oltin tanga miqdorida soliq to'lash va Amudaryoning shimoliy hududlarini turklarga berish shartlariga rozi bo'ladilar.

Eronliklar bilan hoqon o'rtasida imzolangan yangi bitim vizantiyaliklarni ancha tashvishga solib qo'ygan edi. Ayni vaqtda vizantiyaliklarning turklar bilan imzolagan shartnoma bandlarini to'liq bajarmaganliklari ularni ittifoqchi sifatida ishonchsiz ekanliklarini ko'rsatgan edi. Hoqonning bu ittifoqqa bo'lgan qiziqishi ancha pasaygan edi.

VII asrning boshlarida Turk hoqonligiga tobe Markaziy Osiyodagi ayrim hukmdorliklarda mustaqillikka erishish harakatlari boshlanganligiga guvoh bo'lish mumkin. Milodiy 605-yili Choch aholisi markaziy hokimiyatga qarshi isyon ko'taradi, ammo qo'zg'olon bostirilib mahalliy hokimiyat tarqatib yuboriladi. Samarqand va Buxorodagi hukmdorlar esa aksincha hoqonlik bilan o'z munosabatlarini yanada mustahkamlashga va hoqonning ko'magiga sazovor bo'lishga intiladilar. Markaziy Osiyodagi katta-kichik davlatlarni o'z tarkibiga qamragan G'arbiy turk hoqonligi milodiy 618–630 yillarda Tun Yabg'u hoqon hukmronligi davrida katta kuch-qudratga erishadi. U

Markaziy Osiyodagi hukmdorliklarda ko'pgina islohotlar o'tkazadi va boshqaruv tizimlarini yanada takomillashtiradi.

Sug'd hukmdorlariga hoqonlikdagi oliy darajadagi unvonlardan biri—"silif" unvoni beriladi. Bundan tashqari Markaziy Osiyodagi davlatlardagi boshqaruv ishlarini, soliqlarni yig'ish va tushgan soliqlarni hoqon xazinasiga jo'natilishini nazorat qilish uchun maxsus nazoratchi-amaldorlar - tudunlar jo'natiladi. Bu tadbirlarning barchasi G'arbiy turk hoqonligining har jihatdan yuksalishiga olib keladi. Xalqaro maydonda ham hoqonning obruyi oshib uning huzuriga juda ko'plab xorijiy elchilar kela boshlaydi.

G'arbiy turk hoqoni huzuriga kelib u bilan uchrashgan elchilardan biri bu xitoylik buddaviy monax va elchi Syuan Szandir. U milodiy 629–630 yillarda Hindistonga borish uchun Markaziy Osiyo orqali yo'lga chiqadi va bizning ajdodlarimiz haqida muhim ma'lumotlarni yozib qoldiradi. U endigina ovga chiqayotgan yabg'u-hoqon bilan uchrashadi va bu uchrashuv tafsilotlarini o'z kundaliklarida yozib qoldiradi.

Syuan Szanning ma'lumotiga ko'ra, u hoqon va uning a'yonlariga buddaviylikning o'n sharti, hayotni saqlash, Paramit haqida va bu dunyodagi g'am-g'ussa, kulfatlar, hamda ulardan xolos bo'lish yo'llari haqida so'zlab bergan. Uning aytganlarini diqqat bilan tinglagan hoqon, qo'lini oldinga cho'zib, ta'zim bajo keltirib, xursandchilik bilan uning ta'limotini qabul qilganligini bildirgan. Suhbat davomida hoqon Syuan Szanni bu yerda qolishga undagan. Ammo elchi, maqsadi tezda yo'lga chiqib Buddaning muqaddas tanasini o'z ko'zi bilan ko'rish va bu dinni yanada chuqurroq o'rganish ekanligini izhor qilgan. Shundan so'ng hoqon o'z qo'shinlari orasidan xitoy va boshqa tillarni yaxshi biladigan bir yigitni topib, unga "modu", degan unvon beradi va Syuan Szanga butun safari davomida hamrohlik qilishni buyuradi. Bundan tashqari hoqon monaxga, har xil kiyim-boshlar, ajnabiy hukmdorlar nomiga yozilgan maktublar, hamda ellik toy ipak beradi (Зыев 1960: 88–89).

Elchi Syuan Szan safari mobaynida Samarqanddan o'tar ekan bu shahar haqida o'z xotiralarini yozib qoldirgan. Barcha tarixchilarning yakdillik bilan tan olishlaricha, Turk hoqonligi davrida Vizantiya, Xitoy, Hindiston, Koreya va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida Buyuk Ipak yo'li orqali amalga oshirilgan savdo-sotiq ishlari yuksak cho'qqilarga ko'tarildi.

Sug'dning ilk o'rta asrlarda qo'shni mamlakatlar bilan o'rnatgan diplomatik munosabatlari haqida guvohlik beruvchi arxeologik manbalar ham mavjuddir. 1965 yili Samarqandning qadimgi o'rni – Afrosiyobda qazishmalar olib borayotgan arxeologlar, shahriston hududidan boy bir amaldorning hovlisidan devoriy suratlar qoldig'ini topgan edilar.

Ushbu devoriy suratlarda, Samarqandga kelayotgan elchilar karvoni va Sug'd hukmdori Varxumanning xorijiy mamlakatlardan kelgan elchilarni qabul qilish marosimi tasvirlangan (Альбаум 1975: 87–107). Manbalar asosida shu narsa ma'lumki, Varxuman Sug'd ixshidi, Samarqand afshini, ya'ni Sug'd podshosi va Samarqand hukmdori degan lavozimlarga ega bo'lgan. Ko'pchilik olimlar Varxumanni turk bo'lganligini yozganlar. Mug' tog'idan topilgan nikoh shartnomasidan anglanishicha, aslzoda turklar o'z turkcha nomlari bilan birga sug'dcha nomlarga ham ega bo'lganlar.

Yuqorida aytilganidek, ilk o'rta asrlarda Sug'd hukmdorlari ikki xil titulga (unvonga) ega bo'lganlar, ya'ni "Sug'd ixshidi" va "Samarqand afshini", degan unvonlarga. Taxminlarga ko'ra, Varxuman VII asrda G'arbiy turk hoqonligi inqirozga uchragach Sug'dning birinchi hukmdori bo'lgan.

Samarqand yaqinidagi Kofirqal'a yodgorligini tadqiq qilayotgan paytda arxeolog olimlar juda noyob bo'lgan bir necha yuzlab bullalarni topganlar. Taxminlarga ko'ra, bu yerda Samarqand hukmdorlarining arxivi bo'lgan. Afsuski, bu arxiv arablar bilan bo'lgan janglar paytida yonib ketgan. O'sha davrdagi tartib – qoidaga binoan arxivdagi har bir hujjatga bulla – muhrlar tirkalgan. Bullalar loydan yasalganligi uchun saqlanib qolgan, hujjatlar esa yonib ketgan. Qofirqala'dan topilgan bullalar ichida, boshiga toj kiygan hukmdor tasviri tushirilgan topilma alohida diqqatga sazovordir. Xuddi shunga o'xshash bulla pokistonlik kolleksioner Omon-ur-Rahmonning kolleksiyasida ham mavjud

bo'lib, bu bulla Peshovar shahridan topilgan. Ushbu bullada yozuv ham saqlangan, uni ingliz olimi Sim-Villyams o'qigan. Baqtriya yozuvida bitilgan ushbu bitikda: "Xunlar podshosi, Qushonlarning ulug' shohi, Samarqand afshini", – degan so'zlar bor. O'z-o'zidan ayonki, ushbu bulla qadimda Buyuk Ipak yo'li orqali hozirgi Pokistonga jo'natilgan elchilik nomasi orqali u yerga borgan bo'lib, bu hujjat Samarqand hukmdori nomidan yozilgan bo'lgan (Lerner, Sim-Williams 2011: 72–74).

Endi Afrosiyob devoriy suratlariga qaytadigan bo'lsak, shuni aytishimiz lozimki, devoriy suratlar 11x11 m.lik hashamatli zalning to'rtala devoriga chizilgan. Bu suratlarda Samarqand hukmdori oldiga kelgan ajnabiy elchilar va ularning qabul marosimi ifodalangan. Janubiy devorda esa Chag'oniyondan kelgan elchilar tasvirlangan. Chag'oniyon elchilari juda bashang liboslarda tasvirlangan bo'lib, elchilar karvonining oldida ustida go'zal ayol o'tirgan fil odimlab bormoqda. Filning ortidan esa otliq kanizaklari bormoqdalar. Shuningdek, ushbu karvonda qo'llariga aso ushlagan va jangovor tualarga mingan mulozimlar ham bor.

Elchilar boshlig'i karvonning o'rtasida bormoqda, u qizil libosda, qo'liga esa amaldorlik asosini ushlab olgan. Elchi mingan ot anchayin yirik qilib tasvirlangan. Shimoliy devordagi surat syujet jihatidan ikki qismga bo'lingan, birinchi qismda otliqlarga tashlanayotgan vahshiy hayvonlar tasvirlangan bo'lsa, ularning orqa qismida esa bo'xchalarni taxlayotgan hammollar tasvirlangan. Syujetning ikkinchi qismida, asov daryodan qayiqlarda suzib o'tayotgan odamlar tasvirlangan. Bu yerda ikkita qayiq chizilgan bo'lib qayqlarning birida erkaklar, ikkinchisida esa ayollar tasvirlangan. Qayiqda o'tirganlarning liboslariga qaraganda ular Sharqiy Turkistondan Samarqandga kelayotgan elchilardir. Ayrim olimlarning fikricha, elchilar Xitoy malikasini Samarqand hukmdori uchun xotinlikka olib kelishmoqda (Альбаум 1972: 42–53).

Sharqiy devordagi suratlar anchayin yomon saqlangan bo'lib, uning bir qismida dengizda cho'milayotgan yosh yigitlar, hamda suvda suzayotgan qushlar, jonivorlar tasvirlangan. Shuningdek, bu devorda ikki kishi tasvirlangan, tadqiqotchilar ularni hindistonliklar ekanliklarini tasdiqlaganlar. G'arbiy devorda Samarqand hukmdori tomonidan ajnabiy elchilarni qabul qilish marosimi tasvirlangan bo'lib, afsuski Varxumanning tasviri esa saqlanmagan. O'ttiz kishidan iborat saroy a'yonlari har xil, rang-barang liboslar kiyib olishgan. Saroy a'yonlari orasida turk zodagonlari va sug'd aslzodalari alohida-alohida tasvirlangan. Bu sahnada Varxuman atrofidagi saroy a'yonlari tasviri tushirilgan bo'lib, ularning liboslari, qo'llaridagi buyumlariga qarab ularni saroyda egallagan mavqelarini anglash mumkin. Syujetning markazida hukmdorning qarshisida xitoylik elchilar tasvirlangan. Ularning chap tomonida Samarqand, hukmdoriga o'z sovg'alarini taqdim etayotgan Chag'oniyon elchilari tasvirlangan.

G'arbiy devorning shimoliy qismida Chochdan va Koreyadan kelgan elchilar ifodalangan. Koreyalik elchilar o'z milliy liboslarida tasvirlangan bo'lib, bu liboslar orqali ularni osongina boshqalardan ajratib olish qiyin emas (Альбаум 1975: 74–79). Chag'oniyon elchilaridan birini uzun libosining pastki qismida yozuvlar bitilgan. Teparoqda baqtriya yozuvida bitilgan yozuv juda yomon saqlanganligi uchun uni o'qishni iloji bo'lmagan. Olimlarning taxminlaricha, bu yerda elchi Samarqandga olib kelgan rasmiy xatning matni yozilgan bo'lishi mumkin. Bu yozuvdan sal pastroqda sug'd yozuvi bilan bitilgan 16 qator matn saqlangan. Afsuski, bu yozuv ham yomon saqlangan, ammo uni asosiy qismini o'qishga erishilgan.

Agarda suratda aks ettirilgan Chog'oniyon elchisining kiyimiga yozilgan sug'd yozuvlarining mazmuniga e'tibor beradigan bo'lsak, bu o'rinda ham ko'p narsa oydinlashadi. Biz elchining "Men Samarqand xudolari va shuningdek Samarqand yozuvlaridan boxabarman", – degan so'zlari ko'p narsani anglatadi. Hozirgi zamonaviy diplomatiyada o'zga davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, ma'lum bir davlatda amalda bo'lgan urf-odatlar, marosimlarga, tartib-qoidalarga hurmat bilan qarash kabi tamoyillar mavjud. Bizning ajdodlarimiz bundan 1400 yillar ilgari bu tamoyillarni

qo‘llaganliklari va bu tamoyil shuncha asrlar mobaynida saqlanib kelayotganligi muhimdir. Bu faktlar o‘zbek davlatchiligining ildizlari chuqur, teran va qadimiy ekanligini anglatadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Альбаум Л. И.* Буддийский храм в монастырском комплексе Фаязтепе // Тезисы докладов сессии, посвященной итогам полевых исследований 1972 г. Ташкент. 1973. С. 42–53.
- Альбаум Л. И.* Живопись Афрасиаба. Отв. ред. д-р ист. наук Я. Г. Гулямов. Ташкент, Фан, 1975. 160 с.
- Бердимуродов А., Индиаминова Ш.* Буюк ипак йўли: (Қитъалар ва асрлар оша). Мас. муҳаррир: тарих фанлари доктори, профессор Т. Ш. Ширинов. Тошкент. Ўзбекистон. 2017. 384 бет.
- Бичурин Н. Я.* (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Том II. М.-Л., Изд-во АН СССР. 1950. 334 с.
- Зуев Ю. А.* Китайские известия о Суябе // Известия АН Каз.ССР. Серия истории, археология и этнография. Вып. 3 (14). Алма-Ата, 1960. С. 87–96.
- Кляшторный С. Г., Султанов Т. И.* Государства и народы Евразийских степей. Древность и средневековье. С-Пб., Изд. Петербургское Востоковедение. 2007. 320 с.
- Лунин Б. В.* История Узбекистана в источниках. Отв. ред. Доктор исторических наук Х. З. Зияев. Ташкент, Фан. 1984. 224 с.
- Малывкин А. Г.* Танские хроники о государствах Центральной Азии. Тексты и исследования // Отв. ред. доктор исторических наук Ю. М. Бутин. Новосибирск, Наука. 1989. 432 с.
- Саидов А. Х., Ртвеладзе Э. В.* Дипломатические отношения // История государственности Узбекистана. Том I. Ташкент, 2009. 445 с.
- Lerner A., Sim-Williams N.* Seals, Sealings and tokens from Bactria to Gandhara. Vol. 2. Austrian Academy of Sciences. 2011. 222 p.

#### REFERENCES:

- Al ‘baum L. I. 1973. *Buddijskij khram v monastyrskom komplekse Fayaztepe. Tezisy dokladov sessii, posvyashhennoj itogam polevykh issledovaniy 1972 g.* (The Buddhist temple in the monastic complex of Fayaztepa. Abstracts of the conference dedicated to the results of the 1972 field research). Tashkent, 42–53. (In Russian).
- Al ‘baum L. I. 1975. *Zhivopis ‘Afrasiaba (The Paintings of Afrasiab)*. In Gulyamov, Ya. G. (ed.). Tashkent, Fan Publ., 160. (In Russian).
- Berdimurodov A., Indiaminova Sh. 2017. *Buyuk ipak yo ‘li: (Qit ‘alar va asrlar osha) (The Great Silk Road: Across Continents and Centuries)*. In Shirinov, T. Sh. (ed.). Tashkent. O ‘zbekistan Publ., 384. (In Uzbek).
- Bichurin N. Ya. (Iakinf). 1950. *Sobranie svedenij o narodakh, obitavshikh v Srednej Azii v drevnie vremena (A Collection of Information about the Peoples Inhabiting Central Asia in Ancient Times)*. Vol. II. Moscow-Leningrad, AN SSSR Publ., 334. (In Russian).
- Zuev Yu. A. 1960. *Kitajskie izvestiya o Suyabe (Chinese Reports about Suyab)*. In *Izvestiya AN Kaz.SSR. Seriya istoriya, arkhologiya i ehnografiya (Proceedings of the Academy of Sciences of the Kazakh SSR). Series: History, Archaeology and Ethnography. Issue 3*. Alma-Ata, 87–96. (In Russian).
- Klyashtornyj S. G., Sultanov T. I. 2007. *Gosudarstva i narody evrazijskikh stepej. Drevnost ‘i srednevekov ‘e (States and Peoples of the Eurasian Steppes: Antiquity and the Middle Ages)*. Sankt-Peterburg, Peterburgskoe Vostokovedenie Publ., 320. (In Russian)
- Lunin B. V. 1984. *Istoriya Uzbekistana v istochnikakh (The History of Uzbekistan in Sources)*. In Ziyayev Kh.Z. (ed.). Tashkent. Fan Publ., 224. (In Russian).
- Malyavkin A. G. 1989. *Tanskije xroniki o gosudarstvax Sentralnoj Azii (Tang Chronicles about the States of Central Asia)*. In Butin YU.M. (ed.). Novosibirsk. Nauka Publ. 432. (In Russian).
- Saidov A. Kh., Rtveldaze Eh. V. 2009. *Diplomaticheskie otnosheniya (Diplomatic relations)*. In *Istoriya gosudarstvennosti Uzbekistana (History of Uzbek Statehood)*. Vol. I. Tashkent, 445. (In Russian).
- Lerner A., Sim-Williams N. 2011. *Seals, Sealings and tokens from Bactria to Gandhara. Vol. 2*. Austrian Academy of Sciences Press Publ., 222. (In English).

## DIPLOMATIC RELATIONS ALONG THE GREAT SILK ROAD: The Case of Samarkand Sogd

© 2025. Shoira Indiaminova

*Samarkand State Institute of Foreign Languages*

---

**Key words:** The Great Silk Road, diplomacy, Ban Chao, trade agreements, caravan routes, conflicts and their resolution, cultural ties, religious exchanges.

This article provides a unique perspective on the role of diplomacy in establishing and maintaining trade relations between China, Central Asia, India, the Middle East, and Europe in the early Middle Ages. The article also examines the diplomatic tools used by ancient empires, how alliances and agreements were concluded between states, and what methods of diplomacy were used to resolve regional conflicts and ease tensions. In addition, attention is focused on the influence of cultural exchange and diplomatic relations on the development of science, art and religious beliefs. As a result of their analysis, it can be understood that diplomacy served as an important factor in stability and prosperity along the Silk Road. The article examines the role of diplomacy in the context of trade and cultural exchange along the famous trade route of the ancient empire to ensure the safety of caravan routes, resolve trade disputes and encourage cultural exchange between different peoples and civilizations, as well as how it was used by states. Diplomatic mechanisms are analyzed and the various diplomatic strategies and tools used in ancient times to maintain peace and stability along this long route from China to Europe are described. The article also provides historical examples of the successful use of diplomacy to resolve regional conflicts and prevent military conflicts. This helps to understand the importance of diplomatic skill in ensuring stability and prosperity along the Silk Road. In addition, the article shows the role of diplomatic exchanges in the dissemination of cultural and scientific achievements, as well as in shaping public opinion and ideas about other cultures and peoples along the Silk Road.

## QORAXONIYLARNING G‘ARBIY TURKISTON O‘TROQ VOHALARIDAGI BOSHQARUV STRATEGIYALARI

© 2025. Farxod Maqsudov

*O‘zRes FA Milliy arxeologiya markazi*

---

**Kalit so‘zlar:** Qoraxoniylar, Farg‘ona vodiysi, boshqaruv markazlari, GAT, shaharsozlik, Toshbuloq, numizmatika, arxeologiya, tog‘li urbanizatsiya, turkiy xalqlar, IX–XII asrlar.

Mazkur maqolada Qoraxoniylar imperiyasining Farg‘ona vodiysidagi (X–XII asrlar) siyosiy-iqtisodiy strategiyasi va boshqaruv markazlarining shakllanishi arxeologik, numizmatik hamda yozma manbalar asosida chuqur tahlil etiladi. Tadqiqotning markaziy nuqtasi — Qoraxoniylar tomonidan tashkil etilgan zarbxonalar joylashgan shaharlarning (Axsikent shahri, Koson, Marg‘ilon, Vanket, Chunket va boshqa shaharlarning) geografik o‘rni, ular tanlanishida rol o‘ynagan omillar va, albatta, funksional vazifalarini aniqlashdir. Ushbu tahlilda zamonaviy Geografik Axborot Tizimi (GAT) texnologiyalari asosida topografik, azimut, qiyalik va vizual nazorat imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Ayniqsa, Toshbuloq va Tug‘unbuloq kabi tog‘li hududlardagi qadimiy shaharlarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar orqali Qoraxoniylarning yuqori tog‘ etaklarida ham rejalashtirilgan, mustahkam va ko‘p funktsiyali urbanistik markazlar barpo etganligi aniqlangan. Ushbu shaharlar ustaxonalar va hunarmandchilik markazlari, qabristonlar, ma‘muriy inshootlari, qishloq xo‘jaligiga oid izlar hamda savdo-sotiq aloqalarining faol bo‘lganini ko‘rsatuvchi topilmalar bilan alohida ajralib turadi. Tadqiqot natijalari Qoraxoniylar imperiyasining vohalar va tog‘li hududlar o‘rtasida uyg‘unlashtirilgan siyosiy-iqtisodiy boshqaruv modelini yoritadi va mintaqaviy strategik yondashuvni tahlil qiladi hamda ilmiy asosda ochib beradi.

---

## СТРАТЕГИИ УПРАВЛЕНИЯ КАРАХАНИДОВ В ОСЕДЛЫХ ОАЗИСАХ ЗАПАДНОГО ТУРКЕСТАНА

© 2025. Фархад Максудов

*Национальный центр археологии АН РУз*

---

**Ключевые слова:** Караханиды, Ферганская долина, административные центры, ГИС, урбанизация, Ташбулак, нумизматика, археология, горная урбанистика, тюркские народы, IX–XII вв.

В настоящей статье приводится углублённый анализ политико-экономической стратегии Караханидской империи в Ферганской долине (X–XII вв.) и формирования административных центров на основе археологических, нумизматических и письменных источников. Главное внимание уделено изучению географического положения городов с монетными дворами, организованными караханидами (Ахсикент, Косон, Маргилан, Ванкет, Чункет и др.), а также факторов, повлиявших на их выбор и функциональную роль. В исследовании применяются технологии Географических Информационных Систем (ГИС) для анализа топографии, азимута, уклона и визуального обзора. Особое внимание уделено археологическим раскопкам в горных районах, таких, как Ташбулак и Тугунбулак, где были выявлены устойчивые, многофункциональные городские центры, расположенные у подножий гор. Эти поселения отличались наличием ремесленных кварталов, некрополей, дворцовых сооружений, а также следов сельскохозяйственной и торговой деятельности. Полученные результаты проливают свет на интегрированную модель политико-экономического управления Караханидов между равнинными и горными регионами и обосновывают её региональную стратегическую направленность.

Tarixiy yozma manbalarga ko'ra, O'rta Osiyoning Qoraxoniylar tomonidan egallangan vohalarida imperiyaning boshqaruv markazlari, ya'ni zarbxonalari mavjud bo'lgan shahar va qarorgohlarning qurilishi ma'lumdir. Tangritog' etaklarida, Sharqiy Turkiston va Yettisuv tarixiy o'lkasiga ega bo'lgan Qoraxoniylar G'arbiy Turkistonda X asrda Somoniylar bilan to'qnashgan. U davrda ancha avj olgan boshboshdoqlik yuzidan Somoniy davlati o'z kuchini yo'qotishni boshlagan edi. Bu vaziyat Qoraxoniy hukmdori Bug'raxon Xorun (Кочнев 2006: 149) tomonidan ustamona baholanib, 990 – 992-yillar orasida Isfijob va Buxoro kabi muhim Somoniy shaharlari Qoraxoniylar tomonidan egallangandi.

Ayni zamonda Farg'ona vodiysining Qoraxoniylar tomonidan bosib olinishi 991 – 992-yillarda bu tarixiy o'lkaning O'zgan shahrida birinchi marta zarb qilingan Qoraxoniy dirhami bilan ishoratlangan edi. Bu tangada "Turk xoqon", ya'ni Xorun bin Sulaymon va yordamchisi "Arslon Tegin bin Ulug' Tegin" esga olinadi. Bu voqeadan bir yil oldingacha Farg'onaning bir shahri bo'lmish O'zganda Somoniy tangasi zarb etilar ekan, bu yerda ilk Qoraxoniy tangasining zarbi, B. Kochnevga ko'ra, balki Farg'onaning Qoraxoniylar qo'liga o'tganini ko'rsatuvchi bir zafar ishorati bo'lgan (Кочнев 2006: 149). Shunday qilib, 991 – 992-yildan XII asrning so'nggiga qadar Farg'ona vodiysi Qoraxoniylarning tarkibida bo'lgan.


Qoraxoniylar davriga tegishli yozma manbalarning Qoraxoniylar ijtimoiy-iqtisodiy turmushi va madaniyati to'g'risida ko'pincha yetarsiz ma'lumot yetkazgani ma'lum. Shuning uchun izlanishlarda va xususan, bu davrda yashagan turk jamoalarining turmushini mavzu qilib olgan izlanishlarda geografik yondashuv juda muhimdir. Qoraxoniylarning siyosiy iqtisodini an'anaviy arxeologik metodlar bilan o'rganish deyarli imkonsizdir. Chunki imperiya hududlaridagi aholi punktlarida olib borilgan qazishmalarda topilmalar yordami bilan bu imperiyaning siyosiy iqtisodi to'g'risida ma'lumot olish muammolidir. Bu borada "o'rnashuv tizimi va modellari"ni o'rganish yangi ma'lumotlarga ega bo'lishda muhim yondashuv sanaladi.

O'rnashuv modellari arxeologiya fanidagi tamal tushunchalardan biri sifatida so'nggi yillarda rivojlandi. Bundan tashqari landshaft arxeologiyasi deya ma'lum bo'lgan o'rnashuv modellari izlanishlari har bir arxeologik yodgorliklarni birma-bir o'rganish o'rniga tegra yoki hudud darajasidagi tahlillar muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, o'rnashuv modeli ma'lum bir jamoaning o'z hududida mavjud tevarak tabiiy manbalardan qanday foydalangani mavzusida balki eng aloqador bir fenomendir. Ba'zan madaniy an'analarning, ba'zan esa ma'muriy siyosiy yondashuvlarning bir aksi o'laroq ham idrok qilingan o'rnashuv modellari ko'plab omillar tomonidan belgilanadi. Bularning orasida geografiya, yer egaligi strategiyasi, sotsiologik sharoitlar, iqtisod, etnik kelib chiqish va hatto diniy kelib chiqish kabi omillar ko'rsatilishi mumkin.

O'rnashuv modellari insonlarning tevarak-muhitga moslashuvi va foydalanilishi mumkin bo'lgan barcha resurslaridan iste'foda etish bilan birga, yanada unumliroq bir iqtisodiyotga ega bo'lish uchun qiyinchilik va og'ir sharoitdan chiqish yo'llarini ko'rsatadi. Bu yo'nalishda izlanish olib borish uchun ham mahalliy, ham mintaqaviy ko'lamlarda farqli loyihalar ustida ishlayotgan izlanuvchilarning to'plagan ma'lumotlari umumlashtirilib, uyg'unlashtirilishi kerak. Geografik Axborot Tizimi – GAT farqli ko'lamlardagi ma'lumotlarni boshqarish uchun bir bilim platformasini ta'minlaydi. Arxeologiya tarixiy voqealarga geografiya, zamon va madaniyat vositasi bilan yondashgani uchun arxeologik izlanishlarning natijalari makonga tegishli ma'lumot jihatidan boydir.

GAT keng hajmli ma'lumotlarni, xususan, geografik o'laroq bog'langan ma'lumotlar ustida ishlashda yagona yechim bo'lib xizmat qiladi. Arxeologiyada GATdan foydalanishning eng muhim tomoni shundaki, uni faqat xarita yaratish vositasi o'laroq ishlatishda emas, balki farqli ma'lumot turlarini birlashtirish va tahlil qilish salohiyatini ishlatgan holda yangi bilim yaratishdadir. Shuning



1-rasm. SRTM sun'iy yo'ldoshdan olingan rasm va GAT ma'lumotlar ombori (Farg'ona vodiysida Qoraxoniya boshqaruv markazlari).

Рис. 1. Спутниковый снимок SRTM и хранилище данных GAT (Административные центры Караканидов в Ферганской долине)


Fig. 1. SRTM satellite image and GAT data warehouse (Administrative centers of the Karakhanid in the Fergana Valley)

uchun arxeologiyada GATning ishlatilishi arxeologlarning ma'lumot to'plash va ko'rgazma metodlarini o'zgartirish bilan bir paytda ularning makon to'g'risidagi tushunchalariga ancha ta'sir o'tkazgan (ArcGIS for Desktop...). Natijada GAT bugun bir obyektiv vosita bo'lishdan ziyoda bir fan yo'nalishi o'laroq rivojlanishga ulgurgan holda gavdalanadi.

Tog'li Ustrushonada o'rin olgan Toshbuloqning o'rnashuv ekologiyasini aniqlash uchun nisbatan ko'proq o'rganilgan qo'shni hudud – Farg'ona vodiysining tekislik va tog'oldi tegralarida shaharlarga qarab ko'rishimiz kerak. Tabiiy-ekologik jihatdan janubiy Farg'onaning tog'oldi va tog'li tegralari Toshbuloq joylashgan Turkiston-Pomir tog' tizimining bir parchasidir.

Numizmatik manbalarga ko'ra, Qoraxoniylarning O'rta Osiyoda vohalaridagi ilk egallagan hududi – Farg'ona vodiysida Axsiket, Vanket, Koson, Quva, Marg'inon, Rishton, O'zgan, O'sh, Ho'qand va Chunket kabi zarbxonalari mavjud bo'lgan o'nta boshqaruv markazining bo'lgani aniqlangan (Кочнев 2006: 45). Arxeologik izlanishlar bu shaharlarning sakkiztasini lokalizatsiyasini aniqlab, faqat Vanket va Chunket kabi aholi punktlarining o'rnashuvi kelgusidagi izlanishlarga qolib ketgan. O'rta asr geografi Muqaddasiyga ko'ra, Farg'ona vodiysida X asrda juma masjidi bo'lgan qirq aholi punktining (shaharning) bu o'lkadagi Yuqori Nesya, Quyi Nesya, Miyoni Rudon va Vagiziya o'laroq to'rt viloyatida o'rin olgani ko'rsatiladi (Gorbunova 1979: 33).

Janubiy Farg'onadagi So'x daryosi vodiysi Yuqori Nesya o'laroq ma'lum bo'lgan va bu viloyatda Ho'qand bilan Rishton shaharlari mavjud bo'lgan. Janubiy-markaziy va janubiy-sharqiy Farg'ona



2-rasm. Kason (chapda) va O'sh (o'ngda) Qoraxoniylar boshqaruvi markazlarining qiyalik topografik tahlili.

Рис. 2. Анализ рельефа склонов административных центров Карахани Касон (слева) и Ош (справа)

Fig. 2. Analysis of the relief of the slopes of the administrative centers of Karakhani Kason (left) and Osh (right)

vodiysi Quyi Nesya nomi bilan ma'lum bo'lib, Marg'inon, Quva va O'sh shaharlarini o'z ichiga olgan. Shimoli-sharqiy Farg'onadagi Norin va Qoradaryolarining orasidagi hudud Miyoni Rudon ("Ikki suv orasi") viloyati o'laroq esga olinib, O'zgan shahrining bu yerda o'rnashgani aytilgan. Vagiziya deb bilingan Shimoliy Farg'ona viloyati Axsiket va Kason shaharlarini o'z ichiga olgan (Бартольд 1963: 222). Arxeologik jihatdan o'rnashuvi aniqlanmagan Vanket Muqaddasiyga ko'ra, Axsiketdan yetti farsah shimoli-g'arbda, Farg'ona bilan Iloq, ya'ni Angren vodiysi chegarasida o'rnashgan. O'rta asr tarixchisi bo'lgan Istaxriyga ko'ra esa, Vanket yuqori Nesyada o'rnashgan bo'lib, Sirdaryo daryosidan bir farsah uzoqlikda bo'lgan va bundan tashqari Rishtonchalik yirik shahar bo'lgan (Бартольд 1963: 212–214).

Bu ma'lumotlarga qarab izlanuvchilar turli fikrlarni ilgari surgan. Uzun yillar davomida Farg'ona vodiysida sinchkovli izlanishlar olib borgan Gorbunova tomonidan Vanketning o'rnashuvi Janubiy Farg'onadan Shosh o'lkasiga olib boradigan yo'l ustida bo'lgani aytiladi va hatto Xo'ja Turob nomli bir arxeologik yodgorlik bilan lokalizatsiya qilinadi (Gorbunova 1979: 33).

Numizmatik ma'lumotlarga tayangan Kochnev esa, Vanketda zarb qilingan Qoraxoniylar tangalarining xususiyatlarini ta'riflaydi. Vanketga tegishli 1052 – 1053-yilda zarb qilingan tanganing orqa tomonida "Al-Malik Arslon Qora Xoqon Amir Al-Umaro", old tomonida "Fahr Ud-Davla Fahri Davla Bahrom" yozuvi bo'lsa, 1054–1055-yilda zarb qilingan dirhamning orqa tomonida "Arslon Xon Muhammad bin Nasr" va old tomonida "Shihob Ud-Davla" yozuvlari aniqlangan. Birinchi tangada tilga olingan ism va unvonning O'zgan (1049–1050-y.), Quva va Marg'inon (1952–1954-y.) tangalarida uchrashi ma'lumdir.

Ikkinchi dirhamda tilga olingan ism va unvon Quva (1054–1057-y.) va Marg'inon (1054 – 1055-y.) tangalarida mavjuddir. Birinchi guruh tangalarining keyinchalik ikkinchi guruh tangalari bilan almashtirilishi, Kochnevga ko'ra, faqat Quva va Marg'inon uchun maxsus bo'lib, Janubiy Farg'onadagi siyosiy vaziyatning o'zgargani bilan bog'liq, shuningdek, Vanketning Janubiy Farg'onada bo'lgan, biroq bu yerdagi shaharlarga o'xshamagan farqli shahar bo'lgan fikri ilgari surilgan (Кочнев 2001: 94). Shunday qilib, bu fikrlarga ko'ra, Vanketning o'rnashuvi Yuqori Nesya tevaragida yoki Farg'onadan Shoshga ketish yo'li ustida bir aholi punkti bo'lgan. O'rnashuvi aniqlanmagan, biroq Qoraxoniylar davrida o'z tanga zarbiga ega bo'lgani birinchi

marta Kochnev tomonidan aniqlangan (Кочнев 2001: 45). Chunket haqida yozma manbalarda ma'lumot uchramaydi.

Qoraxoniylar davriga oid tilga olingan o'n boshqaruv markazining Farg'ona vodiysining olti vohasida o'rnatilgan geografik, gidrologik tahlil natijasida aniqlangan. Ilgari surilgan fikrimizga ko'ra, zarb xonalari mavjud bo'lgan bu boshqaruv markazlari imperiya byurokrtiyasini legitim qilishga va e'tiborga molik (prestij) mahsulotlarni qo'lga kiritish maqsadi bilan qurilgan bo'lib, Qoraxoniylarning moliyaviy, iqtisodiy tizimining bir qismi bo'lgan. Mintaqaning Qoraxoniylar qo'lga o'tishidan oldingi siyosiy, iqtisodiy vaziyati mazkur ma'muriy markazlarning tanlanishiga ta'sir qilgan bo'lishi kerak. Biroq arxeologik xaritalarga ko'ra, ba'zi vohalarda bunday markazlarning o'rnatilishi vohalarning qoq markazlarida, ayrimlarida esa vohalarning chetida o'rnatilgan kuzatiladi.

Izlanishning maqsadi bu holatning qanday shart-sharoitlarga tayanganini o'rganish, shuningdek, Qoraxoniylar siyosiy iqtisodining Farg'ona vodiysi misolida mintaqaviy strategiyasini oydinlikka chiqarishdan iborat edi. Bundan tashqari Qoraxoniylar imperiyasining Farg'ona vodiysida qurgan boshqaruv markazlarining, ya'ni zarb xonalari mavjud bo'lgan shaharlarning o'rnatilish modellarini tahlil qilib, Qoraxoniylarning bu mintaqada mavjud bo'lgan iqtisodiy manbalardan qanday foydalanganini tushunish uchun bir odimdir.

So'nggi yillarda ancha ilgari ishlatilgan kompyuter texnologiyasi o'tmishda shakllangan o'rnatilish modellarini o'rganishga va oydinlashtirishga imkoniyat beradi. Xususan, GAT bir mintaqadagi mavjudligi inkor etilmagan, ya'ni real xususiyatlarini aniqlash, ularni tahlil qilish va ko'rgazmali qurol sifatida namoyish qilish salohiyatiga egadir. Bu izlanishda raqamli muhitga kiritilgan GAT ma'lumotlar bazasi Farg'ona vodiysi xaritasining topografiyasi bilan bog'langan. Yaratilgan yangi raqamli xaritada barcha ma'lumotlar chiziq, poligon va nuqtalardan shakllanib, daryolar va yo'llar chiziqlardan, turli tuproq maydonlari poligonlardan va arxeologik yodgorliklar nuqtalardan iborat holda namoyish qilinadi. Bundan so'ng bu ma'lumotlar bazalari o'rtasidagi makon munosabatlari test va tahlil qilinadi. Bunday amallarning natijasi xaritalar, diagrammalar va jadvallar shaklida taqdim etiladi.

*GAT tahlili.* Izlanish uchun bir vosita o'laroq ishlatilgan GAT muhitida Farg'ona vodiysining arxeologik va ekologik ma'lumotlardan foydalanilib, topografik tahlil uchun bir model yaratishga imkon bergan ma'lumotlar bazasi shakllantirilgan. Bu ma'lumotlar bazasi mintaqaning kosmik xaritalari (SRTM) (Global Land Cover Facility...), arxeologik yodgorliklar, daryo va soylar hamda topografik xaritalardan iboratdir (The Premier Online Resource...). Qoraxoniylar davrida Farg'ona vodiysida mavjud bo'lgan o'nta boshqaruv markazining to'rttasi oldin ham, ya'ni Somoniylar davrida ham ma'muriy markaz bo'lgani ma'lumdir. Qolgan olti shaharda tanga zarbi birinchi marta Qoraxoniylar tomonidan amalga oshirilgan. Bulardan ikki shaharning – Vanket va Chunketning lokalizatsiyasi noma'lumdir. Qolgan to'rt shahardan ikkitasi – Marg'inon va Rishton an'anaviy dehqonchilikka tayangan iqtisodiyot tegrasida o'rnatilgan kartografik tahlillar natijasida aniqlangan. So'nggi ikki shahri bo'lgan Koson va O'sh o'z o'rnatilishi jihatidan diqqat tortadi.

SRTM ochiq va tekin ma'lumotlar manbasi bo'lib, butun yer yuzining topografik xaritasidir. SRTM NASA tomonidan yuritiladigan xalqaro loyiha bo'lib, yer yuzi quruqlik qismining 80 foizini qamraydi va raqamli yuksaklik modeli bilan ta'minlaydi (Berry et al 2007: 17–27, SRTM...). Izlanishda Farg'ona vodiysining SRTM raqamli yuksaklik modeli xaritasi (1-rasmga qarang) va arxeologik yodgorliklar xaritasidan foydalanib, raqamli topografik konturlari, qiyalik, azimut va ko'ra olish manzarasi kabi bir necha turli topografik tahlillar bajarilgan (ArcGIS for Desktop...).

Topografik konturlar bir xil yuksaklikdagi maydonlarni birlashtirgan chiziqlar bo'lib, ularning yoyilishi yer yuzasi bo'yicha yuksaklikning o'zgarishini ko'rsatadi. Topografik konturlar

Qoraxoniylar davri Farg'ona vodiysida geomorfologik o'laroq bir xil yuksaklikda qurilgan aholi punktlarini aniqlab topishga imkon beradi, shuningdek, bir maydonda tekislik va qiyalik tegralarini ko'rish imkonini taqdim etadi.

Qiyalik tahlili maydondagi har nuqtaning atrofdagi nuqtalarga ko'ra, yuksaklik farqidan kelib chiqib, qiyalik xaritasini yaratadi. Natijada farqli tegra turlari, masalan, sug'orma dehqonchilik uchun qulay va noqulay maydonlar, tog' etaklarida foydalanish mumkin bo'lgan yaylovlar va mumkin bo'lmagan tik qoyaliklar hamda shahar va qishloq qurilishi uchun qulay, yaroqsiz bo'lgan maydonlarni ko'rsatib beradigan xarita tuzilgan. Shuningdek, qiyalik tahlili bilan topografik xarita birlashtirilishi natijasida sug'orma dehqonchilik vohalarining chegaralari aniqlangan (2-rasmga qarang).

Qiyalik tahlili natijalariga ko'ra, Koson vohasida 84% maydon, O'sh vohasida esa 91% maydon sug'orma dehqonchilik uchun foydalanishi mumkin bo'lgani aniqlandi. Qiyalik tahlili qilinganda raqamli yuksaklik modelidan topografik konturlar chizilib, Koson, O'sh va O'zgan shaharlarining dengiz sathidan ming metr yuksaklikda o'rin olgani aniqlandi. Azimut tahlili qadimiy aholi punktining to'rt tomonga (shimol, janub va hokazo) ko'ra, qanday o'rnashganini ko'rsatib, dehqonchilik va chorvachilik jihatidan quruq va nam, quyoshli va soya hududlar proporsiyasini aniqlashda yordam beradi (3-rasmga qarang).


Azimut tahlili natijalariga ko'ra, Koson vohasida quyoshga qaragan maydon 72% ni tashkil etib, O'sh vohasida bu ko'rsatkich 13% dan ortmasligi aniqlangan. Ko'ra olish manzarasi tahlili qadimiy aholi punktidan tevarak-atrofdagi ko'rinishi mumkin bo'lgan maydonlarni aniqlaydi. Bunday xaritada maydonda strategik jihatdan qadimgi aholi punktining qaysi omillarga ahamiyat bergan holda joyning tanlanganligi aniqlanadi (4-rasmga qarang).

Bunday tahlil natijalariga ko'ra, Koson va O'sh vohasida qadimiy ikki shahardan tevarak-atrofning kamida 15% i ko'z bilan doimiy ravishda nazorat qilinishi mumkin bo'lgan.

O'rta asrlarda Yevrosiyo dala-qirlari va dehqonchilik vohalarida hukm surgan qipchoq, o'g'uz va qarluq kabi ko'chmanchi va yarim o'troq turkiy jamoalar ancha keng maydonlarni egallab, o'z hukmronliklarini qurgan. Biroq egallangan o'lkalardagi infratuzilmalarni buzmay, ulardan maksimal foydalanishga uringan dasht ko'chmanchi imperiyalari klassik va tor ma'nodagi imperiyalar o'laroq baholanishi yanglish bo'ladi. Shu sababli mazkur geografiyada yuksalgan ko'chmanchi davlatlar uchun ko'pincha xoqonlik, xonlik yoki o'rda kabi atamalar ishlatiladi.

O'rta Osiyo turk imperiyalari chorvachilikka tayangan dala-qir va tog' etaklarini hamda dehqonchilikka tayangan daryo vohalarini o'z ichiga olgan va farqli siyosiy uyushmalar bo'ylab kengaygan yirik, kompleks siyosiy ittifoqlar edi. X–XII asrlarda O'rta Osiyoni boshqargan Qoraxoniylar imperiyasi yozma manbalarda Ilakxoniy yoki Xoqoniy deb atalgan bir sulola tomonidan boshqarilgan ko'chmanchi va yarim o'troq turk urug'larining konfederatsiyasi bo'lgani ma'lumdir.

Qoraxoniylarning O'rta Osiyoga kirib kelishi bilan bu mintaqada shaharsozlik yuksak darajaga ko'tariladi. Numizmatik ma'lumotlarga ko'ra, Farg'ona vodiysidagi Qoraxoniy boshqaruv markazlar bilan bir qatorda bu yerda ko'plab shahar va yirik qishloqlarning tashkil etilgani aniqlangan. Bu shaharlar ayni paytda iqtisodiy va tijoriy markaz sifatida ancha rivojlanib, an'anaviy dehqonchilik vohalarining tashqarisida, ya'ni dala-qir, tog' etaklari va cho'l tegralari tomon kengaygan. O'rta Osiyo shimoli-sharqiy qismi (Ustrushona, Shosh va Farg'ona vodiysi) Somoniylar davrida periferiya sifatida rivojlangan bo'lsa, Qoraxoniylar davriga kelib, O'rta Osiyoning markaziga aylanadi. Buning sababi Qoraxoniylar faqatgina dehqonchilikka tayangan iqtisodiyotni emas, balki chorvachilik, tog' konchilik va savdo-sotiqqa katta ahamiyat bergani va natijada ko'p yo'nalishtirishli iqtisodiyotga ega bo'lganidir.



3-rasm. Koson (chapda) va O‘sh (o‘ngda) Qoraxoniylar boshqaruv markazlarining azimut topografik tahlili.  
 Рис. 3. Азимутальный топографический анализ административных центров Карахани Касон (слева) и Ош (справа)


Fig. 3. Azimuthal topographic analysis of the administrative centers of Karakhani Kason (left) and Osh (right)

XI– II asrlarda Qoraxoniylar davlati Yettisuv o‘lkasi va uning shimoli-sharqidan O‘rta Osiyoning janubi-g‘arbiy hududlariga qadar kengaygan va bu yerdagi o‘troq vohalarni har jihatdan o‘z nazorati ostida ushlab turishga harakat qilgandi. Imperiya kengaygan sari O‘rta Osiyoning o‘troq vohalarida siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tomonlardan farqli bo‘lgan turli jamoalarga duch kelingan edi. Bu jamoalar O‘rta Osiyoning mashhur o‘troq sivilizatsiya markazlari bo‘lgan Shosh, Farg‘ona, Ustrushona, Sug‘d, Buxoro, Xorazm va boshqalar edi. Bunday sharoitlarda mahalliy qulayliklardan foydalanish uchun imperiya o‘z siyosiy iqtisodini uyg‘unlashtirishga uringandi.

Yozma, arxeologik va numizmatik manbalarga ko‘ra, O‘rta Osiyoning shimoli-sharqiy hududlarida, xususan, Farg‘ona vodiysida Qoraxoniylar tomonidan tanga zarb qilingan kamida o‘nta boshqaruv markazining tashkil etilganligi ma‘lumdir (Axsiket, Vanket, Koson, Quva, Marg‘inon, Rishton, O‘zgan, O‘sh, Xoqand, Chunket). Biroq bu boshqaruv markazlari ichida Vanket va Chunket kabi shaharlarning o‘rnashuvi haligacha aniqlanmagan. Izlanishning bu qismida Geografik axborot tizimi (GAT) vositasi bilan Qoraxoniylar tomonidan tashkil etilgan ma‘muriy markazlarning o‘rnashuv xususiyatlari o‘rganilib, Qoraxoniylar davrida bunday markazlarning ekin-tekinchilik vohalarining yuqori qismida, ya‘ni tog‘ etaklarida yuritilgan chorvachilik yaylovlariga yaqin nuqtalarida tashkil etilgani aniqlangan. Natijada o‘rnashuvi noma‘lum yuqorida tilga olingan shaharlarning lokalizatsiyasi masalasida yangi fikrlar ilgari surilgan.

Osiyo tarixi uzoq o‘tmishdan ildiz otgan ikki siyosiy tizim – shaharlashgan agrar imperiyalar va ko‘chmanchi qabilalar konfederatsiyalari (xonliklar) o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik sifatida sodir bo‘lgan. Arxeologik va tarixiy materiallar shundan dalolat beradiki, O‘rta Osiyo shaharlari mintaqaviy davlatlarning ishlab chiqarish va savdo, din va harbiy qudrat markazlari sifatida institutsional o‘sishi va siyosiy gegemonligini ming yillar davomida qo‘llab-quvvatlagan. Ta‘rifga ko‘ra, ko‘chmanchi uyushmalar shaharsozlik bilan bog‘lanmagan deb qaraladi. Buning o‘rniga ular o‘z siyosiy kuchini markaziy va ichki Osiyoning dala-qirlari, tog‘lari va cho‘llarida ildiz otgan tezkor otliq va sigmentar qabilaviy tarmoqlardan hosil qiladi.

Qadimgi yozma manbalardan boshlab, ushbu muhim mintaqadagi ijtimoiy va siyosiy dinamika vohalardagi agrar shaharlarda ildiz otgan imperatorlik gegemoniyasi hamda Osiyo dala-qirlari



4-rasm. Kason (chapda) va O'sh (o'ngda) Qoraxoniylar boshqaruv markazlarining strategik o'rnashuvi – tegrani ko'ra olish topografiyasi tahlili.

Рис. 4. Стратегическое расположение административных центров Караханидов Касона (слева) и Оша (справа) – анализ окружающей топографии

Fig. 4. Strategic location of the Karakhanid administrative centers of Kason (left) and Osh (right) – analysis of the surrounding topography

va tog'laridagi shaharlashmagan ko'chmanchilar epizodik bosqinlari o'rtasidagi paradigmatik kurash sifatida idrok qilingan.

So'nggi yillarda olib borilgan tarixiy va arxeologik izlanishlar bunday toifadagi qutblanishni shubha ostiga qo'yib, Osiyo bo'ylab uzoq o'tmishdan so'nggi davrlarga qadar bo'lgan institutsional rivojlanishda ko'chmanchilarning muhim o'rnini hujjatlashtiradi. Agrar shahar davlatlar va ko'chmanchi chorvadorlarning o'zaro ta'siri va simbiozi hech bo'lmaganda jez davridan boshlab, xususan, tovar savdosi, texnologik innovatsiyalar ekin-tekinchilik va chorvachilik mahsulotlarini ayriboshlashlikka asoslangan.

Shunga qaramay, ko'chmanchi jamoalar mustaqil urbanistik markazlarini qo'rmasdan o'zlarining siyosiy kuchlarini yarata olgan degan g'oya shaharliklar va ko'chmanchilar o'rtasidagi qutblashuvda so'nggi tamoyil bo'lib qolgan. Biroq so'nggi yillarda markaziy O'zbekistonning tog'li hududlarida, dengiz yuzasidan 200 metr yuksaklikda topib, o'rganilgan qadimiy urbanistik markazning me'morchiligi, xronologiyasi va arxeologiyasi ma'lumotlariga ko'ra, mo'g'ul bosqinigacha bo'lgan davrda O'rta Osiyo ko'chmanchilari tog'li tegralarda shaharlarni rejalashtirgan, qurgan va saqlaganligi aniqlangan.

Toshbuloq yodgorligida 2011 – 2018-yillarda olib borilgan geofizik xaritalash, arxeologik qazishma yuritish va bioarxeologik tahlil qilish natijalari bu tog'li tegrada IX – XII asrlarda 300-yildan ortiq davom etgan shaharsozlikning barqaror rivojlanishi kuzatilib, umumiy birlashgan maydoni 50 gektardan ortiq hududni tashkil etadi. Ushbu yuksaklikdagi shaharchalar yuzasidan to'plangan sopol buyumlar yig'indisida qo'lda yasalgan bo'yoqli idishlarning ustuvorligi bu yerda yashagan aholining ko'chmanchi jamoalari bilan bog'liq bo'lganini ko'rsatadi. Qo'lga kiritilgan turli import mahsulotlari va tangalar ikki shaharchani ham savdo va o'zaro aloqalarining mintaqaviy sxemalari bilan bog'langanini ko'rsatib, bu yerda qazilgan qabrlar esa tuzilishiga ko'ra, O'rta Osiyo tog'li tegralarida ilk musulmonlarning ko'mish udumini namoyish etadi. Bu

shaharchalar past tekisliklardagi vohalardan tashqarida yuksak tog'larda qurilishi ularning o'zaro bog'liq bo'lgan shahar tugunlari tizimining mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

Tog' shahar va qishloqlari tizimi o'rta asr ko'chmanchi uyushmalarining siyosiy, iqtisodiy va diniy institutlarini rivojlanishini ta'minlagan. Kengroq ko'lamda Toshbuloq arxeologiyasi qadimgi ko'chmanchi uyushmalarning mo'g'ul bosqinigacha bo'lgan Osiyo imperiyalarining kengayuvchi va dinamik siyosiy geografiyasi doirasida hudud nazorati va iqtisodiy rivojlanishni kuchaytirish uchun shaharlashuvdan foydalangani to'g'risida yangi dalillarni taqdim etadi. Global ko'lamda bu shaharchalar ko'chmanchi siyosiy strategiyalar bo'yicha fundamental tushunchalarimizni o'zgartirib, Osiyo bo'ylab bir necha asrlik siyosiy tarixni yangidan yozishga yordam beradi.

“Ko'chmanchi” atamasi ostida O'rta Osiyo hududida jez davridan o'rta asrlargacha xo'jaligida chorvachilik ustun bo'lgan urug' uyushmalari ko'zda tutiladi. Agrar jamoalarining kiritimlari ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsuloti va yer egaligidan tushadigan soliqlar evaziga to'plansa, ko'chmanchilarning siyosiy liderligi sulolaviy qarindosh-urug'chilikdan kelib chiqardi va boyligi asosan hayvon boqish, savdo-sotiq hamda bosqin qilingan hududlardan olingan o'lja evaziga tashkil topardi.

*Tog' shaharsozligi.* Toshbuloq yodgorligida olib borilgan geofizik izlanishlar, 3D modellashirish va arxeologik qazishmalarning natijasida 800 – 1150-yillarda markaziy O'zbekistonning tog'li tegrasida reja asosida rivojlangan me'morchilikka ega urbanistik markazlar mavjud bo'lganligini ko'rsatdi. Mazkur shaharchalar tarixan va hatto bugungi kunda ham yozgi chorvachilik yaylovi sifatida foydalaniladigan tegrada o'rin oladi. Olib borilgan arxeologik izlanishlarda bu hudud jez davridan so'nggi o'rta asrlargacha ko'chmanchi chorvadorlar tomonidan o'zlashtirilgan.

Toshbuloq yodgorligidan 5 km g'arbda yana bir qadimiy xaroba – Tug'unbuloq arxeologik qoldiqlari topilgan bo'lib, bu yerda kamida 30 gektarlik maydonda uzluksiz me'morchiligi kuzatiladi. Jumladan, bu yerda olti yirik tepalik o'lchamlari rejalari va qurilish xususiyatlariga ko'ra, mintaqadagi X – XII asr qal'alarini eslatadi. Tug'unbuloqda qulagan ulkan inshootlarning qoldiqlari burchak burjlar, ichki shahar perimetri bo'ylab qurilgan qalin devorlar va 1,5 km ga cho'zilgan mudofaa tizimi mavjud bo'lganidan dalolat beradi. Shaharchaning tevaragini devorsimon uzun do'nglik shaklida o'rab turgan qurilma mudofaa tizimi taxmin qilingan. Yirik tepaliklar o'rtasidagi qiyalik maydon terassasimon binolar bilan to'ldirilgan. Aholi punktining chiziqsimon mudofaa devori bilan o'ralgan qismi 100 gektardan ortiq maydonni qamrab, zich qurilmalar bu maydonning markazida to'plangan. Tepaliklar yuzasidan ko'plab qo'lda yasalgan bo'yoqli sopol buyum siniqlari topilib, bu yerdan 4 km sharqda joylashgan Toshbuloq yodgorligi sopol buyumlariga o'xshashlik ko'rsatadi.

Toshbuloq yodgorligida olib borilgan qidiruv, xaritalash va qazish ishlari bu tog'li urbanistik markazning shahar tarixi va funksional vazifalari bo'yicha tafsilotli ma'lumotlar berildi. Bu yerda aniqlangan qurilish sektorlari mudofaalangan ark turar joyi, ixtisoslashgan ustaxonalar mahallasi, mudofaa tuzilmalari (minora) va qatorasiga qabrlardan iborat yirik qabristonni o'z ichiga oladi. Toshbuloq arki tepaligida olib borilgan geofizik qidiruv va qazishmalar jarayonida tabiiy holda yuzaga chiqib qolgan tog' jinsida qurilgan yirik, simmetrik shaklga ega turarjoy inshooti ochilgan.

Ochilib qolgan tog' jinsi yuzasi to'ldirilib, tekislangan va rejalashtirilgan tuzilma 7000 kv metr maydonda qurilgan. Arkning asosiy turar joyi qoya tosh devor tagkursi yordamida mudofaalangan bo'lib, qalinligi 30–100 sm va saqlangan balandligi 2 m bo'lgan. Devorlarning yuqori qismi yog'ochdan sinch va xom g'isht kombinatsiyasi bilan qurilgan, sinch karkaslar yordamida bino qurish tog'li hududda bu yerga yaqin Miq qal'asi va boshqa joylarda uchraydi. Ark turar joyining tashqi toshli devorlari zich bo'lib, 70–100 sm qalinlikka ega bo'lib, ayrim hollarda xavfsizlikni ta'minlash uchun kirish qismi aylanmali bo'lgan. Qulagan tashqi devor qoldiqlari orasida o'q uchlari topilgan bo'lib, binoning kamida bir marta harbiy hujum ostida qolganligini bildiradi.

Markaziy binoning tevaragida, ark hududidan chiqmagan holda kichikroq bir xil tuzilishga ega binolar tizimi qurilgan. Ular katta ehtimol bilan shahar ma'muriyati yoki soqchilarning turar joyi bo'lgan. Bu chetdagi bino devorlarining tagkursi atrofida yumaloqsimon magnit anomalialar qayd etilgan bo'lib, ular qazilganda xona o'rtalarida isitish o'choqlari bo'lgani aniqlangan.

Arkda qayd etilgan turli qurilish bosqichlari umumiy inshoot yo'nalishining davr o'tgan sari o'zgarishini ko'rsatadi. Ark saroyi madaniy qatlamlarining radiouglerod sanalashtirilishi bu yerda ilk hayotning VIII asr oxiri – IX asr boshida boshlanganligini ko'rsatadi. Uch qayta qurish davri X – XI asrlarga to'g'ri keladi. Inshootning qulash davri 1150-yil bilan belgilanadi. Ushbu xronologik bosqichlar butun shahar bo'ylab qayd etilgan bo'lib, binolarning yo'nalishi, qurilish texnologiyasi va shaharchaning umumiy tarixi uning ilk boshidan rejalashtirilgan chizmalar asosida qurilganini va bir paytda tark etilganini ko'rsatadi.

Ixtisoslashgan ustaxonalar. Qal'aning janubidagi qazishmalar bu yerning hunarmandchilik mahallasi yoki shahriston vazifasini o'tagan hudud bo'lganini tasdiqladi. Toshbuloq georadar xaritasi asosida bu yerda kamida 5 ta ustaxona borligi aniqlanib, har biri ma'lum bir xil tuzilishga ega bo'lgani, ya'ni uchta xona bilan o'ralgan markaziy hovlidan iborat bo'lgan. O'rta asr ustaxonalari uchun bunday tuzilish shakli boshqa shaharlarda ham qayd etilgan.

Bu yerda ikki ustaxona kompleksi qazilib, har birida ko'plab toshqol va xumdon devorlari parchalari topilgan. Toshqol tahlillari natijalariga ko'ra, bu ustaxonalar temirga ikkilamchi ishlov berish va tayyor mahsulot ishlab chiqarishga mo'ljallangan. Demak, temir xom ashyosini eritib, boyitish kabi birlamchi ishlov berish shaharchadan tashqarida amalga oshirilgan. Ushbu ustaxonalarning temirga ikkilamchi ishlov berishga mo'ljallanganligiga bu yerda qayd etilgan mayda temir uchirindilari, tuproqda mis va kumush miqdori yuqori bo'lgan ustaxona yer yuzasi, eritish xumdonning topilmaganligi dalolat qiladi.

Bundan tashqari ustaxonada temir eritish jarayonida hosil bo'ladigan toshqol parchalari topilmagan. Ustaxonadagi xumdon yonida sopoldan yasalgan ingichka quvur topilgan bo'lib, bu yerda metallarni qizdirib, ularga ishlov berish ishlari bajarilgani aniqlangan. Qazishma jarayonida qo'lga kiritilgan tangalar X asr o'rtasidan – XI asr boshigacha bo'lgan davr bilan sanalashtirilib, ular orasida hatto Xorazmda zarb qilingan tanga bor. Bu esa Toshbuloq aholisining, shu jumladan, ustaxonalarda ishlovchilarning mintaqa bo'ylab ayirboshlashda qatnashganini ko'rsatadi.

*Qabriston.* Toshbuloqda olib borilgan magnitometrik qidiruv ishlari natijasida yer ostida bir necha qator bo'ylab qazilgan kamida 300 ta 1x2 m o'lchamli to'rtburchak o'ralar tizimi aniqlangan. O'ralar bir necha parallel qator shaklida shaharchadan g'arbdagi qiyalikda o'rin olgan. Qazishmalar jarayonida bu o'ralarning qadimiy qabrlar bo'lgani va magnitometrik xarita tashqarisida ham davom etgani, shuningdek, bu yerda kamida 600–700 ta qabrning mavjudligi qayd etilgan. Qabristondagi maqsadli qazishmalarda turli yosh guruhlari va ikki jins vakillarining islomiy ko'mish udumlariga ko'ra qo'yilgani aniqlanib, qabrlar qutisimon va lahadli o'laroq ikki guruhga ajraladi. O'liklar yonida "sovg'alar" qo'yilishi odatga ko'ra qayd etilmagan (bir qabr istisno).

Mazkur qabriston Toshbuloqda musulmonlar yashaganini ko'rsatuvchi eng ko'zga tashlangan dalildir. Shuning bilan birga, O'rta Osiyo tog'li tegrasida islom dinining eng qadimgi isbotidir. Inson suyaklaridan olingan kollagenning radiouglerod sanalashtirilishiga ko'ra, qabriston VIII asr o'rtasidan – X asr o'rtasigacha uzluksiz faoliyat ko'rsatgan. Qabristondan uzluksiz foydalanilganiga qabrlarning tartibli parallel qatorlar bo'ylab qo'yilgani dalil bo'la oladi. Bu yerda qabr usti ishoratlar bo'lmasa-da, qabrlar bir-birining ustiga chiqib ketmagan yoki orasida o'ta katta masofa tashlab ketilmagan. Bu esa Toshbuloqda islom odatlarini bajaradigan maxsus insonning faoliyat ko'rsatganini aytish mumkin.

Bunday uzoq davr davomida nasllar o'rtasida bilimlarning uzatilishi Toshbuloqni vaqtinchalik istiqomat qilish qishlog'i emas, balki to'laqonli urbanistik markaz bo'lganini ko'rsatadi.

*Sopol buyumlar.* Toshbuloqda qo'lga kiritilgan moddiy artefaktlar shaharchadagi qazilgan qismlarning funksional vazifasiga shaharchani rejalashtirgan, qurgan va saqlaganlarning identikligiga oydinlik kiritadi. Bu yerda qazib olingan sopol buyum qoldiqlari yig'indisi 511 kg ni tashkil etib, Toshbuloq bo'ylab 10 ta stratigrafik madaniy qatlamdan kelib chiqadi. Sopol buyumlarning 94% qo'lda yasalgan bo'lib, faqat 6% charxda yasalgan.

Qo'lda yasalgan sopol idishlarning 69% ko'za va qozonlardan iborat bo'lsa, 22% bo'yoqli idishlardir. Qo'lda yasalgan bo'yoqli sopol turi IX – XII asrlarga tegishli voha shaharlarida kamdan-kam holatda uchrab, qoidaga ko'ra Qoraxoniylar davri tog'li ko'chmanchi jamoalariga tegishliligi ta'kidlanadi.

Toshbuloqdagi charxda yasalgan sopollar ko'proq sirsiz idishlardan iborat bo'lib (4%), faqatgina 2% bu yerga tashqaridan keltirilgan (import qilingan) sirli idishlardan (likopcha, kosacha, piyola, shamchiroq) iborat. Bunday idishlar o'rta asrlarda odatda yirik voha shaharlarida (Afrosiyob, Axsiket va boshqalar) yasalgan. Toshbuloq arkida qo'lga kiritilgan sopol idishlarning ko'pchiligi qo'lda yasalgan bo'yoqli idishlar bo'lib, shu bilan birga, bo'yoqli o'yinchoqlar (zoomorfik, odatda ot va o'rdak shakllari) ham topilgan.

Toshbuloq arkidagi saroy qazishmalarida qo'lga kiritilgan chet (import) mahsulotlari kumush uzuk, shisha munchoqlar, sirlangan chiroqlar va hokazolardan iborat bo'lib, bu yerda zodagon tabaqa istiqomat qilganini ko'rsatadi.

Ustaxona qazishmalarida topilgan to'rt tanga farqli davrlarga tegishli madaniy qatlamlardan kelib chiqadi. Tangalar 977 – 1420-yillar davrini qamrab O'rta Osiyo turli mintaqalarida zarb qilingan.

Toshbuloqda olib borilgan arxeobotanik izlanishlar shuni ko'rsatadiki, shaharchada turli donlar (boshqali ekinlar, dukkalkilar, mevalar va yong'oqlar) iste'mol qilingan. Yodgorlikda qo'lga kiritilgan ko'plab meva va yong'oqlarning qoldiqlari bunchalik yuksak tegrada yetishtirilmaydi. Chunki bu yerning iqlim ko'rsatkichlari to'g'ri kelmaydi (quyosh va issiqning ozligi, havoning sovuqligi va hokazo). Misol uchun, bugungi kunda jiyda turlari qurg'oq pasttekisliklarda, yong'oqlar esa tog' oldi tegralarida o'sadi. Bu meva va yong'oqlarning Toshbuloqda topilishi ularning bu yerga kamida 50 – 100 km masofadan quyi yuksakliklardan olib kelinganini ko'rsatadi.

Toshbuloq qazishmalarida topilgan hayvon suyagi kollageni uglerod va azot izotoplari ko'rsatkichlari tahliliga ko'ra, bu yerda qoldig'i topilgan qo'y va echkilar shu tevarakda boqilgan. Yirik muguzli hayvonlar ham shu yerda boqilgan, biroq ularning ayrimlari yuqori izotop ko'rsatkichga ega bo'lgani uchun qurg'oq pasttekisliklardan keltirilgani taxmin qilinishi mumkin. Toshbuloqdan tashqaridan keltirilgan hayvonlar ichida ikki tuya suyagi ham bor.

Toshbuloq arkining tarixi o'sha davrdagi O'rta Osiyo va Eron me'morchiligi namunalari bilan yaxshi taqqoslanadi. Ular ichida Afrosiyobning (eski Samarqand) arki alohida o'rin tutadi.

*Xulosa.* Qoraxoniylar imperiyasi Farg'ona vodiysi kabi o'troq vohalarda o'z siyosiy-iqtisodiy strategiyasini zarbxonalar orqali amalga oshirgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Qoraxoniylar shaharsozlik faoliyatida faqat voha markazlarini emas, balki tog'li hududlardagi strategik ahamiyatga ega joylarni ham tanlagan. Toshbuloq va Tug'unbuloq yodgorliklari misolida bu shaharlar rejali qurilishga, turli funksional zonalarga ega bo'lgan, savdo va ishlab chiqarish markazlari sifatida faoliyat yuritgan. Bundan tashqari, qabrlar, sopol buyumlar, ustaxonalar va boshqa topilmalar orqali bu hududlarda moddiy madaniyati boy aholi yashagani va keng mintaqaviy aloqalarning mavjud bo'lgani aniqlangan. GAT texnologiyasining qo'llanishi esa tarixiy manbalarni makon asosida tahlil qilishda muhim vosita sifatida xizmat qilgan. Bu tadqiqot

Qoraxoniylar siyosiy iqtisodiy strategiyasining tog‘li va vohali hududlarda qanday farqlanganini ochib berib, ularning ko‘p qirrali boshqaruv modelini yoritishga hissa qo‘shadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Бартольд В. В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия / Сочинения. Том 1. М.: Восточной литературы, 1963. С. 222.
- Горбунова Н. Г. Итоги исследования археологических памятников Ферганской области (к истории культуры Ферганы) // Советская археология. М.: Наука, 1979. Выпуск 3. С. 33.
- Кочнев Б. Д. Ванкат – новый Ферганский монетный двор // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар. 2-жилд. Тошкент: Абдулла Қодирий халқ мероси нашриёти, 2001. С. 94.
- Кочнев Б. Д. Нумизматическая история Караханидского каганата (991–1209). Часть 1. Источниковедческое исследование. Москва: София, 2006. 149 с.
- Berry P. A. M., Garlick J. D., Smith R. G. Near-global validation of the SRTM DEM using satellite radar altimetry // Remote Sensing of Environment. 2007. 106. Pp. 17–27 ArcGIS for Desktop, Spatial Analysis (ESRI) // URL: [www.esri.com/software/arcgis/arcgis-for-desktop/future.html](http://www.esri.com/software/arcgis/arcgis-for-desktop/future.html), маълумот олинган сана – 12 март, 2025 йил.
- Global Land Cover Facility, Earth Science Data Interface (GLCF) // URL: [ww.glcfsapp.glcfs.umd.edu:8080/esdi](http://ww.glcfsapp.glcfs.umd.edu:8080/esdi); маълумот олинган сана – 12 март, 2025 йил;
- Shuttle Radar Topography Mission (SRTM) – “Finished”. United States Geological Survey (USGS) // URL: [www.eros.usgs.gov/#/Find\\_Data/Products\\_and\\_Data\\_Available/SRTM](http://www.eros.usgs.gov/#/Find_Data/Products_and_Data_Available/SRTM); маълумот олинган сана – 12 март, 2025 йил.
- JPL (2008). SRTM (Shuttle Radar Topography Mission). Jet Propulsion Laboratory, California Institute of Technology, USA // URL: <http://www2.jpl.nasa.gov/srtm>; маълумот олинган сана – 12 март, 2025 йил.
- The Premier Online Resource for GIS and Geospatial Data, GIS Data Depot (GeoCommunity) // URL: [www.data.geocomm.com](http://www.data.geocomm.com); маълумот олинган сана – 12 март, 2025 йил.

#### REFERENCES:

- Berry P. A. M., Garlick J. D., Smith R. G. 2007. *Near-global validation of the SRTM DEM using satellite radar altimetry*. In *Remote Sensing of Environment*. Issue 106. 17–27. (In English).
- Bartol'd V. V. 1963. *Turkestan v ehpokhu mongol'skogo nashestviya (Turkestan during the Mongol invasion)*. In *Sochineniya*. Vol. 1. Moscow: Vostochnoj literatury Publ., 222. (In Russian).
- Gorbunova N.G. 1979. *Itogi issledovaniya arkheologicheskikh pamyatnikov Ferganskoj oblasti (k istorii kul'tury Fergany) (Results of the study of archaeological monuments of the Fergana region (to the history of the culture of Fergana))*. In *Sovetskaya arkheologiya*. Moscow: Nauka Publ., Issue 3. 33. (In Russian).
- Kochnev B. D. 2001. *Vankat – novyj Ferganskij monetnyj dvor (Vankat – the new Fergana Mint)*. In *Uzbekistonda arkheologik tadqiqotlar. 2-zhild*. Toshkent: Abdulla Qodirij xalq merosi nashriyoti Publ., 94. (In Russian).
- Kochnev B. D. 2006. *Numizmaticheskaya istoriya Karakhanidskogo kaganata (991–1209) (Numismatic history of the Karakhanid Khaganate (991–1209))*. Part 1. Istochnikovedcheskoe issledovan ie. Moscow: Sofiya Publ., 149. (In Russian).
- ArcGIS for Desktop, Spatial Analysis (ESRI). URL: [www.esri.com/software/arcgis/arcgis-for-desktop/future.html](http://www.esri.com/software/arcgis/arcgis-for-desktop/future.html), date of information – March 12, 2025. (In English).
- Global Land Cover Facility, Earth Science Data Interface (GLCF) // URL: [ww.glcfsapp.glcfs.umd.edu:8080/esdi](http://ww.glcfsapp.glcfs.umd.edu:8080/esdi); date of information – March 12, 2025. (In English).
- Shuttle Radar Topography Mission (SRTM) – “Finished”. United States Geological Survey (USGS). URL: [www.eros.usgs.gov/#/Find\\_Data/Products\\_and\\_Data\\_Available/SRTM](http://www.eros.usgs.gov/#/Find_Data/Products_and_Data_Available/SRTM); date of information - March 12, 2025. (In English).
- JPL (2008). SRTM (Shuttle Radar Topography Mission). Jet Propulsion Laboratory, California Institute of Technology, USA. URL: <http://www2.jpl.nasa.gov/srtm>; date of information – March 12, 2025. (In English).
- The Premier Online Resource for GIS and Geospatial Data, GIS Data Depot (GeoCommunity). URL: [www.data.geocomm.com](http://www.data.geocomm.com); date of information – March 12, 2025. (In English).

## **KARAKHANID GOVERNANCE STRATEGIES IN THE SEDENTARY OASES OF WESTERN TURKESTAN**

© 2025. Farkhad Maksudov

*National Center of Archaeology Uzbekistan Academy of Sciences*

---

**Keywords:** Karakhanids, Fergana Valley, administrative centers, GIS, urban planning, Tashbulak, numismatics, highland urbanism, Turkic peoples, 10<sup>th</sup>–12<sup>th</sup> centuries.

This article presents an in-depth analysis of the Karakhanid Empire's political and economic strategy in the Fergana Valley (10<sup>th</sup>–12<sup>th</sup> centuries) and the formation of its administrative centers based on archaeological, numismatic, and written sources. The main focus is on the geographical locations of cities with minting facilities established by the Karakhanids (Akhsikent, Koson, Margilan, Vankat, Chunket, etc.), the factors influencing their selection, and their functional roles. The study applies Geographic Information System (GIS) technologies to analyze topography, azimuth, slope, and visual control. Special emphasis is placed on archaeological excavations in mountainous areas such as Tashbulak and Tugunbulak, where planned, fortified, multifunctional urban centers were discovered at high elevations. These sites featured craft districts, cemeteries, palatial structures, evidence of agriculture, and active trade networks. The research findings highlight the Karakhanid Empire's integrated model of political-economic management between plains and mountainous regions and offer a scholarly basis for understanding their regional strategic approach.

## SUG'DNING IX–XIII ASR QISHLOQLARI: LOKALIZATSIYASI VA IQTISODIY O'RNI

© 2025. **Abduvali Aslanov**

*Yahyo G'ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti*

---

**Kalit so'zlar:** Sug'd, Samarqand, Somoniylar, Qoraxoniylar, arab-fors manbalari, qishloqlar, lokalizatsiya.

Maqola IX–XIII asrlarda Markaziy Sug'd mintaqasidagi qishloqlarning rivojlanishi, ularning geografik joylashuvi, xo'jalik tizimi, ijtimoiy tuzilishi va madaniy hayotini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot Somoniylar va Qoraxoniylar davriga oid arab-fors yozma manbalari va arxeologik topilmalar asosida olib borilgan. Xususan, qishloqlarni tarixiy manbalardagi nomlar, masofalar va zamonaviy toponimik tahlillar yordamida topografik lokalizatsiya qilish metodlari qo'llanilgan. Unda Sug'd qishloqlarining Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi taraqqiyotidagi o'rni alohida ta'kidlanadi. Ular Somoniylar va Qoraxoniylar davlatlari agrar asosidagi iqtisodiyotini ta'minlovchi muhim tarkibiy qism sifatida namoyon bo'lgan. Shuningdek, ushbu tadqiqot orqali IX–XIII asrlardagi Movarounnahr mintaqasidagi qishloq turmushi va iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlar yuzasidan chuqur xulosalar chiqarish imkoni yaratiladi.

Arxeologik qazishma materiallari va topografik ma'lumotlar yuqorida keltirilgan usullarga qo'shib, o'rta asrda «qishloq» tushunchasining shakli, boshqaruv tizimi va iqtisodiy bazasi haqida chuqurroq ma'lumotlar beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Sug'd qishloqlari rivojlangan sug'orish tizimlari orqali dehqonchilik, bog'dorchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan; hunarmandchilik va mato to'qish iqtisodiy hayotda muhim o'rin tutgan. Qishloqlar shaharlarga oziq-ovqat etkazgan va Ipak yo'li bo'ylab o'tgan savdo yo'llariga yaqin joylashgani tufayli mintaqaviy savdo-sotiq va madaniy almashinuvda faol ishtirok etgan. Ilmiy nuqtai nazaridan maqola Sug'd qishloqlarining Markaziy Osiyo tarixidagi o'rnini aniqlashga va ularning iqtisodiy-madaniy rivojlanishdagi rolini ochib berishga xizmat qiladi.

---

## СЕЛЬСКИЕ НАСЕЛЁННЫЕ ПУНКТЫ IX–XIII ВЕКОВ: ЛОКАЛИЗАЦИЯ И ЭКОНОМИЧЕСКАЯ РОЛЬ

© 2025. **Абдували Асланов**

*Самаркандский институт археологии имени Я. Гулямова*

---

**Ключевые слова:** Согд, Самарканд, Саманиды, Караханиды, арабо-персидские источники, сельские поселения, локализация.

Статья посвящена исследованию развития сельских поселений в Центральном Согде в IX–XIII веках, их географического расположения, хозяйственной системы, социальной структуры и культурной жизни. Исследование основано на арабо-персидских письменных источниках и археологических материалах, относящихся к эпохам Саманидов и Караханидов. Особое внимание уделено методам топографической локализации поселений на основе исторических названий, расстояний и современных топонимических анализов. Особо подчеркивается роль согдийских поселений и развитии цивилизации Центральной Азии. Они рассматриваются как важная составная часть аграрной экономики государств Саманидов и Караханидов. Исследование предоставляет возможность для глубокого анализа сельской жизни и социально-экономических процессов в Мавераннахре в IX–XIII веках.

Археологические материалы раскопок и топографические данные, дополняя вышеуказанные методы, предоставляют более глубокую информацию о форме средневекового понятия «село», её системе управления и экономической основе. Результаты показывают, что сельские поселения Согда развивались на основе ирригационных систем и занимались земледелием, садоводством и скотоводством; ремесла, включая ткачество, занимали важное место в экономике. Благодаря близости к городам и торговым путям Великого шелкового пути, деревни активно участвовали в региональной торговле и культурном обмене. С научной точки зрения статья вносит вклад в уточнение роли согдийских поселений в истории Центральной Азии и раскрывает их значение в экономическом и культурном развитии региона.

### **Kirish.**

Markaziy Sug'ddagi o'rta asr qishloqlarini har tomonlama o'rganish tarixiy nuqtai nazardan nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, bu tadqiqotlar natijasida nafaqat mintaqa tarixini, balki Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarini ham chuqurroq anglab olish imkoni yuzaga keladi. Shu bilan birga, arxeologik, etnologik va tarixiy manbalarni ilmiy tarzda tahlil qilish orqali o'sha davr kishilarining turmush tarzi, ekologik sharoitga moslashuvi, etnik-diniy muhiti hamda mintaqaning savdo munosabatlaridagi o'rni haqida boy ma'lumotlar olish mumkin.

Markaziy Sug'd vodiysi, xususan Zarafshon daryosining o'rta oqimi, dehqonchilik uchun juda qulay sharoitlarga ega bo'lib, bu mintaqaning unumdor erlari kanallar, ariqlar va korizlar kabi irrigatsiya tarmoqlari orqali sug'orib turilgan. Bu yerlarda don, sabzavot, poliz mahsulotlari, katta hududlardagi bog'-rog'larda uzum hamda turli-tuman mevalar etishtirilgan. Shu sababli, qishloqlar shahar markazlari uchun asosiy oziq-ovqat ta'minlash maskani sifatida xizmat qilgan.

Sug'd qishloqlarida dehqonchilik bilan bir qatorda qo'nehilik, kulolchilik, to'qimachilik, ohak tayyorlash, temirchilik singari bir qancha hunarmandchilik sohalari ham rivojlangan. Bu mahsulotlar shahar bozorlariga etkazib berilgani sabab, shaharlar va qishloqlar iqtisodiy aloqalar orqali chambarchas bog'liq bo'lgan. Ayniqsa, qishloqlar Ipak yo'li orqali o'tuvchi savdo karvonlarini oziq-ovqat bilan ta'minlab turgani ularning mintaqaviy savdo-sotiqdagi ahamiyatini oshirgan.

O'rta asrlarda qishloqlar mahalliy boshqaruv tizimining eng asosiy bo'g'ini sifatida e'tirof etilgan. Ular orqali soliq yig'ish, qishloq xo'jaligi siyosatini hayotga tatbiq etish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Ayrim qishloqlar esa strategik joylashuvi bois harbiy-logistika vazifalarini bajarib, qal'a yoki mudofaa nuqtasi sifatida ham faoliyat yuritgan.

Shu tarzda, Markaziy Sug'd mintaqasidagi qishloqlar siyosiy barqarorlikka ham xizmat qilib, markaziy hokimiyat bilan aholi o'rtasida "ko'priq" bo'lgan. Markaziy Sug'dda islom dini bilan bir qatorda, zardushtiylik va nasroniylik ham ma'lum darajada saqlanib qolgan.

Arxeologik topilmalar (qabristonlar, ibodatxonalar, uy-joylar qoldiqlari) orqali qishloq aholisining diniy e'tiqodlari, marosimlari, hayot tarzi haqida ishonchli dalillar olish mumkin. Shu bois bu hududlar Markaziy Osiyo mintaqasidagi dinlararo munosabatlarni o'rganish uchun ham muhim manba vazifasini o'taydi. Qishloqlar Ipak yo'lining muhim qismi bo'lib, mintaqaviy va xalqaro savdo jarayonlarida faol ishtirok etgan. Savdo karvonlari yo'lining mavjudligi aholi migratsiyasini ham rag'batlantirgan: bir tomondan, tashqi bozorlarga chiquvchi savdogarlar, hunarmandlar uchun imkoniyatlar kengaygan bo'lsa, ikkinchi tomondan, madaniy aloqalar ham kuchaygan.

Arxeologik tadqiqotlar, to'plangan bioarxeologik materiallar Markaziy Sug'd qishloqlari aholisining iqlim o'zgarishlariga qanday moslashganini, suv resurslarini qanday tarzda boshqarganini ko'rsatib beradi. Irrigatsiya tizimidagi o'zgarishlar, bu tizimning aniq vaqtlar davomida kengayishi yoki tanazzulga uchrashi – barchasi tarixiy davrlarda aholining turmush tarzi, iqtisodiy sharoitlar bilan bog'langan.

Markaziy Sug'd qishloqlarini arxeologik va etnografik jihatdan har tomonlama o'rganish orqali biz nafaqat mintaqa tarixini aniqroq tasavvur qilamiz, hamda butun Markaziy Osiyo sivilizatsiya jarayonlarini ham chuqurroq tushunamiz. Qishloqlar mahalliy boshqaruv tizimida muhim bo'g'in vazifasini bajargani, oziq-ovqat ta'minotida hal qiluvchi o'rin tutgani, xunarmandchilik va savdoda muhim rol o'ynagani ularning o'rta asrlar tarixida qanday ahamiyat kasb etganini yaqqol ko'rsatadi.

Shuningdek, bu izlanishlar mintaqaning boy madaniy merosini aniqlash, saqlash va uning jahon tamaddunida tutgan o'rini belgilashda ham muhim ahamiyatga ega. Markaziy Sug'ddagi o'rta asr qishloqlarini ilmiy jihatdan chuqur tadqiq qilish orqali biz Markaziy Osiyo tarixini yanada keng qamrovli, har tomonlama batafsil ta'riflash imkoniyatiga ega bo'lamiz.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur tadqiqot IX–XIII asrlarda Sug'd mintaqasidagi qishloqlarning lokalizatsiya masalalari va ularning iqtisodiy-ijtimoiy rolini o'rganishga qaratilgan bo'lib, tarixiy-tahliliy va kompleks yondashuv asosida amalga oshirildi.

Ushbu tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

Tarixiy tahlil usuli – yozma manbalardagi ma'lumotlar xronologik va kontekstual jihatdan o'rganildi;

Manbashunoslik tahlili – arab va fors mualliflarining asarlari (al-Istaxriy, Ibn Xavqal, al-Muqaddasiy, Yaqut al-Hamaviy, Sam'oniy va boshqalar) mazmunan tahlil qilindi;

Toponimik tahlil – o'rta asrdagi joy nomlari hozirgi geografik tuzilma bilan taqqoslandi va qishloqlarning ehtimoliy joylashuvi aniqlandi;

Arxeologik ma'lumotlar tahlili – qazilma joylar, turar-joylar va hunarmandchilik markazlari orqali qishloq turmushi tiklandi;

Tadqiqotda birlamchi yozma manbalar, arxeologik materiallar, shuningdek, zamonaviy tarixiy-geografik va arxeologik tadqiqotlar asos qilib olindi. Manbalar tanlovida ularning asl nusxalari va eng ishonchli ilmiy tahrirlari afzal ko'rildi.

Tahlil jarayonida qishloq va shahar atamalarining o'ziga xos belgilarini farqlash, aholi miqdori, iqtisodiy faoliyat turlari, siyosiy maqomi va infratuzilmasini aniqlash asosiy mezon bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, sug'orish tizimlari, karvon yo'llariga yaqinlik, xom ashyo ta'minoti va hunarmandchilik markazlariga integratsiya darajasi kabi omillar ham e'tiborga olindi.

Metodologik yondashuv Sug'd qishloqlarining lokalizatsiyasini aniqlash, ularning iqtisodiy vazifalari va ijtimoiy tuzilmasini baholashda muhim vosita bo'lib xizmat qildi. Tadqiqot natijalari orqali Sug'd qishloqlarining Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida tutgan o'rni kengroq va asosli ravishda yoritildi.

*Manbalarda qishloq tushunchasiga ta'rif.* O'rta asr arab-fors manbalarida qishloq atamasi ostida qanday aholi manzilgohlarini nazarda tutgan, ular shahar yoki kichikroq shaharlarni qishloqdan qanday ajratgan degan savolga javob berish kerak. Arab-fors yozma manbalarida qishloq va shahar tushunchalari aniq farqlangan bo'lib, har bir atamaning o'z o'lvohlari va belgilar bo'yicha ta'rifi berilgan. Ushbu manbalar qishloqni asosan iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ta'riflab, uni shahardan farqli ravishda ko'rsatganlar.

*Qishloq tushunchasi.* Arab-fors manbalarda «qariya» (قَرْيَة — qariya) atamasi qishloqni anglatib, asosan quyidagi xususiyatlarga ega aholi punkti sifatida tasvirlangan. Qishloqlar sug'oriladigan erlar yoki dashtlar yaqinida joylashgan bo'lib, aholisi dehqonchilik, bog'dorchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Qishloqlar kichik aholi punkti bo'lib, odatda, ular bir necha o'ntadan bir necha yuzlab xonadonlarga qadar iborat bo'lgan. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, qishloqlarda bozorlar yoki katta diniy inshootlar kam uchragan.

Qishloqlarni mahalliy boshliqlar yoki «rais»lar boshqargan, ammo ular mustaqil siyosiy hokimiyatga ega bo'lmagan. Davlat tomonidan tayinlangan soliq yig'uvchilar qishloq iqtisodiyotini nazorat qilgan.

*Shahar (مَدِينَة – madina) tushunchasi.* Arab-fors manbalarda shaharni tasvirlashda asosan quyidagi jihatlar ta'kidlangan:

Shaharlarda hokimiyat boshqaruvi markazlari, bozorlar, masjidlar va ma'muriy binolar bo'lgan. Ular ma'lum mintaqaning siyosiy va iqtisodiy markazlari sifatida faoliyat yuritganlar.

Shaharlar ko'pincha mudofaa devorlari bilan o'ralgan bo'lib, mustahkam himoya tizimiga ega bo'lgan. Shuningdek, shaharlarda keng ko'lamlı suv ta'minoti, hammomlar va boshqa ko'plab inshootlar bo'lgan.

Shaharlarda hunarmandlar, savdogarlar, ulamolar, davlat va harbiy amaldorlari, turli sohalarda faoliyat ko'rsatgan hunarmand aholi vakillari yashashgan.

Arab-fors manbalarda qishloq va shahar o'rtasidagi asosiy farq quyidagi mezonlar orqali belgilangan (1-jadval).

Kriteriya (mezon)	Qishloq (qariya)	Shahar (madina)
Aholi miqdori	Kamsonli aholi	Zich va xilma-xil aholi
Iqtisodiy faoliyat	Qishloq xo'jaligi, chorvachilik	Savdo, hunarmandchilik, xizmat ko'rsatish
Siyosiy status	Mahalliy boshqaruv (rais)	Davlat ma'muriyati markazi
Infrastruktura	Sodda turar-joylar, sug'orish tizimi	Tosh yo'llar, bozorlar, masjidlar va boshqalar
Himoya tizimi	Mahalliy hokimlar, amir, marzbon kabi amaldorlar tomonidan himoya	Devorlar, qasrlar, qo'riqchi qo'shinlar

Al-Muqaddasiy o'z asarlarida shaharlarni markazlashgan ma'muriy va iqtisodiy markazlar sifatida ta'riflagan, qishloqlarni esa «o'zining erlari va obod dehqonchiligi bilan mashhur joylar» deb ta'kidlagan. Al-Istaxriy qishloqlarni yirik sug'oriladigan hududlarda joylashgan, erga bog'liq aholi punkti sifatida tasvirlagan. Uning ma'lumotlariga ko'ra, ba'zi qishloqlar juda katta bo'lib, ba'zilarining aholisi shaharlar aholisidan ham ko'proq bo'lgan. Ibn Xavqal esa shaharlarning bozorlari va savdo yo'llari bilan bog'liqligini ta'kidlagan va qishloqlarni asosan qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan aholi punkti sifatida ko'rsatgan.

Arab-fors yozma manbalari tahlili qishloqlar asosan qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan aholi punktlari sifatida tasvirlangan va ular shaharlarga qaraganda ijtimoiy va siyosiy jihatdan kamroq rivojlanganligini ko'ramiz. Qishloq va shahar o'rtasidagi farqni ularning iqtisodiy funksiyalari, boshqaruv tizimi va infrastrukturasi belgilagan.

Samarqand va uning atrofidagi ko'plab shahar va qishloqlar Somoniylar davrida ham Qoraxoniylar davrida ham o'zining madaniy, siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy mavqeini yo'qotmagan. Markaziy Sug'dning ijtimoiy-siyosiy hayotida katta ijobiy o'zgarishlar Somoniylar davridayoq boshlangan bo'lsada, mazkur jarayonlar Qoraxoniylar davrida ham davom etgan. O'zgarishlarga Somoniylar davridagi kuchli markazlashtirish tendensiyasi va Qoraxoniylar davlati davridagi markazdan qochish tendensiyasi ham aks ta'sir etmagan. Arxeologiya ma'lumotlariga ko'ra, XI-XII asrlarda Movarounnahr shaharlari IX-X asrlardagiga nisbatan ancha tez rivojlangan. Shunga muvofiq tarzda iqtisodiy baza va savdo-sotiq ham kuchaygan.

*Manbalar tahlili.* Markaziy Sug'dning IX-XIII asr qishloqlari xaqida bir nechta manbalar mavjud. Ular orasida al-Istaxriy bergan ma'lumotlar diqqatga sazovor. Muallifning "Kitab al-Masalik val-Mamalik" asarida qiziqarli ma'lumotlar uchraydi: "Samarqand Sug'di biz aytgan eng obod uchta joyning biridir. Gullab-yashnagan Sug'd vodiysi Buxorodan Buttam chegarasigacha o'ng va so'l tomondan uzluksiz tutashib ketgan. U yashil bog'lari bir-biriga ulashgan sakkiz kunlik masofadagi ko'kalamzor maydonlardan iboratdir. Doimiy oqib turuvchi daryolar bilan o'ralgan. Bog'lar va maydonlarida hovuzlari bor. Yam-yashil daraxtzor va ekinzorlari vodiyning ikki tarafi bo'ylab davom etadi. Ularning ortini dalalar to'ldiradi. Ulardan keyin chorva yaylovlari boshlanadi. Ko'kalamzorlar qurshovidagi har bir shahar va qal'a yashil ipak ko'ylak kabi yashnab turadi. Bu joy anhorlar o'zani bo'ylab chok tortilgan va mustahkam qasrlar bilan bezatilgan, Allohning daraxtlariva anvoyi gullari bilan ziynatlangan o'lkadir. Barcha manzilida bog'lar, hovuzlar va oqar suvi bor" (Istaxriy 2019: 134-135)

Ibn Xavqal o'zining "Kitob surat al-ard" geografik asarida ham Samarqand Sug'dining o'z davridagi tabiati xususida ma'lumotlar keltirib o'tgan: "Samarqand Sug'dida esa, biz u erda biror bir er yoki shaharni bilmaymizki, agar odam uning qo'handiziga chiqsa, uning nazari daraxtlardan holi bo'lgan tog'lar yoki changli sahroga tushsa. Chunki ularning dalalari daraxtlar bilan o'ralgan,

yam-yashillikka burkangan. Abu Usmon aytganki, o‘simliklarning yam-yashilligi orasida joylashgan dalalarning bo‘z ziynatdir. Lekin keng maydonni egallagan bo‘z tuproqqa ishlov berilmagan bo‘lsa, bunday manzara o‘zining go‘zallik xususiyatidan mahrum bo‘ladi, uning hech qanday ziynati qolmaydi, huzur baxshligi yo‘qoladi, sayohatchining nazariga lazzat baxsh etmaydi. Samarqand Sug‘di esa men zikr etgan uchta er, (ya‘ni) Damashq al-G‘utasi va al-Ubulla vodiysi ichida eng gullab yashnaganidir. Fors ahlining aytishicha, u Bavvon darasi kabidir, chunki Buxoro chegarasidan as-Sug‘d vodiysining o‘ng va chap tomonida al-Buttam (tog‘li o‘lkasi) chegarasiga qadar dalalar cho‘zilgan bo‘lib, ularning yam-yashilligi uzluksiz, gullab-yashnashi cheksizdir.

Ular shunchalik ko‘pki, (yo‘lovchi) sakkiz kunlik yo‘l davomida ketma-ket bog‘lar, bo‘stonlar, yaylovlar va daralar orasidan yurib, (uning yo‘li) yaylovlar va dalalar orasidagi suvlari to‘xtovsiz oqib turuvchi anhorlar va hovuzlarning mavjudligidan yana ham engillashadi. Daraxtlarning va o‘simliklarning yam-yashilligi daryoning ikkala tomoni bo‘ylab cho‘zilgan, ularning ortida ekinzorlar (joylashgan), ekinzorlar ortida esa ularni guyo qo‘riqlab turgandek podalarga (boy) yaylovlar, qasrlar va yam-yashilliklar orasida charaqlab turgan har bir shahar va qishloqning qal‘alari (joylashgan) bo‘lib, guyo suv yo‘llari yashil ipak mato ustidan quyib yuborilgandek va qasrlar bilan bezatilgandek. (as-Sug‘d) Allohning eng toza, eng daraxtlari ko‘p, eng farovon va eng mevalarga boy o‘lkasidir. Uning barcha aholi maskanlari borlar, hovuzlar va oqar suvlar bilan zich o‘ralgan. U erda biror bir ko‘cha, mahalla, bozor, tuman, qasr yoki shahar yo‘qki, unda oqar suv yoki sokin (suvli) hovuz bo‘lmasa” (Ibn Havqal 2011: 28).

Ibn Xurdodbehning qalamiga mansub «Kitob al-Masolik va al-Mamalik» asarida Sug‘d yo‘llari va qishloqlari haqida ma‘lumotlar bor: “Samarqand atrofida daryolar va obi-hayot manbalari mavjud bo‘lib, bu hududning hosildorligini oshiradi. Sug‘d vodiysidagi daryolar va manbalar shaharning qishloq xo‘jaligi va obodonchiligida katta ahamiyat kasb etgan. Samarkand hududida ko‘plab bog‘lar va yashil hududlar mavjud bo‘lib, bu shaharni yanada go‘zal va yashashga qulay qilgan” (Ibn Xordadbex 1988: 134). Al-Muqaddasiyning qalamiga mansub «Ahsan at-taqasim fi ma‘rifat al-aqalim» asarida Sug‘d viloyatining aholisi va qishloqlari haqida yozgan: “Sug‘d viloyatning poytaxti Samarqand shahri. Bu mintaqaning eng katta shahri. Samarqandda o‘n ikkita qishloq tumani (rustaq) bor. Ulardan oltitasi janubda joylashgan, xususan Bunjikas, Varag‘sar, Maymurg‘, Sanjarfag‘an, Darg‘om va Afshar. Shimoliy hududlar, jumladan, Yarkas shahri, bular Burnamas, Buzmajon, Kabudanjakas, Vizar va Marzban ” (Ciner 2018: 225)

Al-Mukaddasiy Samarqandning hosildor erlari va daryolarga yaqin joylashuvini ta‘riflaydi. U shahar atrofida bog‘lar va tokzorlar ko‘pligini, bu esa shaharning iqtisodiy rivojiga katta hissa qo‘shganini ta‘kidlaydi (al-Muqaddasi 1875: 200–210). Shuningdek, Yaqut al-Hamaviyning “Mu‘jam al-buldon” asarida Sug‘d qishloqlarining toponimikasi haqida batafsil yozgan. Masalan – Samarqanddan 7 farsax masofada joylashgan Zarmon nomli kichik qishloq bor. Bu qishloq boshqa manbalarda ham tilga olingan (Yakut 1875: 176–179).

Yuqorida nomlari sanab o‘tilgan birlamchi yozma manbalar orqali X–XIII asr boshlarida Samarqand atrofida joylashgan ko‘plab katta kichik qishloqlarning tabiati, sug‘orilishi va dehqonchiligi xaqidagi ma‘lumotlarga ega bo‘lamiz.

### **Munozara va muhokama. Markaziy Sug‘ddagi qishloqlar geografiyasi va tarixiy ahamiyati.**

Arab-fors muallifalari bergan joy nomlari, ularning masofasi va hozirgi toponomik ma‘lumotlar asosida o‘rta asr qishloqlarining lokalizatsiya qilish mumkin. Mualliflar ma‘lum bir viloyat, shahar va rustaq xaqida ma‘lumot berish asnosida shu joy atrofidagi qishloq erlari xaqida ham to‘xtalib o‘tishgan. Biz aynan shu ma‘lumotlar orasidan Sug‘d qishloqlari joylashuvini aniqlashimiz mumkin. Markaziy Sug‘d shaharlari va qishloqlari to‘g‘risida boshqa mualliflarga qaraganda mufassalroq

ma'lumotlar bergan Yoqut al-Hamaviy, Abdulkarim Sam'oniylar va Abu Xafs an-Nasafiylarning ma'lumotlari asosida ayrim qishloqlarni alohida lokalizatsiyasi qilish mumkin (2-jadval).

Qishloq nomi	Masofasi	Manbalar	Hozirdagi o'rni
Bikas	Samarqanddan 4 farsah.	An-Nasafiy	Ishtixon tumanida
Dahnav	Samarqanddan 3 farsah	An-Nasafiy	Oqdaryo tumanida
Jirad	Samarqanddan 3 farsah. Jirad tog'i yaqinidagi qishloq	An-Nasafiy	Qo'shrobd tumanida
Farankad	Robinjondan 1,5 farsah.	An-Nasafiy	
Furfara	Robinjondan 1,5 farsah.	An-Nasafiy	
Hartank	Samarqanddan 3 farsah masofada.	An-Nasafiy	Payariq tumanida
G'urminova	Moymurg' tumanida, Samarqanddan 2, 3 farsah	An-Nasafiy	Urgut tumanida
Zardo'za	Samarqanddan 4 farsah, Kesh dovoni atrofida	Sam'oniylar va Yoqut al- Hamaviy	Urgut tumanida
Idaj, Iduj	Samarqanddan 3 farsah, Shavdor tog'lari yaqinida	Sam'oniylar va Yoqut al- Hamaviy	Urgut tumanida
Katvon	Samarqanddan 5 farsah.	Sam'oniylar va Yoqut al- Hamaviy	Bulung'ur tumanida
No'va	Samarqanddan 3 farsah, Vidor yaqinida	Sam'oniylar va Yoqut al- Hamaviy	Payariq tumani
Sog'arj	Samarqanddan 5 farsah	Sam'oniylar va Yoqut al- Hamaviy	Ishtixon tumanida
Xushufag'n	Samarqanddan 10 farsah masofada joylashgan	Sam'oniylar va Yoqut al- Hamaviy	Kattaqo'rg'on tumani

Zarafshon vohasi O'rta Osiyoning eng qadimiy sivilizatsiya markazlaridan biri bo'lib, u erda dehqonchilik madaniyati ilk davrlardan boshlab rivojlangan. Musulmon muarrixlari, shuningdek, Xitoy sayyohlari va boshqa ko'hna yozma manbalar orqali biz bu vohadagi iqtisodiy-ijtimoiy hayot, shaharlar va qishloqlar tarhi haqida ma'lum bir tasavvurga ega bo'lamiz.

Rivojlangan o'rta asrlarga oid yozma manbalarda Zarafshon vohasi bo'ylab jami 223 ta qishloq mavjud bo'lgani haqida fikr mavjud. Shulardan 101 tasi Samarqand viloyatida (Markaziy Sug'd) joylashganligi haqidagi ma'lumotni V.V. Bartold qayd etadi (Бартолд 1963: 173–187). Arxeologik tadqiqotlar hamda manbalar tahlilidan kelib chiqib, ba'zi tadqiqotchilar Samarqand viloyati qismida (Zarafshonning o'rta oqimida) mingyilliklar davomida yuzdan ortiq qishloqlar mavjud bo'lgan bo'lganligini ta'kidlaydilar (Asqarov 2015: 412).

Arab sayyohi Ibn Havqal Zarafshon daryosini bir necha kunlik masofa davomida kuzatib, daryo bo'yida joylashgan ayrim shaharlar va mamlakatlar, shuningdek, irrigatsiya tizimlari haqida batafsil yozgan. Unga ko'ra, daryo Samarqanddan ikki kunlik yo'l masofasida qolgach, undan "Fay" deb nomlangan katta kanal chiqib, butun Sug'dda unchalik keng tarmoqlarga ega bo'lgan boshqa biror kanal mavjud emasligini ta'kidlaydi. Ibn Havqal bu erda aholining zichligini, iqtisodiy hayotda dehqonchilik, bog'dorchilik va chorvachilik muhim o'rin tutishini uqtirib o'tadi (Betger 1957: 17).

Abu Hafs an-Nasafiylarning "Al-Qand fi zikr ulamo Samarqand" hamda Abu Sa'd as-Sam'oniylarning "Kitab al-Ansab" asarlari Markaziy Sug'ddagi ayrim qishloqlar haqida batafsilroq ma'lumot beradi. An-Nasafiy Ofarinkent nomini A'frankadiy nisbali olimning tarjimai holini bayon etish asnosida tilga oladi va uni Ishtixon yaqinida joylashgan bir qishloq sifatida atagan. As-Sam'oniylar esa Ofarinkentni

(Farankad yoki Afrankad) Samarqanddan 5 farsax (taxminan 30–35 km) masofada joylashgan deb qayd etadi. “Hudud al-Olam”da esa Ofarinkent (Ofarankent) kichik shaharcha sifatida tilga olinib, u daryo va Ishtixon o‘rtasida joylashgani aytiladi.

“Al-Qand fi zikr ulamo Samarqand” asarining forsiycha nusxasida bu qishloq Samarqanddan 4 farsax (25–28 km) masofada ekani, Sug‘d hukmdori Gurak uni o‘z inisi Afarun uchun barpo etganligi, nomi ham shu shaxs nomidan kelib chiqqanligi aytiladi (Kamoliddin 2014: 89). Ofarinkent VII asrdayoq bunyod etilgan deb taxmin qilinadi. Bu qishloq dehqonchilik, bog‘dorchilik, hunarmandchilik rivojlangan mintaqa sifatida, qolaversa, Buxoro–Samarqand yo‘lida joylashgani uchun iqtisodiy jihatdan ham ahamiyatli bo‘lgan.

Kabudanjakas. Istahriy o‘zining asarida Kabudanjakas rustaqini ham, uning markazini ham “Kabuzanjkat” deb atagan (Istaxriy 2019: 164). Unga ko‘ra, butun rustaq qishloqlar va daraxtzorlar bilan qoplangan bo‘lib, aholining asosiy mashg‘uloti dehqonchilik edi. Ibn Havqal “Kitob surat al-Ard” asarida shu ma‘lumotlarni qaytarib, Kabudanjakatda katta qo‘rg‘on, bog‘lar va sug‘orish tizimi haqida batafsil bahs yuritadi (Ibn Havqal 2011: 63). Zamonaviy tadqiqotchilardan H. G‘. Axunboboev esa Mingtepa massivida joylashgan yirik arxeologik yodgorlik – Qo‘rg‘ontepa aynan shu Kabudanjaket rustaqining markazi bo‘lganini ta’kidlaydi (Ахунбабаев 1990: 26–27).

Ishtixon. Ilk o‘rta asrlardan boshlab Ishtixon Markaziy Sug‘dda shakllangan muhim iqtisodiy, siyosiy va madaniy markazlardan biri bo‘lgan. Ibn Havqal, al-Istaxriy va al-Muqaddasiylar asarlarida Ishtixon xususida juda qiziqarli ma‘lumotlar uchraydi. Xususan, Ibn Havqal “Kitob surat al-Ard”da Ishtixon havosi juda sog‘lom, atrofi bog‘lar, qishloqlar, o‘tloqlar, sayrgohlar va qamishzorlarga boy ekanini ma‘lum qiladi (Ibn Havqal 2011: 207). U butun Sug‘d o‘lkasi deyarli bir xil iqlimga, unumdorlikka, ko‘kalamzor o‘tloqlarga ega ekanini, bu esa dehqonchilik hamda bog‘dorchilikni rivojlantirish imkonini berganini qayd etadi.

Dobusiya. Ibn Havqal ma‘lumotlariga ko‘ra, Dobusiya Zarafshon daryosining janubiy sohilida, Arbinjonga nisbatan kichikroq shahar bo‘lgan (Betger 1957: 27). As-Sam‘oniy va Yoqut al-Hamaviy ma‘lumotlarida Dobusiyadan yarim farsax (taxminan 3–4 km) masofada Qandukin qishlog‘i joylashgani aytiladi (Камалиддинов 1993: 88). Shu atrofda joylashgan yana bir yirik qishloq – Rag‘in ham manbalarda “shahar ko‘rinishidagi katta qishloq” sifatida tasvirlangan (Камалиддинов 1993: 100). Dobusiya harbiy-strategik jihatdan ham muhim bo‘lib, Sug‘dni janubdan kelgan yo‘llar bilan bog‘lagan.

Shavdor. Shavdor yozma manbalarda Varaqsar va Maymurg‘ rustaqlaridan sharqda va janubi-sharqda joylashgan tog‘li hudud sifatida eslatiladi. Abulkarim as-Sam‘oniy malumotiga ko‘ra, Samarqand viloyati tog‘li Shavdor erlarigacha cho‘ziladi. Istahriy ma‘lumotlarida mana shu hududda Vazd (Vizd) qishloqlari tilga olinadi. V. V. Bartold fikricha, ibn Havqal eslab o‘tgan nasroniylar (xristian) qishlog‘i Vazkard aynan shu Shavdor tumani tarkibida bo‘lgan (Бартолд 1963: 145).

Sanjarfag‘n. Al-Istahriy va Ibn Havqal Sanjarfag‘nni nisbatan kichik rustaq deb qayd etishgan (Istaxriy 2019: 162; Ibn Havqal 2011: 61). Al-Muqaddasiy esa “Sanjarfag‘n aholisi zich joylashgan, iqlimi boshqa qishloqlardan ko‘ra yoqimliroq, mevalari shirin, erlari serhosil” deya ta’riflaydi (Ciner 2018: 225). XVI asrga oid vaqf hujjatlarida bu nom “Sanjar Fig‘on” shaklida uchraydi (Мукминова 1966: 254–255). Keyinchalik yozma manbalarda u Zanjirbog‘ sifatida ham zikr etilib, Abbos hamda Karaunas ariqlari oralig‘ida joylashgani ta’kidlangan (Вяткин 1902: 38). V. L. Vyatkin yozishicha, Zanjirbog‘ atamasi “Sanjarfag‘n” atamasining shevalarda o‘zgarib ketgan shakli bo‘lishi mumkin.

Abgor. Abgor rustaqi eski Darg‘om kanalining janubiy qismida, hozirgi Nurobod tumani hududlariga mos kelishi mumkinligi ilmiy adabiyotlarda aytib kelinadi. Manbalarda bu rustaqda sun‘iy sug‘orish tizimlari yaxshi rivojlanmagani, aholining bir qismi lalmikor (yomg‘ir suviga asoslangan) dehqonchilik bilan shug‘ullangani, ko‘pchiligi esa ko‘chmanchi chorvachilikka

ixtisoslashgani yozilgan. Ibn Havqal Abgor rustaqida bir nechta qishloqlar bo'lganligini ekanini ta'kidlaydi (Ibn Havqal 2011: 209). Arxeologik tadqiqotlar ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Ofarinkent. Markaziy Sug'dda bevosita shahar maqomida bo'lmagan, biroq hajmi katta, iqtisodiy ahamiyati yuqori bo'lgan qishloqlar ham mavjud edi. Ulardan biri Ofarinkent (Afrankad) bo'lib, harbiy-strategik jihatdan u Buxoro–Samarqand yo'li bo'yicha muhim tugun vazifasini bajargan. Sug'd ishxidlari tomonidan asos solingan bu maskan VII asrdayoq paydo bo'lib, keyinchalik voha dehqonchiligining markazlaridan biri sifatida rivojlangan.

Kushoniya. Yozma manbalarda "Sug'dning yuragi" deb ta'riflangan Kushoniya ham Markaziy Sug'dda muhim siyosiy-iqtisodiy mavqega ega bo'lgan. Ibn Havqal, Istaxriy va boshqa musulmon muarrixlari asarlarida u alohida tilga olingan. Kushoniya Ishtixon orqali o'tuvchi yo'lda joylashgan bo'lib, bu erdagi bog'lar, qishloqlar va irrigatsiya tizimlari juda taraqqiy etgani, shuningdek, ko'plab karvonlar aynan ushbu maskan orqali o'tgani nazarda tutilgan.

Kushoniya nomining kelib chiqishi borasida bir necha fikrlar mavjud. Ba'zi tadqiqotchilar uni qadimda bu hududda Kushon imperiyasi ta'siri kuchli bo'lgani bilan bog'laydi. Shu bilan birga, bu nom mahalliy onomastika bilan uzviy bog'liq holda, ya'ni qadimiy sug'dcha toponimlardan birining o'zgargan shakli sifatida ham qaralishi mumkin. Har qanday holatda ham, manbalarda Kushoniya aholisi zich joylashgan, dehqonchilik, tokzorchiilik va chorvachilik taraqqiy etgan, shahar arxitekturasi rivojlangan mintaqalardan biri sifatida zikr etiladi.

Musulmon mualliflar Kalyab, Kesh, Romitan, Nasaf (Qarshi) kabi boshqa yirik shaharlar bilan bir qatorda Kushoniyani ham qoziq bo'lgan\* markazlardan biri sifatida ko'rsatadi. Bu erda qishloqlar soni nisbatan ko'p, sersuv vodiylar va bog'lar mavjud bo'lganligi iqtisodiy hayotni yuksaltirgan. Bozorlarida ipak matolar, rezavorlik mahsulotlari, meva-sabzavotlar savdosi yo'lga qo'yilgani haqida ham ayrim ma'lumotlar uchraydi. Shunday qilib, Kushoniya Markaziy Sug'dda dehqonchilik bilan bir qatorda savdo yo'llarini ta'minlovchi muhim tranzit maskan bo'lib xizmat qilgan.

Markaziy Sug'dda urbanizatsiya jarayonlari rivojida faqat shaharlar emas, balki yirik qishloqlar ham iqtisodiy-siyosiy jihatdan katta rol o'ynaganini ko'rsatadi. Ofarinkent, Kabudanjaket, Ishtixon, Dobusiya, Abgor, Shavdor, Sanjarfag'n (Zanjirbog') kabi rustaqlar va qishloqlar o'zining tabiiy-geografik joylashuvi, sug'orish tizimlari va madaniy rivojlanishi bilan ajralib turgan. Ularda dehqonchilik, bog'dorchilik, chorvachilik, hunarmandchilik keng tarqalgan bo'lib, karvon yo'llari aynan shu hududlar orqali ham o'tgan.

Ko'rinib turibdiki, Markaziy Sug'dda tartibli irrigatsiya tizimi mavjud bo'lgan. Shu bois mazkur hududlar nafaqat mintaqaning iqtisodiy hamda siyosiy hayotida, balki ilmiy madaniyatida ham muhim o'rin tutib kelgan. Musulmon manbalari, shuningdek, Xitoy sayyohlari, ilk rus tadqiqotchilari va zamonaviy arxeologiya yutuqlari birgalikda o'sha davr tarixini, shu jumladan Kushoniya kabi muhim maskanlarning asosiy xususiyatlarini qayta tiklash imkonini berib, Markaziy Sug'd tarixining rang-barang tasvirini yaratadi.

### **Sug'd qishloqlarining iqtisodiy o'rni.**

Arxeologik va yozma manbalar tahlili Sug'd qishloqlari ma'lum bir iqtisodiy markazlar atrofida joylashib, shu markazlarning asosiy xom ashyo bazasi bo'lib xizmat qilganiga ishora qiladi.

Markaziy Sug'dning Samarqand, Dabusiya, Bunjikas, Barket, Kabunjaket, Vidor, Kushoniya, Ishtixon, Robinjon va Rivdad kabi urbanistik markazlarida taraqqiy etgan kulolchilik, to'qimachilik, qog'oz ishlab chiqarish, oziq-ovqat ishlab chiqarish, ko'ndchilik, zargarlik, temirchilik, shishasozlik, qurilish materiallari ishlab chiqarish kabi hunarmandchilik yo'nalishlarining asosiy xom-ashyosi voha va tog' tegralari qishloq joylaridan etkazib berilgan.

Somoniy va Qoraxoniylar hukmdorlar qishloq xo'jaligini ham ko'tarishga intilganlar. Qishloq xo'jaligi nafaqat aholi turmush tarzining asosi, balki umumiy iqtisodiy o'sish va samaradorlikning

muhim jihati bo'lgan. Ushbu sohadagi rivojlanish shaharlashuv, savdo, mehnat bozori va hunarmandchilikning o'sishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatgan.

Ayniqsa xalifalik davrida islom sharqida qishloq xo'jaligida misli ko'rilmagan ko'tarilishlar yuz bergan. Bu davrda qishloq xo'jaligi oddiy dehqonchilikdan yangi bosqichga ko'tariladi. Arxeologik va tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, yangi ekin turlari joriy qilingan. Shu bilan birga, sug'orish tizimlari yangilanib, ekin ekishning samaradorligi oshirilgan. Masalan, bir yilda ikki marta hosil olish amaliyoti keng tarqalgan. Bunday texnik taraqqiyot natijasida erdan foydalanish unumdorligi ancha oshib, hosildorlik ko'paygan. Qishloq xo'jaligi faqat oziq-ovqat etishtirishni emas, balki shaharlardagi hunarmandchilik va sanoat faoliyatini ham ta'minlab bergan. Don, paxta, jun, teridan tayyorlangan xom ashyolar shahar hunarmandlari tomonidan qayta ishlangan. Shunday qilib, qishloq xo'jaligi shahar iqtisodiyotini bog'lab turgan asosiy halqa vazifasini bajargan. Masalan, Misrda davlatning qishloq xo'jaligi ustidan qat'iy nazorati shakllangan. Yer maydonlari, ekin turlari, soliq miqdori va aholi mehnati to'liq xujjatlashtirilgan. Bu hisob-kitoblar orqali davlat naqd pul yig'ib, iqtisodiy siyosatida aniq rejalarga amal qilgan. Soliq yig'imgilarida naqd pul aylanmasi rivojlangani ham qishloqlar bozor tizimiga integratsiyalashganidan dalolat beradi. Al-Andalus (musulmon Ispaniyasi) va Misr qishloq xo'jaligida etakchi hududlardan bo'lgan. Al-Andalusda aholi o'sishi, erlardan samarali foydalanish va sug'orish tizimlarining kengaytirilishi natijasida iqtisodiy faollik kuchaygan. Barbarlarning qishloqlarga ko'chib kelishi va yangi erlarni o'zlashtirishi ham bu rivojga turtki bergan. Qishloq xo'jaligi islom dunyosida iqtisodiy o'sish va samaradorlikning poydevori bo'lgan. Yangi texnologiyalar, sug'orish tizimlari, aholining mehnati va davlat siyosati tufayli erlar unumli o'zlashtirilgan, hosildorlik oshgan va bozorlar bilan chambarchas bog'langan. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ham ta'minlab bergan (Shatzmiller 2011: 132–184). Umumislom dunyosining Yaqin va O'rta Sharq, Mag'rib va Janubiy Yevropa mintaqalarida yuz bergan bunday iqtisodiy yuksalishlar Movarounnahrda ham o'z aksini topgan, albatta.

Tadqiqotlarda Sug'dda shaharlardagina emas, balki undan chetdagi qishloqlarda ham hunarmandchilik taraqqiy etgani o'z ifodasini topgan. Somoniylar davrida naqshinkor matoga naqsh - tirazlar tayyorlanadigan maxsus ustaxonalarga ega bo'lganlar. Al-Utbiy Somoniylar elchisining Adud ad-Dauli (Adud ad-Davla) saroyiga olib kelgan sovg'a haqidagi hikoyani keltirgan, unga ko'ra elchi sovg'a sifatida tiraz tushirilgan 1000 dona kiyim (yoki kiyim uchun mato bo'lagi) keltirgan. Bu tirazlarda Nuha ibn Mansur nomi zikr etilgan bo'lsa, 500 dona kiyim Ubaydullah ibn Ahmad nomi bilan bezatilgan, qolgan bir qismi esa hojib Abu-l-Abbos Tash nomi bilan tayyorlangan edi (Беле-ницкий и др. 1973: 272).

Al-Muqaddasiyga ko'ra, Samarqandda kumushrang matolar (simg'un), turklar tomoniga eksport qilingan «samarqandcha» parcha, qizil «mumarjal» matosi, zig'irdan ishlab chiqarilgan «siniziy» va turli xil ipak matolar ishlab chiqarilgan.

Buxoro va Dobusiya shaharlarida paxtadan tayyorlanadigan «vedariy» matolar ishlab chiqarilgan bo'lib, ular ba'zan «xurosoncha parcha» deb ham nomlangan. Ibn Xavqal bunday matodan tikilgan kiyimni besh yil davomida kiyib yurgani haqida hayajon bilan yozadi: bu mato muloyim, biroz sariq tusdagi zich to'qimalik bo'lib, oqartirish jarayonidan o'tkazilmagan. Xorasonda uni amirlardan tortib vazirlar, askarlar va «oddiy xalq» ham kiygan. Biroq bu so'nggi fikr kam ta'minlangan insonlarga tegishli emas, chunki «vedariy» matosi 2 dan 20 dinorgacha narxlangan bo'lib, asosan davlat xizmatida bo'lmagan boy shaharliklar uchun mo'ljallangan edi.

Robinjon qizil jun chakmonlari bilan mashhur bo'lgan. 712-yilda Robinjon yaqinida arablar bilan sug'dlar o'rtasida sodir bo'lgan jang haqida so'zlar ekan, at-Tabariy ham shu qizil jun chakmonlarni eslab o'tgan.

Ko'pgina shaharlarda temirchilar chetdan keltirilgan qorishma yoki qayroq temir bo'laklarini ishlovdan o'tkazganlar. Temirchilik faqat shaharlardagina emas, deyarli barcha qishloqlarda ham

mavjud bo'lgan, biroq shaharlarda temirchilik ancha ixtisoslashgan shaklda rivojlangan (Беленицкий и др. 1973: 286).

O'rta asr davrida Markaziy Osiyo hududida joylashgan qishloqlar geosiyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotda muhim o'rin tutgan. Bunday qishloqlarda mahalliy aholi qishloq xo'jaligi bilan shug'ullangani barobarida, har bir mintaqaning o'ziga xos xunarmandchilik an'analari ham rivojlangan. Ular nafaqat ichki bozorda talabni qondirgan, balki Markaziy Osiyodan o'tgan savdo yo'llari (Janubiy, Sharqiy yoki Buyuk Ipak yo'li tarmoqlari) orqali chet ellarga ham eksport qilib, mintaqaning iqtisodiy ravnaqiga hissa qo'shgan.

Sug'd qishloqlar Markaziy Osiyodagi yirik shaharlar iqtisodiy aloqalarni ta'minlashda qishloqlar asosiy joylashuv punktlari bo'lib, ushbu yo'llarda safar qilayotgan karvonlar uchun dam olish, oziq-ovqat zaxiralarini to'ldirish maskanlari sifatida xizmat qilgan. Qishloq xo'jaligining (dehqonchilik, chorvadorlik) rivojlanganligi shaharlar aholisining oziq-ovqat, paxta, jun kabi xom ashyo talablarini ta'minlashda muhim bo'lgan.

Ko'chmanchilar bilan savdo Markaziy Osiyoning shimoliy-sharqiy mintaqalarida ayniqsa katta ahamiyat kasb etgan, chunki o'sha erlarda vohalar zanjiridan keyin keng dashtlar boshlanar edi. Bu hududlardan po'stinlar (teri), go'sht va jun olib kelingan. Qayta ishlangan teri esa boshqa shaharlarga olib ketilgan yoki tayyor mahsulot ko'rishida ko'chmanchilarga qaytarilgan. Boshqa mintaqalarda ko'chmanchilar bilan savdo ancha kamroq o'rin tutgan.

Ko'chmanchilar bilan savdo ta'sirida ayrim joylarda mavsumiy yarmarkalar paydo bo'ldi. Buxoro vohasida X–XI asrlar boshlarigacha yarmarkalar Tavavis va Sharg'da bo'lib o'tar edi. Shimoliy-sharqiy dasht hududlarida esa yarmarkalar ko'chmanchilarning mavsumiy ko'chishlari bilan chambarchas bog'liq edi. Dix-i Nudjiketda har bahor uch oy davomida yarmarka tashkil etilib, u erga juda ko'p chorva hayvonlari olib kelinar edi. Narxi suyaklardan ajratilgan bir man go'sht uchun hatto 1/4 dirhamgacha tushardi. XII asrda yarmarkalar ahamiyati pasaya boshladi. Buxoro vohasi shaharlarida esa yarmarkalar o'rnida faqat haftalik bozorlar qolgan. Bu holatni har tomonda ham hunarmandchilik ishlab chiqarishining rivoji, ham savdoning kuchayishi bilan izohlash mumkin. Chunki savdo taraqqiyoti har kunlik tovar etkazib berishni ta'minlab, uzoq kutilgan mavsumiy yarmarkalarga bo'lgan ehtiyojni kamaytirgan.

O'rta asr davrida muhim yirik qishloqlar atrofida madaniy, harbiy ahamiyatga ega kichik qal'alar, qarorgohlar joylashgan bo'lib, ular turli davlatlar faoliyati davrida joylashuv jihatdan strategik ahamiyat kasb etgan. Arxeologik tadqiqotlarda qishloqlarning siyosiy tayanch ekanligining dalili bu ko'shklardir. Ko'shklar — bu qishloq joylarida qurilgan zodagonlarga tegishli yozgi saroylar, mulk nazorati nuqtalari yoki yarim mudofaa ahamiyatiga ega hashamatli inshootlari bo'lib, zodagonlarning shahardan tashqaridagi hayotining muhim elementlaridan biri bo'lgan. Ular sug'oriladigan erlar, bog'lar va chorvachilik hududlariga yaqin joylashgan, qishloq xo'jaligining ijtimoiy va iqtisodiy boshqaruviga xizmat qilgan. Ayrim ko'shklar mudofaa xususiyatlariga ega bo'lsa-da, ko'pincha boylik va nufuz ramzi bo'lgan. Shu bilan birga, ko'shklar ombor, ishlab chiqarish markazi va ma'muriy nuqta sifatida ham faoliyat yuritgan. Arxeologik topilmalar bu binolarning qishloq infratuzilmasidagi o'rnini yanada ravshanlashtirmoqda (Piekarz 2019: 493–508).

Sug'd qishloqlari ekologik joylashuvi va turli tabiiy sharoitlariga ko'ra, hunarmandchilik turlari va xom-ashyo etkazib berishiga ko'ra bir-biridan farqlangan. Suv resurslari etarli bo'lgan qishloq aholisi— don, meva, gil, bo'yoq, paxta bilan ta'minlagan. Tog' tegralari hududlarida chorvachilik taraqqiy etgani bois shahar aholisiga jun, teri, go'sht, sut mahsulotlari bilan birga rudalar ham etkazib bergan. Shu o'rinda aytish joizki, Sug'dning qishloq joy makonlari faqat xom-ashyo etkazib berish manbasi bo'lmasdan, bu erda ichki talab uchun mahsulotlar ishlab chiqaradigan hunarmandchilik ustaxonalari bo'lgan. Buning misoli sifatida shaharlardan tashqarida ham kulolchilik va ruda eritish xumdonlarining topilishini ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

Zarafshon vohasining yirik urbanistik markazlari va ularning atrofidagi o'nlab katta kichik qishloqlari yarim ko'chmanchilar orasidagi muhim tutash nuqtalar bo'lgan. Ular orqali ko'chmanchilar va muqim aholi o'rtasida iqtisodiy va madaniy almashinuv bo'lgan.

Voha atrofida istiqomat qiluvchi ko'chmanchi va boshqa aholi chorva mahsulotlari (go'sht, sut, jun), terilar, chorva, ov hayvonlari va qishloq xo'jaligi mahsulotlari shahar aholisi ipak, mato, hunarmandchilik buyumlarini o'zaro almashishganlar. Bu ikki tomon bir-birining ehtiyojini mahsulot almashish yoki pul asosida qondirgan.

Tog' etaklarida hamda dasht hududlarida istiqomat qiluvchi aholi karvonlar uchun xavfsizlik, transport, tuya va ot kabi xizmatlarni taklif etganlar.

Ko'chmanchilar yozda voha shaharlariga tushib savdo qilganlar. Shaharlar yarmarkalarida mahsulotlar almashingan. Bu savdo bilan birga madaniy ta'sirlar ham yuzaga kelgan.

Ko'chmanchi davlatlar (qoraxitoylar, qaraxoniylar va h.k.) shaharlar bilan iqtisodiy shartnomalar tuzgan. Bozor, soliq va ma'muriy tizimlar joriy qilingan. Ko'chmanchilar muqim iqtisodiyotga moslashgan.

Ko'chmanchilar va voha shaharlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar keng qamrovli bo'lib, nafaqat mahsulot savdosi, balki logistika, siyosiy aloqa va madaniy ta'sirlar orqali ham amalga oshgan. Bu munosabatlar Markaziy Osiyodagi sivilizatsion taraqqiyotda muhim rol o'ynagan (Liu 2015: 211–229).

Shu o'rinda ta'kidlash joizki ko'plab tadqiqotlarda Markaziy Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar davri iqtisodiy-siyosiy va harbiy hayotida katta mavqega ega ko'chmanchi yoki yarim ko'chmanchilar jamiyatining iqtisodiy bazasi faqat chorvachilik va qisman hunarmandchilik edi degan fikr shakllangan (Frachetti et al. 2024:1118–1124).

Markaziy Osiyo xalqlari haqidagi "ko'chmanchi stereotip", ya'ni ularni faqat ko'chmanchi va muqim hayot tarzidan yiroq xalqlar sifatida tasvirlash – asosan siyosiy va ideologik manbalar ta'sirida shakllangan. Bunday yondashuv qadimgi yunon, xitoy va sovet davri manbalaridan kelib chiqqan bo'lib, tarixiy haqiqatni to'liq aks ettirmaydi.

Arxeologik topilmalardan ma'lumki, Markaziy Osiyo aholisi faqatgina ko'chmanchi bo'lib qolmasdan, sug'oriladigan qishloq xo'jaligi, chorvachilik, don etishtirish va hunarmandchilik bilan ham shug'ullangan.

Fitolitlar, urug' qoldiqlari va izotop tadqiqotlari bu hududlarda bug'doy, arpa, toriq kabi turli ekinlar keng etishtirilganini ko'rsatadi. Shuningdek, izotop tahlillari orqali ko'p odamlar yil davomida bir joyda yashaganligi ham aniqlangan. Bu esa nomadizm (ko'chmanchilik) aholining yagona turmush-tarzi emasligini isbotlaydi.

Markaziy Osiyo jamiyatlari ijtimoiy ierarxiya, muqaddas joylar, qabristonlar, muhandislik inshootlari va moliyaviy tizimlarga ega bo'lgan. Hunarmandchilik, metall ishlovi, sopol ishlab chiqarish kabi faoliyatlar esa ixtisoslashgan iqtisodiy hayot mavjudligini ko'rsatadi. Ko'chmanchilik va muqimlik bir-biriga qarshi tushunchalar emas, balki hududiy va mavsumiy sharoitga moslashgan, uyg'unlashgan turmush tarzidir. Bugungi etnografik kuzatuvlar ham tarixiy madaniy xilma-xillikni tasdiqlaydi.

O'rta asrlar davri aholi turmush tarzida ko'chmanchilik, dehqonchilik va hunarmandchilik bir vaqtda mavjud bo'lgan. Shu sababli, arxeologik tadqiqotlar faqat nomadik modellarga emas, balki mintaqaning haqiqiy, murakkab va xilma-xil hayotiga asoslangan yondashuvni talab qiladi (Spengler et al. 2021: 675–706).

Biz ko'rib chiqayotgan davr qishloqlarining iqtisodiy-siyosiy tizimi haqida Xuroson misolida umumiy tasavvurga ega bo'lishimiz mumkin. Xuroson tog'li va suvga boy mintaqalardan iborat bo'lib, qishloqlar asosan irrigatsiya tizimlari (koriz, kanot) orqali sug'oriladigan hududlarda

joylashgan. Bu erda aholi asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Qishloq jamiyati hayoti tabiat bilan uzviy bog'liq bo'lib, suv manbalari boylik va tirikchilik vositasi bo'lgan.

Katta erlar dehqonlar qo'lida bo'lib, ular mulkdorlik bilan birga mahalliy ma'muriy vazifalarni ham bajargan. Ular ko'pincha arab qabilalariga "mavlo" sifatida xizmat qilganlar. Qishloq aholisi bo'lgan oddiy dehqonlar – asosiy ishchi kuch sifatida turmush kechirgan, ularning huquklari va iqtisodiy ahvoli ko'p hollarda er egasi va soliq tuzilmalariga bog'liq bo'lgan.

Arablar hujumidan so'ng, mavjud sosoniy soliq tizimi saqlanib qolingan. Xiroj – er solig'i sifatida joriy etilgan bo'lib, bu aholiga jiddiy iqtisodiy bosim bo'lgan edi. Xurosonda 22 yil davomida 19 nafar soliq yig'uvchi almashgan. Demak, markaziy hokimiyatning bu hududdagi asosiy maqsadi moliyaviy manfaat bo'lgan. Xurosondan 44.8 million dirham, 2000 ta turk quli, matolar va qimmatbaho tovarlar to'plangan (Azad 2021: 343–344).

Qishloqlar shaharlarni oziq-ovqat, jun, paxta, ipak va teri bilan ta'minlagan. Qishloq mahsulotlari bozorlarda sotilgan, yarmarkalarda savdo qilingan. Xususan, Balx, Nishopur, Marv kabi shaharlar atrofida qishloq iqtisodiyotini tarmoqlashgan shaklda kuzatish mumkin edi.

Suv qishloq hayotining asosiy omili bo'lgan. Irrigatsiya tizimlari "mirob" kabi mahalliy mutasaddilar tomonidan nazorat qilingan. Balx shahridagi 12 ta kanal qishloqlarni sug'orishda foydalanilgan. Suvning adolatli taqsimlanishi va texnikasi qishloq iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlagan (Azad 2021: 332–345).

O'rta asrlardagi qishloqlar Markaziy Osiyo tarixida, iqtisodiyoti va madaniyatida muhim o'rin tutib, garchi ko'p hollarda asosiy ahamiyatdan mahrum holda qaralgan bo'lsa-da, amalda shaharlar bilan baravar darajada ta'sirga ega bo'lgan. Qishloqlar qulay transport yo'llari yaqinida joylashgani tufayli, o'z mahsulotlarini nafaqat mamlakat ichki bozoriga, balki tashqi bozorlarga ham etkazib berish imkoniga ega bo'lgan. Shu orqali ular umummintaqaviy savdo-iqtisodiy jarayonlarda faol ishtirok etgan.

### **Xulosa.**

IX–XIII asrlarda Sug'd mintaqasining qishloqlari Markaziy Osiyoning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida muhim o'rin tutgan. Ushbu davrda Sug'd hududi Somoniylar va Qoraxoniylar davlatlari tarkibida bo'lib, qishloqlarning rivojlanishi dehqonchilik, bog'dorchilik, chorvachilik va hunarmandchilik kabi sohalar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Sug'd qishloqlari asosan sug'oriladigan erlar atrofida barpo etilgan bo'lib, murakkab irrigatsiya tizimlari orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlarining yuqori hosildorligiga erishilgan. Qishloqlarda don, sabzavot va poliz ekinlari, o'nlab turdagi mevalar va uzum navlari etishtirilgan bo'lib, bu mahsulotlarning katta qismi shaharlar bozorlarini ta'minlagan.

Sug'd qishloqlarida hunarmandchilik sohalari ham rivojlangan bo'lib, kulolchilik, mato ishlab chiqarish va boshqa kasb-hunarmandchilik tarmoqlari mavjud bo'lgan. Ipak yo'li orqali o'tgan savdo yo'llari bo'ylarida faoliyat ko'rsatgan qishloqlarning iqtisodiy mavqeini yanada oshirgan va ularni mintaqalararo savdo aloqalarining faol ishtirokchisiga aylantirgan.

Aholining ijtimoiy tuzilishi ham murakkab bo'lib, qishloqlarni mahalliy boshliqlar (rais) boshqargan. Qishloqlarda mustaqil siyosiy hokimiyat mavjud bo'lmagan va ular markaziy hokimiyat tomonidan tayinlangan soliq yig'uvchilar tomonidan nazorat qilingan. Qishloq aholisi asosan dehqonlar, bog'bonlar va chorvadorlardan iborat bo'lsa-da, ayrim hududlarda hunarmandlar ham faoliyat yuritgan.

Diniy va madaniy jihatdan Sug'd qishloqlari xilma-xilligi bilan ajralib turgan. Islom dini bilan bir qatorda qisman zardushtiylik va nasroniylik kabi qadimiy dinlar ham saqlanib qolgan. Arxeologik qazishmalar vositasida o'rganilgan ibodatxonalar, qabristonlar va turar-joylar qoldiqlari qishloq aholisi urf-odatlarini va diniy e'tiqodlari haqida muhim ma'lumotlarni taqdim etadi.

Sug'd qishloqlarining o'rta asrlardagi rivojlanishi haqida arab-fors yozma manbalari keng ma'lumot beradi. Al-Istaxriy, Ibn Havqal, Al-Muqaddasiy kabi mualliflar o'z asarlarida qishloqlarning geografik joylashuvi, iqtisodiy ahamiyati va madaniy hayotini batafsil tasvirlab berganlar. Masalan, Al-Istaxriyning "Kitob al-Masalik val-Mamalik" asarida Sug'd vodiylarining boy tabiati, sug'orish tizimlari va dehqonchilik an'analari haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Ibn Havqal esa "Kitob surat al-Ard" asarida Samarkand atrofidagi qishloqlarning tabiiy resurslari, hosildorligi va iqtisodiy rivojlanishi haqida so'z yuritgan.

Sug'd qishloqlari Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi rivojida muhim o'rin tutib, mintaqaning iqtisodiy barqarorligi va madaniy taraqqiyotini ta'minlashda muhim rol o'ynagan. Qishloqlarning rivojlanishi orqali nafaqat mahalliy aholi farovonligi oshgan, balki butun mintaqada iqtisodiy va madaniy aloqalar mustahkamlangan.

O'rta asrlar davri Markaziy Osiyo qishloqlari an'anaviy tarixshunoslikda ko'p hollarda ikkinchi darajali yoki shaharlarga qaram hududlar sifatida qaralgan. Biroq so'nggi yillardagi arxeologik topilmalar, manba tadqiqotlari va iqtisodiy tarix sohasidagi ilmiy izlanishlar qishloqlarni mustaqil va faol iqtisodiy-ijtimoiy markazlar sifatida qayta baholashni taqozo etmoqda.

Maya Shatzmiller o'zining iqtisodiy tahlilida qishloq xo'jaligi Islom dunyosidagi iqtisodiy o'sishning asosiy omili bo'lganini ta'kidlaydi. Al-Andalusdagi aholi o'sishi va dehqonchilikning kengayishi qishloq xo'jaligida ulkan samaradorlikka olib kelgan. Hinri Liu ta'kidlaganidek, qishloqlar nafaqat xom ashyo manbai, balki o'z hududida hunarmandchilikni rivojlantirgan maskanlar ham bo'lgan. Qishloq aholisi tomonidan chirmangarlik, ipakchilik, moy tayyorlash, paxta tozalash, qog'oz ishlab chiqarish kabi faoliyatlar ham amalga oshirilgan. Bu ishlab chiqarish turlari bozor bilan bog'liq bo'lib, tovar aylanmasini ta'minlagan. Qishloqlar ko'pincha Ipak yo'liga tutashgan karvon yo'llari yonida joylashgan. Bu ularga mahsulotlarni savdo orqali ichki va tashqi bozorlarga chiqarish imkonini bergan. Yarmarkalar, mavsumiy bozorlar va karvon oromgohlari qishloqlarda joylashgani, ularning savdo infratuzilmasiga bog'liq ekanini ko'rsatadi. Yangi tadqiqotlar nomadizm konsepsiyasini qayta ko'rib chiqib, qishloq aholisining muqim va ixtisoslashgan jamiyat bo'lganini isbotlaydi. Tuzusay, Begash, Talgar kabi manzillarda omborlar, metall ustaxonalar, suv inshootlari va uy-joylar topilgan. Bu qishloqlarning ijtimoiy tuzilmasi va iqtisodiy barqarorligini namoyon etadi.

Qishloq xo'jaligi davlat iqtisodiyotidagi muhim o'rinni egallagan. Misrda dehqonchilikda erlar, ekinlar va mehnat kuchlari soliq hisobotiga kiritilgan. Hisob-kitob qilish uchun naqd pul muomalasi rivojlangan. Davlat soliq orqali qishloqdan to'g'ridan-to'g'ri daromad olgan va uni boshqa tarmoqlarga sarflagan.

Barcha manbalar va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'rta asrlardagi qishloqlar Markaziy Osiyo iqtisodiyotining yuragi bo'lgan. Ular ishlab chiqarish, xom ashyo, oziq-ovqat, mehnat va bozor infratuzilmasi bilan ta'minlab, shaharlar rivojiga zamin yaratgan. Bugungi kunda ham qishloqlarni faqat passiv dehqon maskani sifatida emas, balki murakkab va dinamik iqtisodiy tizim sifatida ko'rib chiqish zarur.

Arxeologik tadqiqotlar qishloqlarning ekologik moslashuvi va suv resurslaridan foydalanish uslublarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etgan. Shuningdek, tadqiqotlar qishloq xo'jaligi texnologiyalari, aholi migratsiyasi va etnik tarkibi haqida ham ma'lumotlar beradi.

IX–XIII asrlardagi Sug'd qishloqlari Markaziy Osiyoning iqtisodiy va madaniy rivojlanishida asosiy rol o'ynagan. Ularning rivojlanishi mintaqaning tarixiy jarayonlarini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi va Sug'd hududining qadimiy sivilizatsiyalar tarixidagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatadi. Shu bois, Sug'd qishloqlarining tarixi bugungi kunda ham tarixshunoslik va arxeologiya fanlarining dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Tadqiqotimizda IX–XIII asrlarda Markaziy Sug'd hududida joylashgan qishloqlarning lokalizatsiya masalalari va ularning iqtisodiy ahamiyati keng qamrovda, ilmiy metodlar asosida

o'rganildi. Tadqiqot uchun arab-fors yozma manbalari, arxeologik topilmalar va zamonaviy ilmiy adabiyotlar ma'lumotlari birgalikda tahlil qilinib, quyidagi bir necha muhim xulosalarga kelish imkoni tug'ildi.

Sug'd qishloqlarining lokalizatsiyasini aniqlash tarixiy geografiya, toponimika va arxeologik dalillarni uyg'unlashtirish orqali amalga oshirildi. Arab-fors manbalarda keltirilgan joy nomlari, farsaxda ifodalangan masofalar, tuman (rustaq) hamda shahar atrofidagi aholi manzilgohlari haqidagi ma'lumotlar zamonaviy kartografiya hamda toponimik tahlillar bilan solishtirib ko'rildi. Bu yondashuv, bir tomondan, o'rta asr davrida qishloqlar joylashuvini aniq belgilash imkonini bergan bo'lsa, ikkinchi tomondan, tarixiy manbalarda tasvirlangan "qishloq" tushunchasining aniq mohiyatini (shakli, boshqaruv tizimi, aholi soni, iqtisodiy bazasi) yaxshiroq anglashga zamin yaratdi.

Tadqiqotlarimiz Sug'd qishloqlarining iqtisodiy o'rni haqidagi ilmiy qarashlar yanada boyitishga xizmat qilishi mumkin. Ya'ni, ushbu qishloqlar ko'p hollarda faqat "qishloq xo'jaligi bazasi" sifatida ifodalanib kelgan bo'lsa-da, ularda dehqonchilik bilan bir qatorda xunarmandchilik, uy hunarmandchiligi, mavsumiy yarmarkalar va ko'chmanchilar bilan tovar almashinuvi ham rivojlangan. Bu esa Somoniylar va Qoraxoniylar davrlarida mintaqaviy iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashda qishloqlarning o'ziga xos "ko'maklashuv bo'g'ini" rovida bo'lganini ko'rsatadi.

Qishloqlar irrigatsiya tizimi, tabiiy-geografik joylashuv va shaharlar bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar orqali bir xil butun tizim sifatida tasvirlash mumkin. Shaharlarni xom ashyo va oziq-ovqat bilan ta'minlash, xunarmandchilik mahsulotlari uchun zarur resurslarni etishtirish va qayta ishlash, karvon yo'llari uchun logistika bazasi bo'lish - bular barchasi qishloqlarning iqtisodiy hamda ijtimoiy barqarorligida hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan.

Ushbu mavzu orqali ham ko'chmanchilik va o'troq dehqonchilik munosabatlari yangicha yondashuv bilan ko'rib chiqish mumkin. Ko'p yillar davomida Markaziy Osiyo tarixini faqat nomad (ko'chmanchi) yoki o'troq dehqonchilik modeli bilan tushuntirish tendensiyasi mavjud edi. Biroq yangi arxeologik tadqiqotlar, fitolit hamda izotop tahlillari ushbu tasavvurni qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatgan. Bunday yondashuvni Sug'ddagi tarixiy jarayonlarga ham qo'llash zarur. Sug'dda yarim ko'chmanchilar, mavsumiy ko'chib yuruvchi qabilalar va o'troq aholi o'rtasida iqtisodiy hamkorlik mavjud bo'lgani, bu hol mintaqa taraqqiyotida muhim omil bo'lgan.

